

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2024 Vol. 3

**tsuull.uz
goldenscripts.tsuull.uz**

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2024 Vol. 3

tsuull.uz

goldenscripts.tsuull.uz

BOSH MUHARRIR Shuhrat Sirojiddinov
BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI Karomat Mullaxo'jayeva
MAS'UL KOTIB Ozoda Tojiboyeva
TAHRIR HAY'ATI Karl Rayxl (Germaniya) Isa Habibeyli (Ozarbayjon) Seyhan Tanju (Turkiya) Almaz Ulvi (Ozarbayjon) Benedek Peri (Vengriya) Vahit Turk (Turkiya) Teymur Kerimli (Ozarbayjon) Eunkyung Oh (Koreya) Nazef Shahrani (AQSH) Boqijon To'xliyev Muhammadjon Imomnazarov Bilol Yujel (Turkiya) Qosimjon Sodiqov Zulxumor Xolmanova Mustafa O'ner (Turkiya) Nurboy Jabborov G'aybulla Boboyorov Kimura Satoru (Yaponiya) Imran Ay (Turkiya) Aftondil Erkinov Nadir Mamadli (Ozarbayjon) Rashid Zohidov Otabek Jo'raboyev Bulent Bayram (Turkiya) Qo'ldosh Pardayev Nodirbek Jo'raqo'ziyev Oysara Madaliyeva Hilola Nazirova

MUNDARIJA	
MATNSHUNOSLIK	
Shermuhammad Amonov Ahmad Tabibiy devonlari qoʻlyozmalari genealogiyasi	4
Sharofiddin Jalilov Xorazm adabiy muhitida Otanazar Kamoliyning tutgan oʻrni	24
ADABIYOTSHUNOSLIK	
Zohra Allahverdiyeva “Xəmsə” əənənəsində mövzunun həlledici funksiyasi	37
Atilla Süleymanli Füzuli Hikmət Məktəbinin Yetirmələri: Erkin Vahidovun Yaradıcılığında Füzuli Təsiri	51
Gavhar Muftullayeva “Nasoyim ul-muhabbat”da Xoja Muhammad Porso va Xoja Ubaydulloh Ahror zikri	62
LINGVISTIKA	
Umarjon Qodirov Qarluq lahjasining oʻrganilish tarixi	76
Feada Samadbek Afgʻoniston oʻzbek tili fonetikasida dissimilyatsiya hodisasi	90

EDITOR IN CHIEF	
Shuhrat Sirojiddinov	
 DEPUTY EDITOR IN CHIEF	
Karomat Mullakhojaeva	
 EXECUTIVE SECRETARY	
Ozoda Tojibaeva	
 EDITORIAL BOARD	
Karl Rechl (Germany)	
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	
Seyhan Tanju (Turkey)	
Almaz Ulvi (Azerbaijan)	
Benedek Peri (Hungary)	
Vahit Turk (Turkey)	
Teymur Kerimli (Azerbaijan)	
Eunkyung Oh (Korea)	
Nazif Shahrani (USA)	
Bakijan Tukhliev	
Mukhammadjan Imomnazarov	
Bilol Yujel (Turkey)	
Kasimjan Sadikov	
Zulkhumor Kholmanova	
Mustafa O'ner (Turkey)	
Nurboy Jabborov	
Gaybullah Babayarov	
Kimura Satoru (Japan)	
Imran Ay (Turkey)	
Aftandil Erkinov	
Nadir Mamadli (Azerbaijan)	
Rashid Zahidov	
Atabek Juraboev	
Bulent Bayram (Turkey)	
Kuldosh Pardaev	
Nodirbek Jurakuziev	
Oysara Madalieva	
Hilola Nazirova	

CONTENTS	
TEXTOTOLOGY	
Shermuhammad Amonov	
Genealogy of the Divan Manuscripts of Ahmad Tabibi	4
 Sharofiddin Jalilov	
The role of Otanazar Kamoli in the literary environment of Khorezm	24
 LITERATURE	
Zəhra Allahverdiyeva	
The resolving function of the theme in the Khamsa Tradition	37
 Atilla Süleymanli	
Fuzuli's Influence on Erkin Vahidov's Creativity who is a Student of Fuzuli's Knowledge School	51
 Gavhar Muftullayeva	
The mention of Khoja Muhammad Porso and Khoja Ubaydullah Ahror in "Nasoyim ul-muhabbat"	62
 LINGUISTICS	
Umarjon Kodirov	
History of studying the Qarluq dialect	76
 Feada Samadbek	
Dissimilation in the Phonetics of the Uzbek Language of Afghanistan	90

MATNSHUNOSLIK

TEXTOLGY

Ahmad Tabibiy devonlari qo'lyozmalari genealogiyasi

Shermuhammad Amonov¹

Abstrakt

Matnshunoslikda matn tarixi biror bir adabiy yodgorlikning yaratilishi uchun badiiy niyatning paydo bo'lishidan to uning yakuniga qadar yuz bergan jarayonlarni qamrab olsa, genealogiya adabiy yodgorlikning mukammal varianti yuzaga kelishida asos bo'lgan qo'lyozmalarning tadrijiy takomili bilan bog'liq jarayonni o'z ichiga oladi.

Muayyan ijodkorning mukammal devoni uchun asos bo'lgan to'plamlar "protodevon" deb nomlanib kelmoqda. Protodevonning asosiy sharti muayyan ijodkor lirik merosi jamlanish jarayonida uning o'zi ishtirok etishi, muallifning nazorati ostida to'plam holatiga keltirilishidir.

Maqolada Tabibiy devonlariga asos bo'lgan manbalar va ularning tarkibi haqida mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: *qo'lyozma, devon, protodevon, genealogiya, matn, matn tarixi, fond.*

Kirish

Adabiyot tarixi bilan bog'liq har qanday ma'lumotning aniq va mukammal bo'lishi muayyan ijodkor biografiyasi, ijodiga doir barcha mavjud qo'lyozmalarning qiyosiy tahliliga bog'liq. Chunki qo'lyozmalarning turli kotiblar tomonidan turli davrlarda ko'chirilishi ular matnida tafovutlar ko'payishiga sabab bo'ladi. Matndagi farqlar uni ko'chirgan kotibning saviyasi, dunyoqarashi, u yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat kabi turli omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Qo'lyozmalar genealogiyasini o'rganish, shu nuqtayi nazardan muhimdir. Matnshunos Mavjuda Hamidovanning quyidagi fikri ham buni tasdiqlaydi: "Qo'lyozmalarning matniy tadqiqi davomida matnshunoslik ilmining muqoyasa, tahlil va ilmiy

¹Amonov Shermuhammad Normurotovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Alisher Navoiy Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: amonov@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-3962-1774

Iqtibos uchun: Amonov, Sh. N. 2024. "Ahmad Tabibiy devonlari qo'lyozmalari genealogiyasi". *Oltin bitiglar* 3: 4 – 23.

hukm kabi metodlariga asoslangan holda har bir nusxaning yaratilish tarixi va ularning o'zaro bog'liqligi masalasiga ham diqqatni qaratish lozim. Chunki bu hol har bir qo'lyozmaning yaratilishi uchun asos bo'lgan nusxani belgilash, ya'ni qo'lyozmalar shajarasini aniqlash imkonini beradi" [Homidova 1994, 76].

Lug'atda "genealogiya" istilohi quyidagicha izohlangan: "Genealogiya (yunoncha Genealogia – shajara) – yordamchi tarix fanlaridan biri (XVII-XVIII asrlarda vujudga kelgan); bilimlarning amaliy sohasi, shajaralar tuzish; urug' va oilalarning kelib chiqishi, ayrim shaxslar tarixi va qarindoshlik aloqalarini o'rganadi. Shajara istilohi esa: shajara (arabcha – daraxt), genealogiya – kishilarning kelib chiqishi, ajdodlari va qon-qarindoshlik aloqalari majmui. Uni tarix fanining bir tarmog'i – genealogiya fani o'rganadi. Bu istiloh matnshunoslikka tatbiq etilsa, muayyan asar qo'lyozmalarining ko'chirilish sanalariga ko'ra tadrijini ham o'z ichiga oladi. Bunda, tabiiyki, muallif dastxati eng ishonchli manba sanaladi. Ishonchlik nuqtayi nazaridan keyingi o'rinni muallif hayot paytida, uning ishtirokida ko'chirilgan qo'lyozma egallaydi. Odatda, shu tariqa muallif davriga yaqinroq qo'lyozmaning asllik darajasi balandroq bo'ladi. Lekin qo'lyozmaning mukammalligini har doim ham ushbu mezon asosida belgilab bo'lmaydi. Buni aniqlashda manbani ko'chirgan kotibning bilimi, so'zni his etish darajasi, mas'uliyati singari omillar ham asos qilib olinishi zarur. Tadqiqotda Ahmad Tabibiy asarlari qo'lyozmalarining genealogiyasini ana shu mezonlar asosida tekshirishga harakat qilindi. Zero, "har bir yodgorlik matnida turli nuqsonlarning bo'lishi tabiiy hol, chunki matn ustida hozirgi zamonamizdagi singari o'nlab mutaxassislar mehnat qilgan emas" [Homidova 1994, 76].

Hozirda matnshunoslik sohasidagi tadqiqotlar muayyan ijodkor adabiy merosi yoki biror bir manba yuzasidan kompleks tahlil o'tkazishni talab etmoqda. Sohaga oid bugungi olib borilayotgan ilmiy ishlar an'anaviy tadqiqotlardan tubdan farq qilmoqda. Ya'ni ushbu yo'nalishdagi ilmiy ishlarda an'anaviy matnshunoslik erishgan ilmiy yutuqlar qatorida yangicha tadqiq usullaridan foydalanish ustuvorlik qilmoqda. Shunga ko'ra, qo'lyozma manbalar genealogiyasining tadrijiy tahlili sohaga doir tadqiqotlarda yuqori ilmiy natijalarga olib kelishi shubhasiz. Zero, "*matn tarixi qo'lyozma manbalar genealogiyasini tekshirishdan muallifning va hatto, manbani ko'chirgan kotibning dunyoqarashi va g'oyasini o'rganishgacha, asarning yuzaga kelishida muallif ijodiy niyatining ro'yobga chiqishidan uning yaratilishiga u yoki bu darajada aloqador bo'lgan*

boshqa adabiy yodgorliklar bilan o'zaro bog'liq jihatlari tadqiqigacha bo'lgan barcha jarayonlarni o'z ichiga oladi" [Jabborov 2019, 12]. Demak, matn tarixi biror bir adabiy yodgorlikning yaratilishi uchun badiiy niyatning paydo bo'lishidan to uning yakuniga qadar yuz bergan jarayonlarni qamrab olsa, genealogiya adabiy yodgorlikning mukammal variantini yuzaga kelishida asos bo'lgan asarlarining tadrijiy takomili bilan bog'liq jarayonni o'z ichiga oladi.

Tabibiy ijodining dastlabki bosqichida havaskor shoir sifatida she'rlar mashq qilgan. Keyinchalik she'rlarini to'plab devonlar tartib bergan. Bu haqida shoirning o'zi "Munisul-ushshoq" devoni debochasida shunday yozadi: "... gohi g'azal va gohi qasida va gohi muxammas mashqin qilib dargohi olampanohg'a yetkurub iltifoti shohona va 'atiyoti xusravonadin sharafyob va izzatmaob bo'lur erdim. Kam-kam mururi ayyom va inoyoti hayyi layonom bila kimyo asar nazarig'a manzur va kaminquillar qatorida otim mazkur bo'lub amsol va aqronlarim arosida sarafroz, balki hama fozillar ichida mumtoz bo'ldum. Bas, bu asnoda kunlardin bir kun g'oyati adolat va nihoyati marhamatidin ishorati oliya va bashorati jaloliyya bu hokisori zarravor tarafig'a andoq sudur toptikim hama ash'orimni jam' qilib devon tartibin tuzgaymen va ul murattabni janobi gardunmaobg'a tuhfa va hadiya yo'sinida ko'rguzgaymen va yana hamul onda va dubora haddin ziyoda otifat bila bu nav' kalomi maymanat anjom buyurdilarkim zodai tab'ing, ya'ni bu ash'ori diltisanding xohi qabih va yo xudmalih hama farzandi arjumanding balki tamomi jigarbandingdurlar. Bizga dog'i xonazod va bandai samimul e'tiqoddurlar. Bas alarni bu tariqa ovvora va parishon qilmoq va har kimning qo'lida pora-pora va sargardon qilmoq va muruvvat rasmidin yiroqda odamiyyat shevasidin uzoqdur. Nedinkim va andog'i hama ayon va nihoni nopoydordur. Lekin kalomi nasr va nazm har kimsadin yodgordurkim onga zamon osibi yetushmas va o'lmak savdosi oning boshig'a tushmas.

Nazm:

*Erur she'r farzandi shoir mudom,
Jigar porasi balki keldi tamom.
Agar ul qabih o'lsun yo malih,
Onga jumla farzandi bo'lg'ay sarih.
Jahon mulki chun bor emas poydor,
Va lekin suxan bo'lg'usi yodgor.
Bas endi oning jam'i vojib erur,
Mudavvan qilurg'a munosib erur.*

*Parishonlig'i marhamatdin emas,
Oni hechkim dog'i yaxshi demas.
Har odamki ul qildi jam'i suxan,
Jahon bazmida yoqdi sham'i suxan.
Yetushmas anga hech bodi xazon,
Bo'lur balki jumla alamdin omon.
Ajali jismini garchi barbod etar,
Xaloyiq va lekin oni yod etar.*

*Chun bu guftori guharborni eshitdim joni hazining'a nishot
va zamiri anduhginimg'a inbisot yetushdi. Ammo bebizoatlig'din
sharmisor qilib istitoat jihatidin iztiror o'ti jonu dilimga tushdi,
nedinkim devon tartibin tuzmak, suxan jam'ig'a mayl ko'rguzmak
har beilm va funun qo'lidin kelmas. Balki har devona va majnun oni
bilmas.*

Nazm:

*Qayu odamkim ul devona bo'lg'ay,
Xiraddin borho begona bo'lg'ay.
Nechuk ul aylagay tartibi devon,
Ki ul bor shevai xayli suxandon.
Suxanning jam'i keldi asru mushkul,
Ki oni qilg'usi albatta oqil.
Ne chora aylayin men zori mahzun,
Ki ko'ngliga kelibdur jahli afzun.
Madad qilmas esa Tangri Taolo,
Qila olurmi til bir harf insho".*

O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida Ahmad Tabibiy devonlari qo'lyozmalaridan tashqari, uning lirik asarlari ko'chirilgan boshqa qo'lyozma manbalar ham anchagina. Ushbu fondagi shoir asarlari ko'chirilgan boshqa manbalarni *ikki guruhga* ajratish mumkin:

- 1) *Tabibiyning lirik asarlaridan tarkib topgan manbalar;*
- 2) *XIX asr oxiri XX asr boshlari Xorazm adabiy muhiti shoirlari ijod namunalari to'plangan bayoz-to'plamlar.*

Ushbu maqolada *Tabibiy lirik asarlaridan tarkib topgan manbalar* yuzasidan mulohazalar bayon etildi. Hozirda biror bir ijodkorning mukammal devoni uchun asos vazifani bajargan to'plamlar "protodevon" tarzida nomlanib kelinmoqda. "Proto" (proto) so'zi "birinchi", "dastlabki", "boshlang'ich" degan ma'nolar-ni berib, biror narsaning dastlabki, hali pishib yetilmagan, endi shakllanayotgan bosqichini bildiradi [Erkinov 2017, 22]. Jumladan, matnshunos A.Erkinov "Xazoyin ul-maoniy"ning protodevonlari

haqida shunday yozadi: “Navoiyning “Ilk devon”i va “Oqquyunli muxlislar devoni”ga nisbatan protodevon atamasini qo’llab bo’lmaydi. Chunki ularni Navoiyning o’zi emas, ixlosmandlar tuzgan. Masalan, “Oqquyunli muxlislar devoni”dagi deyarli barcha she’rlar “Badoye’ ul-bidoya” tarkibiga o’tgan bo’lsa ham, bu devonni protodevon deb atay olmaymiz. Protodevon bo’lishi uchun biror bir devonning dastlabki holati – ilk ko’rinishini tuzishda boshqa odamlar, masalan, muxlislar emas, muallifning o’zi ishtirok etishi kerak. “Badoye’ ul-bidoya” va “Navodir un-nihoya” Navoiyning 1470–1490-yillar oralig’ida tuzilgan alohida devonlari bo’lib, ular ichida faqat “Badoye’ ul-bidoya”ning protodevonlari haqidagina gapirish mumkin.

Shunisi muhimki, bizgacha mazkur devonning hozirgacha to’rt qo’lyozmasi yetib kelgan bo’lib, ularning barchasida ko’chirilish davri ko’rsatilgan. Ilmda “Badoye’ ul-bidoya” 1470–1480-yillar orasida ko’chirilgan degan fikr mavjud... Ilm uchun eng ahamiyatli jihati shundaki, ularning barchasi Alisher Navoiy barhayot bo’lgan davrda, balki, Navoiy nazorati ostida ko’chirilgan”. Demak, protodevonning asosiy sharti muayyan ijodkor lirik merosi jamlanish jarayonida uning o’zi ishtirok etishi, muallifning nazorati ostida to’plam holatiga keltirilishidir. Masalaga bunday yondashuv Tabibiy adabiy merosi tadqiqida ham qo’l keladi.

Tabibiy lirik asarlaridan tarkib topgan manbalar

O’zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Asosiy fondidagi **654 raqamli** qo’lyozmada Ahmad Tabibiyning lirik asarlari ko’chirilgan. Ushbu manbada shoirning turkiy va fors tilidagi g’azallari keltirilgan. Qo’lyozmaning 120^b-sahifasigacha g’azallar, 121^a-sahifasidan tarje’bandlar ko’chirilgan. Birinchi tarje’band jami 9 band bo’lib, har bir band 14 misrani tashkil etadi. 125^a–128^a-sahifalari orasida Tabibiy qalamiga mansub ikkinchi tarje’band, 128^a–131^b-sahifalarida uchinchi tarje’band ko’chirilgan. Qo’lyozmaning 132^a–135^a-sahifalarida Tabibiyning “*Vah, netaykim havasu hirs bila zor o’ldum, Ham tama’ xanjaridin signasi afgor o’ldum*”, deya boshlanuvchi, 135^a–138^a-sahifalarda 6 bandli, har bandi 14 misradan tarkib topgan: “*Falak qasriki, bir oliy binodur, Nazarg’a suvrati ko’b dilkushodur*” deb boshlanib, “*Jahon mulki erur asru baqosiz, Nechukkim, dahr zolidur vafosiz*” tarzida yakunlanuvchi beshinchi tarje’bandi, 138^a–141^a-sahifalarda 47 baytli “*Masnaviyi soqiynomayi Tabibiy*”, 141^a–142^a-sahifalarda yana g’azallar, so’ng 145^a-sahifagacha 48 baytli yana bir masnaviy soqiynoma, yana ikkita g’azal va bir soqiynoma, 150^b-sahifadan ikkita ruboiy va bitta

fard ko'chirilgan. Ushbu qo'lyozma matni 152^a-sahifada tugaydi.

Qo'lyozma kolofonida esa quyidagicha matn berilgan:

تمت الكتاب بعون الملك الوهاب. بهادر خان ثاني ظل السبحان خليفه الرحمن اعني محمد
رحيم خلد الله ملك و سلطنه نينگ فرمان عالي لاری بيله اوشبو بياض طبيبي نى فقير الحقيير
محمد شريف ديوان ابن الله برگان ديوان مرحمى موافق قوى ييلى ٥٢٣١ رجب المرجب
آيى نينگ يئى لانچى سى پنجشنبه كونى يازيب اتمام غه يتكوردى

Qo'lyozmaning kolofonidan ushbu to'plam 1325/1907-yilda tuzilgani anglashiladi. E'tiborlisi, ushbu manbani "Hayratu-l-ushshoq"ning protodevoni deyish mumkin. Ushbu to'plamdagi deyarli barcha she'rlar shoirning "Hayratu-l-ushshoq" devoniga o'zgarishsiz kiritilgan. Ushbu to'plam shoirning nazorati ostida "Hayratu-l-ushshoq" devonidan oldin tuzilgan bo'lib Tabibiy "Hayratu-l-ushshoq" devonining yaratilishiga asos bo'lgan. To'plamda turkiy tildagi 17 ta g'azal, 5 tarje'band, 3 soqiynoma va bir fard mavjud.

654 raqamli qo'lyozmadagi she'rlar keyinchalik shoirning mukammal devonlariga to'laligicha kiritilgan.

Adabiyotshunos M.Hamidova Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostoni manbalari genealogiyasini tekshirar ekan, quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: "Ma'lumki, asl nusxadan ko'chirilgan Abdujamil nusxasi hozircha dunyo fondlaridagi barcha "Xamsa"larning ichida eng qadimiysi hisoblanadi. Keyingi izlanishlar natijasida aniqlangan Bade'uzzamon uchun ko'chirilgan Bodleyan nusxasi ham Abdujamil nusxasiga nafaqat tarixan, balki matnan ham yaqin turgani uchun hozirda uning safiga kelib qo'shildi. Biz ilgarigi tadqiqotlarimizda Bade'uzzamon nusxasi Abdujamil nusxasidan ko'chirilgan bo'lishi mumkin, degan fikrni aytgan edik. Keyingi matniy tadqiqotlar har ikki qo'lyozmaning ham mustaqil ravishda ilk nusxadan – shoir dastxatidan ko'chirilgan ekanini ko'rsatmoqda" [Homidova 1994, 77].

Darhaqiqat, masalaga bunday yondashuv aniq tasavvur beradi. Ana shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Ahmad Tabibiy adabiy merosi tadqiqida shoir devonlari uchun asosiy manba **2033 raqamli qo'lyozma** ekanini ko'rsatadi. Ushbu bayoz tashqi belgilari hamda tuzilishiga ko'ra 1122 raqamli qo'lyozma bilan bir xil bo'lsa-da, shoir lirik asarlari jamlangan manbalarning nisbatan qadimiysi hisoblanadi. Ushbu manba jami 96 sahifadan iborat bo'lib, uning so'nggi (96^a-sahifa)da kitobning yozilish sababi va kotib haqida batafsil ma'lumot mavjud. Qo'lyozmani Muhammad Yaqub Devon -1906/1324 yil ko'chirgan. Bu sana (-۱۹۰۶/۱۳۲۴yil) shoirning lirik asarlari endigina muxlislari tomonidan jamlana boshlaganini ko'rsatadi.

To'plamga Tabibiyning ۱۷۳ ta she'ri kiritilgan. Bu manbada ham matn bir sahifada ikki ustun qilinib, har birida uch baytdan, jami bir sahifada ۶ bayt she'r ko'chirilgan. Matn fabrikaning rangli qog'oziga qora siyoh bilan nasta'liq xatida yozilgan. Sahifalar tilla va havo rang chiziqlar bilan hoshiyalangan. Sahifalarning chetlari qizil ramka bilan hoshiyalangan. Devonning boshida qizil siyoh bilan "غزليات طبيي" deb yozilgan. Har bir sahifaning yuqori markazida kotib sahifalagan raqamlar qo'yilgan. 1^b-sahifa o'ng tomoni hoshiyasida "بیرلنچی صفحه" va 2^a-sahifa chap tomoni hoshiyasida "بیرلنچی ورق" degan eslatma bor. Sahifalarda kotib paginatsiyasi (poygir) berilmagan.

Qo'lyozma "Bayozi Tabibiy" deb kotib tomonidan nomlangan. Bayoz tarkibida forsiy va turkiy (o'zbekcha) g'azallar mavjud. Dastlab 30 ta forsiy g'azal, so'ng o'zbekcha g'azallar ko'chirilgan. Forsiy she'rlarning orasiga 14^a-sahifadan 20^b-sahifagacha bitta o'zbekcha she'r, ya'ni Tabibiyning 79 baytli quyidagi bayt bilan boshlanadigan soqiynomasi ko'chirilgan:

ساقی کیتور اول شراب گولفام
کیم ایچمک ایرور آنی منگا کام

(*Soqiy, ketur ul sharobi gulfom, Kim ichmak erur oni mango kom.*)

Ushbu soqiynoma "Hayratu-l-ushshoq" devoni tarkibidagi to'rtinchi soqiynomadir. Qo'lyozmaning 34^b-37^a-sahifalarida shoirning 7 banddan iborat bir musammani ko'chirilgan. Ushbu musammaning boshlanishi quyidagicha:

آهکیم کن ایلابان من خسته غه یار ای کونگول
قیلدی نچه قهر بیرله میل اغیار ای کونگول

(*Ohkim, kin aylabon man xastag'a yor, ey ko'ngul, Qildi necha qahr birla mayli ag'yor, ey ko'ngul.*)

Bu she'r shoirning "Munisu-l-ushshoq" devoni tarkibidagi:

*Ohkim, kin aylabon man xastag'a yor, ey ko'ngul,
Qildi necha qahr birla mayl ag'yor, ey ko'ngul,
Ish manga chekmak fig'on-u nola, ozor, ey ko'ngul,
To tong otg'uncha bo'lub har kecha bedor, ey ko'ngul,
Bo'lg'ali hijron balosig'a giriftor, ey ko'ngul,
Topmayin demak uchun dodimiz g'amxor, ey ko'ngul,
Bo'lmisham furqatda emdi zor-u afgor, ey ko'ngul,*

Har nafas turluk g'ami mehnatga duchor, ey ko'ngul, – bandi bilan boshlanuvchi ilk musammandir. To'plamning 37^a-sahifasida 9 bandli bir murabba' ko'chirilgan o'lib, u quyidagi matla' bilan boshlanadi:

منگا قهرو غضب قیلماقغه دور هر لحظه میلینگ

ایرور من کچه کوندوز مبتلای درد هجرانینگ

(*Mango qahr-u g'azab qilmoqg'adur har lahza maydoning, Erurman kecha-kunduz muhtaloyi dardi hijroning*). "Munisu-l-ushshoq" devonida shoirning 4 ta murabba'si kiritilgan bo'lib, ushbu murabba'larning ikkinchisi:

*Mango qahr-u g'azab qilmoqg'adur har lahza mayling,
Erurman kecha-kunduz muhtaloyi dardi hijroning,
Darig' etmassan ag'yor ahlidin lutfila ehsoning,*

Qoni man birla, ey sitamgar, qilg'on ahd-u paymoning, bandi bilan boshlanadi. To'plamning 38^b-sahifasida 7 bandli yana bir murabba' she'r ko'chirilgan ("murabba'i digar") bo'lib, u quyidagi bayt bilan boshlanadi:

بولوب هیجران ارا تون کون فغان چیکمک بیلہ کاریم
توکر دین تینمس ایردی یاش زمانی چشم خونباریم

(*Bo 'lub hijron aro tun-kun fig'on chekmak bila korim, To 'kardin tinmas erdi yosh zamone chashmi xunborim*).

Ushbu she'r "Munisu-l-ushshoq" devonidagi:

*Bo 'lub hijron aro tun-kun fig'on chekmak bila korim,
To 'kardin tinmay erdi yosh zamone chashmi xunborim,
Bihamdillahkim, nogoh eshitib nolavu zorim,*

Bu oqshom kulbam ichra keldi ul yori vafodorim, – bandi bilan boshlanuvchi uchinchi murabba'dir. To'plamning 42^b–44^a-sahifalarda 11 bandli yana bir murabba' ko'chirilgan bo'lib, u quyidagicha boshlanadi:

چیکیب جورینگ کونگول آتلیغ الا خان الا مانیم
فیراقینگده یانر هر لہظه حسرت اوتیغہ جانیم

Bu she'r devondagi to'rtinchi murabba' bo'lib, u quyidagi band bilan boshlanadi:

*Chehib javring ko'ngul otlig' aloxon-al-omonim,
Firoqingda yonar har lahza hasrat o'tig'a jonim,
Zamirimda sango ma'lumdur paydovu nihonim,
Anisim, munisim, yorim, muhabbatpesha jononim.*

Ta'kidlanganidek, mazkur qo'lyozma tarkibiga bir musaddas she'r ham kiritilgan. Qo'lyozmaning 52^b–54^a-sahifalarida 7 bandli ushbu musaddasning boshlanishi quyidagicha:

زارو رسوایی جهان ایتکالی جانانه منی
درد رنج ایله قیلیب همدم همخانه منی

("Zor-u rasvoyi jahon etgali jonona mani, Dard-u ranj ila qilib hamdam-u hamxona mani"). Ushbu musaddas ham shoirning "Munisu-l-ushshoq" devonida mavjud.

Zor-u rasvoyi jahon etgali jonona mani,

*Dardu ranj ila qilib hamdam-u hamxona mani,
O'rtanur holima ko'rgan chog'i parvona mani,
Qildi bir jilva bila ishqida devona mani,
Tong emas xalq agar aylasa afsona mani,
Kim xiraddin g'ami ishq ayladi begona mani.*

Ushbu qo'lyozmada asosiy matn quyidagicha yakunlangan:

ای طیبی نظم فیکرین ایلاگیل جان باریچه
تاکی تاپیونگ شاه الطافینی بو صفت ارا

(*Ey Tabibiy, nazm fikrin aylagil jon boricha, Toki topg'ung shoh altofini bu san'at aro*). To'plamdagi g'azallar ham shoirning "Munisu-l-ushshoq" devoniga kiritilgan.

Demak, 2033 raqamli manba ko'chirilish davri nisbatan qadimiyligi bilan muhim hisoblanadi. Ushbu qo'lyozmadagi she'rlar keyinchalik shoirning ikkala turkiy devoni – "Munisu-l-ushshoq" va "Hayratu-l-ushshoq"ga ham mavzusiga ko'ra ajratilib kiritilgan. Shunga ko'ra ushbu manbani "Munisu-l-ushshoq" va "Hayratu-l-ushshoq"ning protodevonlari deyish mumkin.

1122 raqamli qo'lyozma

Ushbu manbada ham faqat Tabibiyning lirik asarlari jamlangan. Qo'lyozma muqovasida uchta naqshli tamg'a bosilgan. O'rta kattalikdagi tamg'ada "*Yo qozi ul-hojot 1309*" degan yozuv bor. Matn Qo'qon qog'oziga ko'chirilgan bo'lib, uning hajmi 156 (1^b-156^a) sahifani tashkil etadi.

Qo'lyozma "Bismillohir-Rahmonir-Rahim" bilan boshlanadi.

Qo'lyozmaning boshi:

ترک ایله نازینگ بیر نفس ایلب کرم ای سروناز
حدین آشدی عشق ایلی جانی ارا سوز گداز

Oxiri:

قیلیدی طیبی زاردیک من خسته دلنی کامیاب
یوز شوکرکیم اوشبو کیچه بزمیم ارا جانان کیلیب

Qo'lyozma kolofoni:

الحمد لله و المنه اوشبو بیاض کیم با امر سلطان الزمان و نادر دوران الخاقان ابن الخاقان
باعث الامن و الامان سلیمان نیشان اعنی ابو المظفر والمنصور ابولغازی سید محمد رحیم
بهادر خان دام ملکه اول جانبی فرمان عالیلری بیرله فقیر الحقییر محمد یوسف ابینی محمد
یعقوب دیوان ملقب بخرات یازیب
اتمامغه یتکوردی. سنه ۳۱۲۷

Ushbu qo'lyozma shoir adabiy merosi jamlangan boshqa manbalardan jiddiy farq qiladi. Sababi ushbu manbadagi lirik asarlar shoirning mavjud ikkita turkiy tildagi devonida uchramaydi. Ushbu

qo'lyozmadagi lirik asarlar katta ehtimol bilan shoirning uchinchi turkiy devoni – “Tuhfatu-s-sulton”ning asosiy she'rlaridir. Shunga ko'ra, bu manbani protodevon emas, shoirning terma devoni sifatida nomlash to'g'riroq bo'ladi. Kotib ham bu to'plamni (ديوان منتخب طبيي) deb nomlagan. Chunki ushbu qo'lyozmadagi she'rlar tuzilishi, hajmi va janrlariga ko'ra o'rtacha bitta devon uchun yetarli hisoblanadi. Ta'kidlanganidek, ushbu manbada shoirning 399 ta lirik asarlari jamlangan bo'lib, g'azallar orasidan bittasi (*“Fayz-u latofat dahr aro to oshkor etdi bahor, Sahnini har gulzorning jannatshior etdi bahor”* matla'li) shoirning “Munisul-ushshoq” devonida takrorlanadi. Ushbu manbadagi lirik asarlarning asosiy qismi “Tuhfatu-s-sulton” devoni uchun asos bo'lgan bo'lsa, ularning ayrimlari shoirning hech qaysi devonida mavjud emas. Bu hol shoirning kelgusida ham she'riy devon tartib bermoqchi bo'lganini ko'rsatadi.

Qo'lyozmadagi munojot, masnaviy, masnaviy dahrnoma, tuyuq, fard, chistonlar ham foniylar dunyoning bevafoqligi, mol-u dunyoga hirs qo'yishdan naf' yo'qligi, tamagirlikning qoralanishi, inson doimo insonlarga yaxshilik qilishi kabi falsafiy xarakterda. Bu hol shoirning mazkur qo'lyozma tarkibidagi lirik asarlari uning umri oxirida yozilganidan dalolat beradi. Tabibiy garchi anchayosh (42–45 yoshda) vafot etgan bo'lsa-da, shoirning lirik asarlari tahlili ularning katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan keksa ijodkor qalamiga mansub degan tasavvur uyg'otadi. Ushbu mulohazalardan garchi shoirning o'zi “avvalg'i devong'akim sultoni oliy Joh janobi mu'allo al qobig'a hadyalig' sababidin *“Tuhfatu-s-sulton” deb tasmiya qilindi*” desa-da, “Tuhfatu-s-sulton” shoirning so'nggi, ya'ni uchinchi turkiy devoni bo'lishi mumkin, degan xulosa kelib chiqadi. Buni adabiyotshunos F.G'anixojayevning quyidagi fikrlari ham tasdiqlaydi: “Tuhfat us-sulton”ning so'z borayotgan yagona nusxasi 1328/1910-yilda kotib Muhammad Yoqub Devon ibn Usta Qurbonniyoz Xorazmiy tomonidan ko'chirilgan” [G'anixojayev 1978, 13–15]. 1122 raqamli qo'lyozma esa aynan shoirning “Tuhfatu-s-sulton” devoni uchun asos bo'lgan.

1123 raqamli qo'lyozma

Ushbu manbaning tashqi belgilari, ko'rinishi, shakliy tuzilishi 1122 raqamli qo'lyozmaga juda o'xshash bo'lib, taxminan uning mantiqiy davomi hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, ushbu qo'lyozmada shoirning faqat g'azallari ko'chirilgan. Mazkur qo'lyozmada 365 ta g'azalga raqam qo'yilgan bo'lsa-da, ammo 362 ta g'azal kiritilgan. To'plamga faqat g'azallar jamlangani e'tiboridan,

uni "Tuhfatu-s-sulton"ning protodevoni sifatida ko'rsatish mumkin. Qo'lyozma hajmi 156 sahifa bo'lib, 156^a sahifada kitobni yozilish sababi va kotib haqida ma'lumot bor. 1327 (1909)-yilda ko'chirilgan. Bu manbada ham bir sahifada ikki ustunda 5 baytdan, jami bir sahifada 10 bayt she'r ko'chirilgan. Sahifalar hajmi o'lchami 35.5x15 sm.

Boshi:

بزمیمگه کیل آجیب عذار ایگولبدن ایگولبدن
کیم هجرینگ ایتدی بیقرار ایگولبدن ایگولبدن

Bazming'a kel ochib ruxsor, ey gulbadan, ey gulbadan, Kim hajring etdi beqaror, ey gulbadan, ey gulbadan).

Oxiri:

ای طبیبی همه شدتغه
جز توکل داغی درمان اولمس

Ey Tabibiy, hama shiddatg'a, Juz tavakkul dog'i darmon o'lmas).

Kolofon esa quyidagicha: "Alhamdulillah val-minna ushbu bayozkim, ba amri sulton-z-zamon va nodiri davron al-xoqon ibni al-xoqon boisi al-amni val-amon Sulaymonnishon a'ni Abulmuzaffar va-l-Mansur Abulg'oziy Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon doma mulkuhu ul janobni farmoni oliylari birla faqiru-l-haqir mullo Muhammad Yusuf ibni Muhammad Ya'qub Devon mulaqqab bi Xarrot yozib itmomg'a yetkurdi. Sana 1327". Demak, ushbu qo'lyozma ham shoirning "Tuhfatu-s-sulton" devoni uchun asos bo'lgan manbalardan biridir.

1148 raqamli qo'lyozma

Ro'yxat g'azallar va murabba'lardan tarkib topgan. Qo'lyozmaning tashqi belgilari, tuzilishi 1122 raqamli manba bilan deyarli bir xil. Bunda ham muqovalar ustida an'anaviy 3 ta o'yma naqsh solingan. O'rtadagi katta naqsh ichida "Yo qoziyul hojot. 1309" degan yozuv bor. Qo'lyozma jami 156 sahifani tashkil etadi. 156^a sahifada kitobning yozilish sababi va kotib haqida ma'lumot bor. Bu qo'lyozmaning kotibi Muhammad Ya'qub Devondir. Uni 1327 (1909) - yilda ko'chirgan. Ushbu manbada Tabibiyning 346 ta g'azali, 6 ta murabba'si mavjud. G'azallarni raqamlashda kotib xatolarga yo'l qo'ygan. Matn har sahifaga ikki ustunda 5 baytdan jami 10 bayt qiya qilib ko'chirilgan.

Matn quyidagi bayt bilan boshlanadi:

یوق سن کیبی عالم ارا مهوش گوزل مهوش گوزل

بو وجه ايله ديرلر سنگا مهوش گوزل مهوش گوزل

Matnning oxiri esa quyidagicha:

دايم طبيبي بنده ليک آيينی ايچره صدق ايله
ظاهر خدا درگاهيغه قيل هر نفس عجز نیاز

Qo'lyozma kolofoni quyidagicha:

"Alhamdulillah val minna ushbu kitob bayozkim bo amri sulton-z-zamon va nodiri davron al-hoqon ibni al-hoqon zilli subhon xalifatu-r-Rahmon bois al-amnu val-a'mon Hotamnishon adolatgustar va mehrparvar Skandari soniy jahongir a'ni Abulmuzaffar val-Mansur Abulg'oziy Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon doma mulkuhu va shavkatuhuning farmoni oliylari bila faqiru-l-haqir xoksor Mullo Muhammad Yusuf al-mutaxallis bi Chokar ibni Muhammad Ya'qub Devon mulaqqab ba Xarrot yozib itmom sarhadig'a yetkurdi. 1328nchi sana".

Ushbu manbada shoirning jami 5934 misra g'azali, 224 misra murabba'si, jami 6158 misra lirik asari jamlangan bo'lib, ushbu she'rlar ham "Munisul-ushshoq" va "Hayratul-ushshoq" devonlarida mavjud emas. Ushbu manba 1122 va 1123 raqamli qo'lyozmalarning mantiqiy davomi bo'lib, bunda ham taxminan "Tuhfatu-s-sulton" devoni uchun asos bo'lgan lirik asarlar jamlangan. Shu jihatdan bu manbani ham "Tuhfatu-s-sulton"ning protodevoni sifatida ko'rsatish mumkin.

6949 raqamli qo'lyozma

Ushbu qo'lyozma faqat g'azallardan tarkib topgan bo'lib, uning umumiy hajmi 136 sahifani tashkil etadi.

Qo'lyozma tarkibida asosan Tabibiy she'rlari ko'chirilgan bo'lsa-da, 129^b-130^a, 130^b-133^b-sahifalar orasida Sodiqiyning oltita, 135^a-136^b-sahifalarda Xodimning bir g'azali qo'shib ko'chirilgan. Bayozning kirish qismida "Bayozi Tabibiy" va "G'azaliyoti Tabibiy" degan qayd mavjud.

To'plamda jami 187 ta g'azal mavjud bo'lib, shundan 180 tasi Tabibiyga tegishlidir. Qo'lyozma kotibi – Mulla Muhammad Sharif bin Muhammad Yoqub Devon (ملا محمد شريف بن محمد يعقوب ديوان) (Mulaqqabi ba Xarrot). Ko'chirish sanasi: ۱۹۰۹/۱۳۲۷. Kitob o'lchami ۱۸x.۱۱,۵

Kolofon quyidagicha:

الحمد لله والمينه بو كيتاب بياضكيم با امر سلطان الزمان و نادر دوران نينگ امر عالی
لری بيرله

فقير الحقير مولا محمد يوسف ابن محمد يقوب ديوان ملقب بخرات بير مينگ اوچيوز
بيگيرمه يتيلنجی

يىلى اتمامغه يتكوردى . ۷۲۳۱ سنه .

Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, ushbu bayoz tarkibidagi g'azallar ham shoirning mavjud ikki turkiy devoni – "Munisu-l-ushshoq"da ham "Hayratu-l-ushshoq"da ham uchramaydi. Bundan, ushbu bayoz shoirning uchinchi turkiy devoni – "Tuhfatu-s-sulton"ning protodevoni bo'lganini ko'rsatadi.

Tahlillar O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Asosiy fondidagi **1122, 1123, 1148, 6949** raqamli manbalar "Tuhfatu-s-sulton" devonining asosiy manbalari ekanini ko'rsatadi.

"*Ichan qal'a*" davlat muzey-qo'riqxonasi fondidagi **5894/4** raqamli qo'lyozma ham "Tuhfatu-s-sulton"ning protodevonidir. Sababi mazkur qo'lyozmadagi lirik asarlar ham nisbatan avvalroq ko'chirilgan bo'lib, ular shoirning turkiy devonlari – "Munisu-l-ushshoq"da ham, "Hayratu-l-ushshoq"da ham uchramaydi. Ushbu qo'lyozmalardagi lirik asarlarning aksariyati janrlariga ko'ra shaklan va mazmunan o'ziga xosdir. Qo'lyozmalardagi lirik asarlar tuzilishi, ularning devon tartibiga o'xshash ketma-ketligi qaysidir devon uchun asos vazifasini o'taganini ko'rsatadi. Garchi Tabibiyning birinchi turkiy devoni sifatida "Tuhfatu-s-sulton" devoni ko'rsatilsada, biroq shoirning ushbu devoni umrining so'ngida, ya'ni 1910-yilda ko'chirilgani, uning yagona qo'lyozmasi Tojikistonda saqlanishi haqida ma'lumotlar mavjud [G'anixo'jayev 1978, 13].

Haqiqatan, Respublikamiz fondlarida "Tuhfatu-s-sulton" devonining qo'lyozmasi hozircha topilgan emas. O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Asosiy fondidagi **1122, 1123, 1148, 6949**, "*Ichan qal'a*" davlat muzey-qo'riqxonasi fondidagi **5894/4** raqamli qo'lyozmalar esa devon tartib berilishidan oldinroq ko'chirilgan. Qolaversa, Xiva "*Ichan-qal'a*" davlat muzey-qo'riqxonasi fondidagi **5884/3** raqamli toshbosma manba "Tuhfatu-s-sulton" devoni tartib berilgandan so'ng, o'sha yili toshbosmada ham bosilgan.

1124 raqamli qo'lyozma

Ushbu qo'lyozma jami 120 sahifa bo'lib, ro'yxat g'azallar (1^b–120^a)dan tarkib topgan. Qo'lyozma Muhammad Sharif Devon tomonidan 1325 (1907)-yilda ko'chirilgan. Matn har bir sahifaga ikki ustunda uch baytdan jami 6 bayt qiya qilib ko'chirilgan.

Matn quyidagi bayt bilan boshlanadi:

منگا اول پرى جور بالكل قليب
نظر ايلا مايدور تغافل قليب

Mango ul pari javr bilkul qilib, Nazar aylamaydur tag'oful qilib)

Quyidagi bayt bilan yakunlanadi:

خوشنود بول بحدّ سان چونکیم طیب عشقدين
دردينگه دافع بولغودیک نافع دوا بوکون کیلور

(Xushnud bo'l behaddu son, chunkim Tabib ishqdin, Dardingg'a dofi' bo'lg'udek nofe'i davo bu kun kelur).

Qo'lyozma kolofoni quyidagicha:

"Zilli subhon xalifatu-r-Rahmon a'ni Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxoni soniy doma davlata va shavkataning farmoni oliylari bila ushbu bayozni faqir ul-haqir Muhammad Sharif Devon ibni Ollohergan Devon marhumi muvofiq yilqi yili 1325 mohi muharramning o'n sakizlanchisi yakshanba kunida yozib itmomg'a yetkurdi". Ushbu manbaga Tabibiyning 129 ta g'azaliga raqam qo'yilib ko'chirilgan. G'azallarning birinchisi *"Mango ul pari javr bilkul qilib"* misrasi bilan boshlanuvchi 11 baytli g'azal, so'nggisi esa *"Bo'l, ey ko'ngul, xushnudkim ul dilrabo bu kun kelur"* misrasi bilan boshlanuvchi 11 baytli g'azaldir. Ushbu to'plamdagi g'azallarning deyarli barchasi 11 baytdan iborat. Ularning barchasi *"Hayratu-l-ushshoq"* devonida mavjud. Biroq xronologiyaga ko'ra 1124 raqamli manba qadimiyroq. Shoir *"Hayratu-l-ushshoq"* devonini tartib berishda ushbu to'plamdagi lirik asarlardan deyarli to'liq foydalangan. Aytish mumkinki, 1124 raqamli qo'lyozma *"Hayratu-l-ushshoq"* ning protodevoni hisoblanadi.

1159 raqamli qo'lyozma

Bu qo'lyozma manba Tabibiy she'rlari jamlangan boshqa to'plamlardan nisbatan avvalroq ko'chirilgani bilan ahamiyatlidir. Qo'lyozma jami 118 sahifani tashkil etadi. 118^a sahifada kitobning yozilish sababi va kotib haqida ma'lumot bor. Qo'lyozmani Muhammad Yaqub Devon ibn Ollohergan Devon *"1324-yil mohi zul hijjaning yigirma sakkizlanchisi dushanba kunida"* yozib tugatgan. Jami 158 she'rga raqam qo'yilib ko'chirilgan. Tuzilishi va tashqi belgilariga ko'ra O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Asosiy fondidagi 1122, 2033 raqamli qo'lyozmalarga juda o'xshash. Matn bir sahifada ikki ustun qilinib, har ustunda 3 baytdan, jami bir sahifada 6 bayt she'r ko'chirilgan.

Ro'yxat, asosan, g'azallar (1^b–118^a sahifalar)dan tashkil topgan bo'lib, g'azallar turkiy va fors-tojik tilida. Shuningdek,

to'plamga ikkita varsoqi (ushbu varsoqilar keyinchalik shoirning "Munisu-l-ushshoq" devoniga kiritilgan), 5 bandli bitta tarje'band ham kiritilgan. G'azallarning 10 ga yaqini fors-tojik tilida, qolganlari turkiy g'azallardir.

Qo'lyozma matni "*Bir ko'rsatib jilva birla jamoling, Qilding mani asru hayron dilbarim*" – deb boshlanuvchi varsoqi she'r bilan boshlanadi.

She'rlar fabrikaning rangli qog'oziga qora siyoh bilan nasta'liq xatida uch baytdan, bir sahifada jami 6 baytdan she'r ko'chirilgan. Matn tilla va havo rang chiziqlar bilan hoshiyalangan. Sahifaning chetlari qizil ramka bilan hoshiyalangan. Har bir g'azalning boshida qizil siyohda "طیبی غزل" deb yozilib, raqam qo'yib ketilgan. Sahifalarda kotib paginatsiyasi (poygir) berilmagan.

Qo'lyozma quyidagi bayt bilan yakunlangan:

نی عجب طیبی سنگا وفا اگر ایتمس ایرسه بو غم سرا
کی آنی خدا یر ایتمیدورور نظرخرده سراب ایتم

Qo'lyozma kolofonida ushbu kitobni Feruz farmoniga ko'ra, Muhammad Sharif Devon ibn Ollobergan Devon "*ot yili 1324-yil mohi zul hijjaning 28chisi dushanba kuni yozib tamomlagan*"i haqidagi ma'lumot mavjud. Tahlillar mazkur qo'lyozma nisbatan avvalroq tuzilgani, to'plamdagi lirik asarlar keyinchalik shoirning "Munisu-l-ushshoq" devoniga kiritilganini ko'rsatadi. Bundan mazkur 1159 raqamli qo'lyozma shoirning ilk turkiy devoni "Munisu-l-ushshoq"ning tartib berilishida asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. Garchi shu paytgacha "Tuhfatu-s-sulton" devoni Ahmad Tabibiyning birinchi turkiy devoni [G'anixo'jayev 1978, 13] sifatida qayd etilib kelgan bo'lsa-da, kuzatuvlar shoirning ilk turkiy devoni "Munisu-l-ushshoq" ekanini tasdiqlaydi. Demak, Tabibiy "Munisu-l-ushshoq" devonining tartib berilishida O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Asosiy fondidagi 1159 raqamli qo'lyozma asos bo'lib xizmat qilgan.

243 raqamli qo'lyozma

O'zRFA Davlat adabiyot muzeyida ham Ahmad Tabibiy lirik asarlari jamlangan bir qo'lyozma bayoz mavjud. Qo'lyozma jami 184 sahifadan iborat. Bu bayozda shoirning 200 ta g'azali alfavit ketma-ketligida ko'chirilgan. Qo'lyozma bayoz matni 1^b sahifadan boshlangan. Matn fabrikaning rangsiz va rangli qog'oziga qora siyoh bilan nasta'liq xatida 3 baytdan, ikki ustunda, jami bir sahifada 6 baytdan she'r ko'chirilgan. Matn jadval ichiga olinmagan. Har bir sahifaning yuqori markazida kotib sahifalagan raqamlar qo'yilgan. To'plamning so'nggi sahifasida ko'k siyohda: "*Bu kitobni o'z institutimiz O'zbeki-*

ston akademiyasining Adabiyot institutiga taqdim qilaman. G'afur G'ulom. 26/9.57.", degan qayd mavjud.

184^a-sahifada kitobning yozilish sababi va kotib haqida ma'lumot bor.

Kolofonda ushbu kitobni Feruz farmoniga ko'ra Muhammad Sharif Devon ibn Ollobergan Devon qo'y yili 1325-yil safar oyining o'n to'rtlanchisi panjshanba kuni" yozib tamomlagani haqida ma'lumot mavjud.

Qora rangdagi uchta bo'rtmali qattiq muqovali kitob. Bo'rtmalar yashil rangda. Chetlari o'yma naqshlar bilan bezatilgan. Qo'lyozma o'lchami 21,5x14.

Mazkur qo'lyozma bayoz quyidagi matla' bilan boshlanadi:

دھر ارا کیمسہ باشیغہ رنج انا کیلور کیتور
کونگیگہ ہم مونینگ کیبی فیض صفا کیلور کیتور

(Dahraro kimsa boshig'a ranju ano kelur-ketur; Ko'ngliga ham muning kibi fayz-u safo kelur-ketur).

Qo'lyozmaning oxiri esa:

سین چیک طیبی غم ارا بیمارلیغ کیم عشق ارا
لعل لی اوزگہ کیشی دردیگہ درماندور بو کون

(Sen chek, Tabibiy, g'am aro bemorlig'kim ishq aro, La'li labi o'zga kishi dardiga darmondur bu kun) maqta'si bilan yakunlangan. Kolofondan oldin kotib tomonidan yozilgan quyidagi she'riy matn berilgan:

هر کی خواند دعا طمع دارم
زانکی من بنده گنه کارم

شد بتوفیق خدایی لا ینام
این کتابت روزپنجشنبه تمام

(Bu kitobni har kimki o'qisa, undan duo umidvorman, Negaki, men bir gunohkor bandaman, Doimo bedor bo'gan Xudo tavfiqi birla, Bu kitob payshanba kuni yakunlandi). Qo'lyozma kolofoni esa quyidagicha:

ظَلَّ السَّبْحَانُ خَلِيفَهُ الرَّحْمَنِ اَعْنَى سَيِّدِ مُحَمَّدٍ رَحِيمٍ بَهَادِرْخَانِ ثَانَى دَامَ دَوْلَتُهُ
و شَوَكْتُهُ نَبِیْگَ فَرْمَانِ عَالِی لَرِی بَیْلَه اَوْشَبُو بَیْاض نِی فَقِیْر الْحَقِیْر مُحَمَّد شَرِیْف
دِیَوَانِ ابْنِ اللّٰهِ بَیْرْگَنْ دِیَوَانِ مَرْحُومِی مُوَاْفَق، قَوِی بَیْلِی 5231 صَفْرِ آبی نَبِیْگِ اَوْن
تَوْرْتَلَنْجِیْسِی پَنْجْشَبَه کَوْنِی یَازِیْب اَتَمَافْغَه بَیْتْکُورْدِی.

Mazkur bayozdagi g'azallar to'liq holda shoirning "Hayratu-l-ushshoq" devoniga ham kiritilgan. Ushbu bayoz xronologiyaga ko'ra ilgariroq tuzilgan bo'lib, u shoirning "Hayratu-l-ushshoq" devoniga kiritilgan.

Xiva "Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi fondidagi

5894/1 raqamli manbada ham “Hayratu-l-ushshoq” devonidagi 28 ta g’azal jamlangan.

Qo’lyozma faqat g’azallardan tarkib topgan bo’lib, unda saroy shoirlari g’azallari ko’chirilgan. To’plamda jami 177 ta g’azal mavjud. Ular Tabibiy, Mirzo, Rog’ib, G’ulomiy, Nadimiy, Avaz, Umidiy, Ojiz, Devoniy, Mutrib, Bayoniy, Xodim, Shinosiy, Chokar, Asad, Doiy, Oqil, Inoyat, G’oziy, Xayoliy, Niyoziy kabi shoirlarning g’azallaridir. Ushbu to’plam Feruz farmoniga ko’ra, 1325 (1907)-yilda Muhammad Ya’qub Devon tomonidan ko’chirilgan. Ushbu manbadagi g’azallar ham Tabibiyning “Hayratu-l-ushshoq” devonining tuzilishida manba bo’lib xizmat qilgan.

C-767 raqamli qo’lyozma

Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasi qo’lyozmalar instituti fondidagi C-767 raqamli qo’lyozma ikki qismdan iborat bo’lib, birinchi qism shoir qalamiga mansub forsiy she’rlardan, ikkinchi qism esa “Munisu-l-ushshoq” devoniga kirgan lirik asarlardan iborat. Qo’lyozmaning sifati past. She’rlar tartibsiz ko’chirilgan. Hoshiyalarda ham she’rlar ko’chirilgan. Ayrim sahifalar xiralashib qolgan. Bu qo’lyozmada kotib haqida ma’lumot uchramaydi. Shunga ko’ra, bu qo’lyozmaning kotibi shoirning o’zi bo’lishi mumkin.

Xulosa

Ahmad Tabibiy adabiy merosi manbalari hozirgi kunda O’zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida, O’zRFA Davlat adabiyot muzeyida, Xivadagi *“Ichan qal’a”* davlat muzey-qo’riqxonasi fondida, shaxsiy arxivlarda hamda Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasi qo’lyozmalar instituti fondida saqlanmoqda. Ushbu fondlardagi shoir asarlari manbalarini *Tabibiy lirik asarlaridan tarkib topgan manbalar va XIX asr oxiri XX asr boshlari Xorazm adabiy muhiti shoirlari ijod namunalari to’plangan bayoz-to’plamlar* tarzida ikkiga bo’lib o’rganish mumkin.

Shoir devonlarini tartib berishda zamondoshlari tomonidan o’zining lirik she’rlari jamlangan to’plamlardan ijodiy foydalangan. Jumladan, O’zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Asosiy fondidagi 1122, 1123, 1129, 1148, 6949 raqamli, *“Ichan qal’a”* davlat muzey-qo’riqxonasi fondidagi 5894/4 raqamli qo’lyozmalar “Tuhfatu-s-sulton” devonining tartib berilishida asos vazifani o’tagan. Ushbu bayoz-to’plamlardagi lirik asarlar tuzilishi, devon tartibiga o’xshash ketma-ketligi keyinchalik ularning devon

tarzida jamlanganini ko'rsatadi. Qolaversa, mazkur qo'lyozmalardagi lirik asarlar shoirning turkiy devonlari – "Munisu-l-ushshoq"da ham, "Hayratu-l-ushshoq"da ham uchramaydi.

Tabibiyning birinchi turkiy devoni sifatida "Tuhfatu-s-sulton" devoni ko'rsatiladi. Xronologik va tuzilishiga ko'ra "Munisu-l-ushshoq" shoirning ilk devoni hisoblanadi. Ahmad Tabibiy "Tuhfatu-s-sulton" devoni qo'lyozmasi taqdiri noma'lum. Tahlillar Xiva "Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi fondidagi 5884/3 raqamli toshbosma manba "Tuhfatu-s-sulton" devonining bosma varianti ekani va ushbu devon tartib berilgandan so'ng, o'sha yili toshbosmada bosilganini ko'rsatadi.

Adabiyotlar

- Бобожон, Тарроҳ-Ходим. 2011. *Хоразм шоир ва навозандалари*. Тошкент: Тафаккур қаноти.
- Жабборов, Нурбой. 2019. *Ўзбек матншунослиги ва унда матн танқиди, илмий-танқидий матн истилоҳларининг ўрни. Ўзбек мумтоз адабиётини ўрганишнинг назарий ва манбавий асослари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари*. Тошкент: Mumtoz so'z.
- Laffasiy. *Tazkira*. Qo'lyozma. O'zRFASHI, №9494.
- Laffasiy. *Tazkira*. Qo'lyozma. O'zRFASHI, №11499.
- Laffasiy. 1992. *Tazkirayi shuaro*. Urganch: Xorazm.
- Қосимов, Бегали. 1983. *Излай-излай топганим*. Тошкент: Адабиёт ва санъат.
- Салаева, Мунаввара. 1993. *Навоий ва Хоразм шоирлари*. Урганч: Хоразм.
- Табибий, Аҳмад. 1968. *Танланган асарлар*. Тошкент: Бадий адабиёт.
- Tabibiy, Ahmad. *Bayoz. G'azaliyoti Tabibiy. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №243.
- Tabibiy, Ahmad. *Devon*. Toshbosma, O'zRFASHI, №8949.
- Tabibiy, Ahmad. *Hayratu-l-oshiqin. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №3460.
- Tabibiy, Ahmad. *Mazharu-l-ishtiyoq. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №7083.
- Tabibiy, Ahmad. *Mir'otu-l-ishq. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №928.
- Tabibiy, Ahmad. *Munisu-l-ushshoq. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №3460.
- Tabibiy, Ahmad. *Muxammasoti majmuat ush-shuaroysi Feruzshohiy. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №1134.
- Tabibiy, Ahmad. *Tazkira. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №1152, №5018.
- Tabibiy, Ahmad. *Vomiq va Azro. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №1243.
- Эркинов, Афтондил. 2017. *Алишер Навоий "Хазойин ул-маонийси" ва унинг протодевони масаласи. "Алишер Навоий ва XXI аср"*. Тошкент: Tamaddun.
- Юсупов, Юнус. 1967. *Хоразм шоирлари*. Тошкент.
- Ғанихўжаев, Фатхулла. 1978. *Аҳмад Табибий*. Тошкент: Фан.
- Ҳамидова, Мавжуда. 1994. *Алишер Навоий "Садди Искандарий" достонининг илмий-танқидий матни ва матний тадқиқи*. Филология фанлари доктори диссертацияси. Тошкент.

Genealogy of the Divan Manuscripts of Ahmad Tabibi

Shermuhammad Amonov¹

Abstrakt

In textology, the history of the text covers the processes that took place from the emergence of the artistic intention for the creation of a literary monument to its completion, while genealogy includes the process of gradual improvement of manuscripts, which is the basis for the creation of a perfect version of a literary monument takes.

Collections that are the basis for a perfect collection of a particular poet are called "proto-divan". The main condition of the "protodivan" is that an author himself participates in the process of compiling the lyrical heritage of a certain poet, bringing it to the state of a collection under the control of the author.

The article provides comments on the sources and divans of Tabibi.

Kalit so'zlar: *Akhmad, Tabibi, manuscript, devon, protodevon, genealogy, text, text history, collection.*

References

- Bobojon, Tarroh-Xodim. 2011. *Xorazm shoir va Navozandalari*. Toshkent: Tafakkur qanoti.
- Jabborov, Nurboy. 2019. *O'zbek matnshunosligi va unda matn tanqidi, ilmiy-tanqidiy matn istilohlarining o'rni. O'zbek mumtoz adabiyotini o'rganishning nazariy va manbaviy asoslari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari*. Toshkent.
- Laffasiy. *Tazkira*. Qo'lyozma. O'zRFASHI, №9494.
- Laffasiy. *Tazkira*. Qo'lyozma. O'zRFASHI, №11499.
- Laffasiy. 1992. *Tazkirayi shuaro*. Urganch: Xorazm.
- Matkarimova, Salomat. 2007. *Tabibiy – tazkiranavis*. Filol.fan.nomz. dis... Toshkent.
- Qosimov, Begali. 1983. *Izlay-izlay topganim*. Toshkent: Adabiyot va san'at.

¹ Shermuhammad N. Amonov – Candidate of Philological Sciences, dotsent, University of Uzbek Language and Literatura named after Alisher Navo'i.

E-mail: amonov@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-3962-1774

For citation: Amonov, Sh.N. 2024. "Genealogy of the Divan Manuscripts of Ahmad Tabibi". *Golden scripts* 3: 4 – 23.

- Qosimov, Begali va boshq. 2004. *Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti*. Toshkent: Ma'naviyat.
- Salayeva, Munavvara. 1993. *Navoiy va Xorazm shoirlari*. Urganch: Xorazm.
- Tabibiy, Ahmad. 1968. *Tanlangan asarlar*. Toshkent: Badiiy adabiyot.
- Tabibiy, Ahmad. *Bayoz. G'azaliyoti Tabibiy. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №243.
- Tabibiy, Ahmad. *Devon*. Toshbosma, O'zRFASHI, №8949.
- Tabibiy, Ahmad. *Hayratu-l-oshiqin. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №3460.
- Tabibiy, Ahmad. *Mazharu-l-ishtiyoq. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №7083.
- Tabibiy, Ahmad. *Mir'otu-l-ishq. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №928.
- Tabibiy, Ahmad. *Munisu-l-ushshoq. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №3460.
- Tabibiy, Ahmad. *Muxammasoti majmuat ush-shuaroyi Feruzshohiy. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №1134.
- Tabibiy, Ahmad. *Tazkira. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №1152, №5018.
- Tabibiy, Ahmad. *Vomiq va Azro. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №1243.
- Erkinov, Aftondil. 2017. "Alisher Navoiy "Xazoyin ul-maoniysi" va uning protodevoni masalasi." *"Alisher Navoiy va XXI asr"*. Toshkent: Tamaddun.
- Yusupov, Yunus. 1967. *Xorazm shoirlari*. Toshkent.
- G'anixo'jaev, Fatxulla. 1978. *Ahmad Tabibiy*. Toshkent: Fan.
- Hamidova, Mavjuda. 1994. *Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonining ilmiy-tanqidiy matni va matniy tadqiqi. Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi*. Toshkent: Mumtoz so'z.

Xorazm adabiy muhitida Otanazar Kamoliyning tutgan o'rne

Sharofiddin Jalilov¹

Abstrakt

XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Xiva xonligida siyosiy o'zgarishlar bilan bir qatorda o'ziga xos adabiy muhit vujudga keldi. Bunda mamlakat ijodkorlarini o'z atrofida jamlashni ta'minlashga intilgan shoh Muhammad Rahimxon II Feruz bevosita ijodkorlarning homiysi sifatida adabiyot tarixida iz qoldirgan. Muhammad Rahimxon II Feruzning sa'y-harakatlari natijasida yangi ijod maktabi ochilishi ko'plab asarlarning yaratilishiga sabab bo'ldi. Bunda Xorazm adabiy muhiti vakillariga Feruz ko'rsatmasiga binoan devon tuzish an'anasi urfga aylanib, taraqqiy etgan. Ayniqsa, devon yaratgan ijodkorlarning nomlari bevosita Xorazm adabiy muhiti vakillarining hayoti va ijodini qamrab olgan "Majmuat ush-shuaro" tazkirasidan o'rin olgan. "Majmuat ush-shuaro" tazkisasi yaratilguniga qadar Xorazm adabiy muhiti vakillarining hayoti va ijodi xususida ma'lumotlarni jamlagan majmua yoki tazkira kuzatilmaydi. Otanazar Kamoliy hayoti va faoliyatiga ushbu tazkiradan o'rin ajratilgani shoirning adabiy muhitda tutgan o'ziga xos o'rnidan darak beradi.

Ushbu maqolada Xorazm adabiy muhitining bevosita Muhammad Rahimxon II Feruz hukmronligi davridagi taraqqiyoti, uning davlat ishlari qatorida ilm va ijodga bo'lgan rag'batlari xususida muxtasar ma'lumotlar berilgan. Otanazar Kamoliyning hayoti, ijodiy faoliyatiga doir ma'lumotlar manbalar asosida tiklanib, tahlilga tortilgan. Bunda shoir devonining qo'lyozma nusxalari, devon tarkibi va mundariyasi, undagi asarlarning mavzu ko'lamini ilmiy tahlil qilingan, devondagi she'rlar tasnifi amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: *adabiy muhit, Xiva, Feruz, Kamoliy, "Devoni Kamoliy", matniy tadqiq.*

Kirish

O'zbek mumtoz adabiyotining tarixi va tadrijiy takomilida XIX asr alohida ahamiyat kasb etgani ayni haqiqat. Adabiy muhit bu

¹ *Jalilov Sharofiddin* – tadqiqotchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: Sharofiddinjalilov95@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-4717-6076

Iqtibos uchun: Jalilov, S. 2024. "Xorazm adabiy muhitida Otanazar Kamoliyning tutgan o'rne". *Oltin bitiglar* 3: 24 – 36.

davr adabiyotining eng muhim jihatlaridan biri sanaladi. Mazkur asrda adabiyotimiz tarixida uch adabiy muhit faoliyat ko'rsatgani haqida adabiyot tarixiga oid tadqiqotlarda ma'lumot berilgan [Абдуллаев 1980, 384]. Ular Qo'qon, Xorazm va Buxoro adabiy muhitlaridir.

Xorazm adabiy muhiti o'zbek milliy adabiyotining tarkibiy qismlaridan biri bo'lib kelgan. Shuning uchun, har bir davrdagi umumiy xususiyat va tamoyillar muayyan darajada ushbu voqea adabiyotida aks etgan [Saidjonova 2016, 4]. O'zbek mumtoz adabiyotini o'rganishda Xorazm adabiy muhitining o'rne beqiyos.

Adabiy muhit muayyan hududda yashab ijod etgan yirik shoir va adiblar ta'sirida yuzaga keladi. Uning vujudga kelishi yirik ijodkorlar faoliyati, ular yaratgan ijodiy maktablar bilan chambarchas bog'liq. Masalan, XV asr Hirot adabiy muhiti Lutfiy, Navoiy va Jomiy singari ijodkorlar faoliyati natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, O'rta Osiyo xonliklari davriga kelib Xorazm, Buxoro hamda Qo'qon adabiy muhitlari paydo bo'ldi. Xorazm adabiy muhiti Ogahiy, Munis, Feruz, Tabibiy, Bayoniy, Komil Xorazmiy, Kamoliy va Haqiriy kabi yirik shoirlar ijodi ta'sirida shakllangan.

Asosiy qism

Xorazmda Sayid Muhammadxon hukmronligi davrida mamlakatda tinchlik-osoyishtalik qaror topib, poytaxt Xivada me'morchilik va boshqa sohalarining rivojlanishi madaniy hayotning gurkirashiga sabab bo'ldi. Muhammad Rahimxon II davriga kelib esa Xiva ilm-fan, san'at va madaniyat poytaxtiga aylandi. Ogahiy o'zining "Gulshani davlat" [Inv 79] asarida Sayid Muhammadxon davridagi yuksalishlar haqida yozib qoldirgan. Sayid Muhammadxon davrida ilm va san'atning turli yo'nalishlari o'zining avj pallasiga kirdi. Albatta, bunday taraqqiyot va yutuqlar mamlakatning rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Chor Rossiyasi Xiva xonligi yerlariga bostirib kirishidan avvalroq Xiva taxtiga Muhammad Rahimxon II (1865-1910-yillar) o'tiradi. U o'sha paytga qadar o'tgan hukmdorlar ichida eng uzoq muddat hukmdorlik qilgan va o'zidan keyin ijobiy nom qoldirgan xonlardan biridir. Uning hukmronligi davrida ko'plab o'zgarish va yangilanishlar ro'y berdi. Birinchi navbatda qurilish, suv inshootlari ishlariga e'tibor kuchaydi. Madaniyat-ma'rifat, maorif sohalarida anchayin siljishlar yuz berdi. Adabiy muhit ham o'zining oldingi davriga nisbatan rivojlandi.

Qalam ahli Muhammad Rahimxon homiyligi hamda yuksak e'tibori ostida ma'lum bir mansablarda ishlab, osuda hayot ke-

chirdilar va o'zlaridan o'lmas asarlar meros qoldirdilar.

Feruz she'riyatda iste'dodli, ammo tabiatan yaxshi xulq egalari bo'lmagan kishilarga zulm qilmagan, iste'dodlarini hurmat qilgan shaxs sifatida tanilgan hukmdordir. Masalan, "G'ulomiy Feruzga Muqarrab xos bo'lganidan ajab bir johil tabiat bo'lib, hamisha o'ziga g'ururi havotiy nafs paydo qilib, boshqa umaro va vuzarolarni nazariga hech bir hay bilmas erdi. Hama vaqtlar ichkilik qilib soz suhbatlar-u bachkanabozlik bilan mashg'ul erdi" [Лаффасий 1992, 55]. Ammo Feruz shunday kimsaga ham yaxshi muomalada bo'lib, uni yaxshi she'rlar yozishga targ'ib qilgan. Yana bir shoir Purkomil ajab bir mutakabbir, xasis shaxs bo'lgandek, ahdini o'ziga manzuri nazar qilmas erdi [Laffasiy 59], hokimlik paytlarida o'z mansabini suistemol qilgani, xalqqa zulm ko'rsatganligi sababli hokimlikdan chetlatilgan. Bu kishining ham g'azallarini maqbul qilib devonlariga farmon bergan. Shuning bilan "Pur Komil" taxallusi ostida devon tartib beradi.

Muhammad Rahimxon II hukmronligi davrida Xivada madrasa, masjid va xonaqohlar hamda kutubxonalar bunyod etildi. Ilm-ma'rifat ahliga homiylik qilindi. Ushbu bunyodkorlik va taraqqiyot adabiy jarayon bosqichlarida Sulton Feruzshohning yonida yelkadosh bo'lgan Ogahiy asarlari bilan mamlakat adabiy muhiti rivojiga o'z hissasini qo'shdi.

S.Matkarimova o'z ilmiy tadqiqotida aytganidek "She'riyatni qalbni tarbiyalovchi, insonni ezgulikka yetaklovchi buyuk kuch deb bilgan xon sipohiylari to'ralarni, vazir-u amaldorlarni, boringki, butun xalqni kitobxonlikka chorladi. "Alqissa "Annosu a'lo dini mulukahum"ning muqtazosiha tamomi viloyat xalqi kitobxon bo'ldilar." Binobarin, Tabibiy ta'kidlaganidek, shoh nimagaki mayl bildirsa, ulus ham shunga xayrixoh bo'ladi" [Matkarimova 2007, 26].

Biz fikr yuritayotgan XIX-XX asrlardagi Xorazm madaniy hayoti ijtimoiy-siyosiy sharoitiga har xil o'zgarishlar xos bo'lganidek, adabiy muhit doirasida ham turlicha o'zgarish, yangilanish va faollik bo'lgan. Bu davrda she'riyat maydoniga kirib kelgan, o'zining iste'dodiga, salohiyatiga yarasha ozmi-ko'pmi ijod qilib, adabiyotda ma'lum iz qoldirgan shoirlar ham talaygina bo'lgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Xiva xonligida Muhammad Rahimxon II davridagichalik adabiy muhit rivojlangan davr hech bir hukmdor davrida bo'lmagan. Hasanmurod Laffasiyning "Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimayi hollari" nomli tazkirasida Muhammad Rahimxon II homiyligida ijod qilgan 54 nafarining nomi keltiriladi. Bularning aksariyati saroyda xizmat qilgan. Bu

ijodkorlarning har biriga Feruz o'z qobiliyatiga qarab ijtimoiy vazifa ham topshirgan [Ismoilova 1995, 30]. Xususan, saroy shoirlariga sardor Ahmad Tabibiy edi. Xattot, Bobojon Tarroh kotib, iste'dodli shoir, tabiatan baquvvat, jang san'atida mohir Shinosiy saroy qo'shinlariga yasovulboshi, Otanazar Kamoliy esa mutavalli, chiroyli husnixat egasi bo'lgan Devoniy kotib vazifasida xizmat ko'rsatganlar.

Manbalarda Feruz tabiatan tug'ma iqtidor shoir va ijodni yuksak darajada qadrllovchi shaxs deb e'tirof etiladi. "Feruz odatda erta turadi. Erta turish qut-baraka, yaxshilik alomati ekanligini yaxshi bilgan xon namozni o'qib, biron soat ijodxonasiga kirib ketadi. Navoiy, Ogahiy asarlarini mutolaa etadi, ilhomini kelsa, biron g'azal bitadi. Chunki haftada ikki marta o'tadigan g'azalxonlik oqshomlariga quruq borib bo'lmaydi. Barcha ijodkorlar shoh va shoirdan yangi g'azallar kutishi tabiiy hol edi" [Davlatyor Rahim, Shihnazar Matrasul, Jumaxo'ja 1995, 8].

Aytib o'tilgan fikrlardan Feruz davrida madaniy hayot gullab yashnagan, adabiyot o'zining yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarilgan deya xulosa qilish mumkin. Muhammad Rahimxon II davrida adabiy muhitga jiddiy e'tibor qaratilgan, o'zi ham Feruz taxallusi ostida she'rlar yozgan. Hatto, shu qadar qiziqqanki, uning davrida kimning she'riyatga qiziqishi bo'lsa xonning qabuliga boraverar edi. "So'ngroq she'rga haris bo'ldilar. Har kishining she'r aytmoqg'a sahl qobiliyatlari bo'lsa, na'vi she'rlarni aytib, dargohi oliyg'a bora berdilar. Shoirlarning adadlari kam besh qirg'ga yovuq bordi" [Davlatyor Rahim, Shihnazar Matrasul, Jumaxo'ja 1995, 24]. Bundan ma'lum bo'ladiki, Feruz yon-atrofidagi talantli shoirlarni Xivaga to'plagan, ularga rahnamolik, homiylik qilgan.

XIX asrning o'rtalariga kelib O'rta Osiyoda tarixiy-ijtimoiy vaziyat keskin o'zgardi. Chor Rossiyasi tomonidan 1876-yili Qo'qon xonligiga barham berildi, uning o'rnida yangi harbiy-byurokratik hokimiyat – Turkiston general gubernatorligi tashkil etildi. 1868-yili Buxoro, 1873-yilda esa Xiva xonliklari ham birin-ketin ruslarga taslim bo'lib, o'nglanmas siyosiy, moliyaviy va harbiy shartlar evaziga o'z mustaqilliklarini saqlab qolgan bo'lsalar-da, Chor Rossiyasining mustamlakasiga aylanib qoldilar. Bu ikki xonlikdan farqli o'laroq Xorazmda Muhammad Rahimxon II Feruz hukmronligi davrida (1865–1910) san'at, madaniyat, adabiyot, xattotlik, tarjimachilik sezilarli darajada yuksaldi.

Mazkur davr ijodkorlari hayoti to'g'risida bizga ilk ma'lumotlarni beruvchi manbalar – Tabibiyning "Majmuatush-shuaro", Laffasiyning "Xiva shoirlari va adabiyotchilarining tarjimayi hollari"

tazkiralari hamda “Yug‘urumiya” to‘plamidir [Ismoilova 1995, 32]. Ammo biz tahlilga tortgan davr XIX asr ikkinchi yarmidan to Kamoliy vafotigacha (1914) bo‘lgan yillarni qamrab olgani sababli “Yug‘urmiya” she‘riy to‘plamiga diqqat-e‘tiborimizni qaratmadik. “Yug‘urmiya”da Avaz, Tabibiy, Chokar, Faqiriy Devoniyy va boshqalarning 1914–1915-yillardan keyingi davrda yozilgan asarlaridan namunalar keltirilgan [Ismoilova 1995, 33].

Hasanmurod Laffasiy qalamiga mansub “Xiva shoirlari va adabiyotchilarining tarjimai hollari” nomli tazkiraning qo‘lyozma nusxasida Xiva shoirlaridan 54 nafari haqida ma‘lumotlar berilgan bo‘lib, bu manba o‘sha davr adabiy muhitining rivoj topganini ko‘rsatadi. Ushbu tazkiraning uchta 9494, 12561 va 11499-raqamli nusxalari bo‘lib, bulardan 12561-raqamli nusxasida ko‘proq ya‘ni, 54 nafar shoir haqida ma‘lumot berilgan. Qolgan ikki nusxada esa birida 51, ikkinchisida 45 nafar shoir hayoti va ijodi haqida ma‘lumot berilgan. Shu uch qo‘lyozmadan biz nisbatan to‘liqroq deb bilgan nusxa (Inv 12561) Muhammad Amin Xivaqiy kotib tomonidan ko‘chirilgan.

Laffasiy tazkirasida shoirlar hayotiga oid ma‘lumotlar berganda ko‘proq ularning fe‘l-atvorlariga xos bo‘lgan fazilat yoki nuqs-xatolar haqida to‘xtaladi. Biz yuqorida qayd etgan G‘ulomiy va Purkomil shoirlarning fe‘l-atvorlariga xos salbiy qarashlar yoinki, Tabibiy, Avaz, Shinosiy, Kamoliy haqidagi ijobiy fikrlar shular jumlasidandir.

Tazkirada mashhur ijodkorlar hayoti to‘g‘risida kengroq ma‘lumotlar beriladi, masalan, Ahmadjon Tabibiyga Tabibiy otlig‘ taxallus qo‘yilishida Yaxshimurod nomli tabibning xizmatiga ro‘zi-shab qatnab, undan tib ilmlarini o‘rgangani, shu orqali xonga yaqin mahram bo‘lgani, Feruz unga Tabibiy taxallusini bergani batafsil yozilgan. Tabibiy haqida yana shunday deydi: “Ammo Ahmadjon Tabibiy kalta bo‘ylik, ko‘sa qo‘tir, chechak toblig‘ bo‘lib, ul yoshlig‘din jigar xastaligi bo‘lib, hamisha xastalig‘a parvo qilmasdan, ichkilikka mashg‘ul bo‘lib, doimiy mastlig‘ bilan tanbarga havaskor bo‘lib, hama vaqtlar tanbur chertib o‘z shikasta xavotirig‘a tasalli berib turadur edi” [Laffasiy 1992, 62].

Bundan tashqari, Ogahiy, Munis, Komil Xorazmiy, Avaz O‘tar, Bayoniyy, Bobojon Tarroh kabi shoirlar haqida batafsil ma‘lumotlar berilgan, bu esa ijodkorning ijtimoiy holatini tushunish, she‘rlarini ma‘nisiga yetib o‘qishda muhim hisoblanadi. Mazkur tazkirada Mutrib, Haqiriy, Kamoliy, Niyoziy Chokar, Rog‘ib, Doiy kabi o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan sermahsul ijodkorlari haqida ham batafsil

ma'lumotlar keltirilgan.

O'sha davr ruhiyatini o'z she'rlarida mujassam eta olgan Shinosiy, Kamoliy, Haqiriy, Nadimiy, Ojiz kabi shoirlar haqida zarur ma'lumotlar berib, ularni alohida tilga oladi. "Kamoliy xon huzurinda dag'i mo'tabar vuzarolar jumlasidin, har bir marakamajlislarda o'rinli bo'lib kelgani aniqdur..." [Laffasiy 1992, 59].

Laffasiy ta'kidlab o'tgan bu ijodkorning hayoti va ijodiga qiziqib, uning devon tartib bergan yoki bermaganligini aniqlash maqsadida tekshirganimizda Kamoliyga tegishli O'zRFASHI Qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan devonining 3 ta qo'lyozma nusxasi borligi ma'lum bo'ldi. Ushbu manbalarning hajmi quyidagicha: Inv 911/III 131 sahifadan, inv 7085 IV dagi nusxasi esa 133 sahifadan, inv 948 nusxasi esa 171 sahifadan iborat ekanligi oydinlashdi. Shu o'rinda Kamoliy xususida Bobojon Tarroh aytgan mulohazali o'rinlarni zikr etish o'rinli: "Shoir Kamoliy eski maktabni bitkazgan, xolos. Madrasa ta'limini olmag'on. She'rlarini o'zi ayta bilmas..., Kamoliy devon tartib berg'on emas. O'zi boshqa bировga she'r aytтира, nechuk tartib beradi?" [Azizov 1994, 54]. Biz ushbu fikrlarga qo'shila olmaymiz, O'zRFASHI qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan Kamoliy devonining 3 qo'lyozma nusxasi mazkur fikrlarning to'g'ri emasligini ko'rsatadi. Kamoliy ilk ta'limni Xiva qozisi Inoyatullo ismli kishidan oladi. Ushbu qozidan shu davrning boshqa bir iste'dodli shoiri Shinosiy ham ta'lim olgan.

Ahmad Tabibiyning nazmda yozilgan "Majmuat ush-shuaro" asari XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijod qilgan Xorazm shoirlari haqida, ularning hayoti va ijodini tiklashda qimmatli manba hisoblanadi. Tazkirada o'sha davr shoirlaridan 33 tasi haqida masnaviy yo'nalishida ma'lumotlar berilgan. Har bir ijodkorga berilayotgan ta'rifdan oldin uning adabiy muhitdagi o'rne, baytlarining mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratgan. Shuningdek, davr ijodkorlari shaxsiy hayoti va xarakteri xususida ham masnaviy-larda ma'lumotlar keltiriladi.

S. Matkarimova nomzodlik dissertatsiyasida Ahmadjon Tabibiyning "Majmuat ush-shuaro"si haqida shunday ilmiy tavsif beradi: "Qo'lyozmaning eng so'nggi sahifasida asar yozib tugallangan sana va uni ko'chirgan kotib nomi qayd qilinadi: "Muhammad Rahim bahodirxoni soniy janobi oliy hazratning farmoni oliylari bila bu "Majmuyi shuaro"ni faqir al-haqir Muhammad yoqub Devon mulaqqab ba Xarrot bin usta Qurbonniyoz Xorazmiy bir ming uch yuz yigirma oltitanji yil mohi safarning uchlanjisi juma kuni muvofiq qo'y yili yozib itmom sarhadig'a yetkurdi" [1746, 5. 8].

Ushbu o'rinli ma'lumotlar Kamoliy hayoti va ijodini o'rganishda hamda o'sha davr adabiy muhitidagi ta'sirini bilishda ancha yordam beradi.

S.Matkarimovanning tadqiqotida Tabibiyga tegishli 29 raqamli qo'lyozmaning 9-betida tazkiraga kiritilgan quyidagi shoirlar ro'yxatini izchil berib o'tishi biz uchun qimmatli ma'lumot hisoblanadi: Hazratimiz dom davlata Sayyid Muhammad Rahimxon xaladallohu taoli mulukahum, Sayyid Nosir to'ra taxallusi Sultoni, Rahmonquli to'ra taxallusi Sodiq, Sa'dulla to'ra taxallusi Sa'diy, Sayyid G'ozi, Sayyid Asad to'ra, Bayoniyki Muhammad Yusufbek, Oqilki Hasanmurodbek, Mirzo domullo Muhammad Rasul, Shinosiy Shayxnazarboy, G'ulomiy Davlatmurod mahram, Purkomil Abdurasul, Kamoliy, Umidiy Muhammadniyoz devon, Doiy Yusufhoji oxund, Ojiz Xudoybergan mufti oxund, Haqiriy Muhammadsharif oxund, Hoki, Ibodullo oxund, Niyoziy Niyozmuhammad oxund, Domullo Yusuf, Mullo Habibullo, Ahmad Tabibiy, Xayoliy Muhammad Nazar, Nadimiy, Xodim, Chokar yoki Muhammad Yusuf. Ushbular shoirlardur [Ahmad Tabibiy, Inv 29, 9^b].

Umuman olganda, shu kunga qadar Shoir Kamoliy ijodiy faoliyati to'g'risida hech bir tadqiqotchi ish olib bormagan. Kamoliyning nomi tazkira va bayozlardagina uchraydi. Yuqoridagi ma'lumotlar muallifi S. Matkarimova va G. Ismoilovanning nomzodlik dissertatsiyalarida Kamoliy haqida "ikki og'iz" aytilgan fikrlardan boshqa tadqiqot olib borilmagan yoki ilmiy maqola yozilgan emas.

Filologiya fanlari doktori Gulsara Ismoilova ham "Feruz davri Xorazm adabiy muhiti" mavzusida yozilgan nomzodlik dissertatsiyasida Feruz zamonida yashagan Xorazm shoirlariga nisbat berib Kamoliy ijodi mavzu ko'lami xususida shunday yozadi: "Tazkirada taniqli ijodkorlar hayoti to'g'risida batafsilroq ma'lumot berishga harakat qilingan... Shu bilan birga, saroy muhitiga moslashgan, she'rlarida o'sha sharoit ruhiyati, manzaralarini aks ettirgan Shinosiy, Kamoliy, Umidiy, Nadimiy, Ojiz, Haqiriy, Yusufiy, Hoki, Muzniblar to'g'risida ham birmuncha aniq va zarur dalillar keltiriladi va ular ijodiga xolis baho beriladi..." [Ismoilova 1995, 36]. Bundan kelib chiqib, Kamoliy ijodi ushbu tadqiqotchi tomonidan ham yuzaki o'rganilgan desak to'g'ri bo'ladi.

Tabibiy ko'chirgan nodir manbada o'sha davr adabiy muhiti namoyandalaridan bo'lgan ko'plab ijodkorlarning she'rlari qayd etiladi. Ushbu manba hozirgi kunda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondida 1152-Inventar raqami ostida saqlanadi.

“Majmuat ush-shuaro” asarining badiiy qimmatini shundaki, unda Feruz, Ogahiy, Mutrib Xonaxarob, Kamoliy, Purkomil, Doiy, Haqiriy, Ojiz, Yusuf, Habib, Xokiy, Rog'ib, Tabibiy, Umidiy, Hayoliy, Sultoni, Chokar kabi ko'plab shoirlarning qalamiga mansub g'azal va muxammaslar keltirilib, ularning har biriga muallif tomonidan ikki baytli masnaviy bitilgan. Muallif tomonidan bitilgan masnaviylar asarda nomi kelgan shoirlarning hayoti, xarakteri, ijodi haqida qimmatli ma'lumot o'rnidadir. Tabibiyning quyidagi masnaviysi shoir Kamoliyning Feruzga payrav yozgan g'azaliga bitilgandir:

*Kamoliyki, xushtur maqoli oning,
O'lum ichra kamoli oning.
Chu ko'rdi shahanshohdin bir g'azal,
Anga yozdi tatabbu masal [Ahmad Tabibiy, № 1152, 10].*

Ushbu masnaviy orqali biz shoir Kamoliyning duogo'y, kamtar va xushfe'l inson ekanligi, dunyo ishlariga ruju qo'ymaganligi hamda Feruzshohdan o'zining g'azaliga payrav g'azal yozishi to'g'risida buyruq olganligi borasida ma'lumot olishimiz mumkin.

Yana bir masnaviyda Kamoliy xususida shunday deyiladi:

*Kamoliy dag'i mard komil erur,
Anga fahm ila xush hosil erur.
Duogo'y o'lub sidq-u sabab bila,
Dedi bu g'azalni itoat bila.*

Va ushbu masnaviydan so'ng Ogahiyning mashhur “Sallamno” radifli g'azaliga taxmis qilib yozilgan baytlari ko'chirilgan.

ايا شوخ ستمگر چشم خمارينگه سللما
خددى گولگون چو قدی سروی رفتارينگه سللما
تکلولم ايلگای قندو عسل قدرینی محو ایتی
مسیحا موج... آنداغکی گفتارينگه سللما

*Ayo sho'xi sitamgar chashmi xummoringg'a sallamno,
Xaddi gulgun chu qaddi sarvi raftoringg'a sallamno.
Takallum aylagay qand-u asal qadrini mahv etti,
Masiho mavj... andog'ki guftoringg'a sallamno*

[Kamoliy, № 948, 3].

Bundan tashqari, Tabibiy qalamiga mansub Sharqshunoslik institutida 1134-raqam ostida saqlanayotgan qo'lyozmada ham o'sha davr adabiy muhiti vakillari ijodidan namunalar keltirilgan. Kuzatishlar bunda ham shoir Kamoliy qalamiga mansub ko'plab muxammaslarning borligini ko'rsatdi. Darvoqe, Tabibiy qalamiga mansub ushbu masnaviydan ham shoir hayoti va ijodi haqida ma'lumot olish mumkin:

*Inoyatki, dargohida devon erur,
Anga fahm donish farovon erur.
O'zi xo'b erur asru shatranjboz,
Bu na'vi ish aro qildi ifshoyi roz* [Ahmad Tabibiy, № 1134, 41].

Bu o'rinda Kamoliyning saroyda ma'lum bir lavozimda ishlagani (mutavalli), she'r bitishga uquvi yuksakligi hamda shatranj o'yinida yaxshigina malakaga ega ekanligi qayd etilgan. Masnaviydan so'ng Feruz g'azaliga yozilgan Kamoliy muxammasi o'rin olgan.

Tabibiy tazkirasida ma'lum bir ijodkor xoh u quyi, xoh yuqori tabaqaga mansub bo'lsin, unga xolis baho beradi. Masalan, Kamoliy taxallusi bilan she'rlar yozgan Otanazar mutavalli Kamoliy haqida:

*Kamoliyki, xushtur maqoli oning,
O'lum ichra kamoli oning.
Chu ko'rdi shahanshohdin bir g'azal,
Anga yozdi tatabbu masal* [Ahmad Tabibiy, № 1152, 10].

deya iliq gaplarni aytsa, kambag'al shoirlardan bo'lgan Devoniylar ijodiga ham hurmat bilan qaraydi:

*Biri she'r xaylini Devoniydurur,
Zamiri durri ma'ni konidurur.
Oning aytg'on nazmidur bu g'azal,
Ki, bordur bu olam aro bebadal* [Ahmad Tabibiy, 1152, 109].

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Xorazm o'lkasida ellikdan ortiq (Laffasiy tazkirasida 54 ta shoir haqida ma'lumot berilgan) shoir yashab ijod qilganligi ma'lum bo'lsa-da, ulardan ko'pchiligining ijodi, hayot yo'li to'laqonli o'rganilmagan. Bugungi kunda ularning hayoti va ijodini o'rganish, kitobxonlarga yetkazish, matnshunoslik va adabiyotshunoslikning muhim vazifalaridan sanaladi. Shu davrning yetuk ijodkorlaridan hisoblangan Otanazar Muso mutavalli o'g'li Kamoliy hamda uning ijodini o'rganish, bugungi adabiyotga olib kirish dolzarb vazifalardan biridir.

Ijodining hajm ko'lamiga ko'ra Otanazar Muso mutavalli o'g'li Kamoliy bu davrdagi ko'plab shoirlardan ajralib turadi.

Kamoliy haqida ma'lumotlar topish davomida u yashagan davr adabiy muhitiga murojaat etildi. Kamoliy yashagan adabiy muhit XIX asr o'rtalari va XX asr boshlaridagi Xorazm adabiy muhitini o'z ichiga qamrab oladi.

Kamoliy devonining qo'lyozma nusxalari Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida 3 ta bo'lib, unga g'azallar, muxammaslar, taxmislar, murabbalar, tarjibandlar, qasidalar nasta'liq xatida bitilgan. Shuningdek, devon qo'lyozmalarining hajmi quyidagicha: inv 911/III 131sahifadan, inv 7085 IV dagi nusxasi 133 sahifadan, inv 948 nusxasi esa 171 sahifadan iboratdir.

Ushbu qo'lyozmalarda shoir devoni aynan berilgan bo'lib, bundan tashqari boshqa manbalarda ham Kamoliy ijodidan namunalar uchraydi.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida 1538/I raqami ostida saqlanuvchi "Majmuati ash'or"da Jomiy, Navoiy, Mashrab, Kamoliy, Jurmiy, Qul Umuriy, Furqat, Abdurahmon qori Namangoniy, Qoriy kabi shoirlar ijodidan namunalar berilgan.

Yana shu yerda 1010-tartib raqami ostida saqlanuvchi "Majmua" qo'lyozmasida ham shoir ijodidan she'rlar uchraydi. Bu qo'lyozmada Qul Umuriy, Zavqiy, Mashrab, Shoh Qosim Anvari, Jazbiy, Huvaydo, Navoiy kabi shoirlarning ijod namunalari berilgan.

Bundan tashqari, bayozlarda ham shoir Kamoliy ijodidan namunalar keltiriladi, xususan, 2391, 1192, 1184, 1175, 1196, 1179, va 1582-raqam bilan saqlanuvchi bayozlarda hamda 1127-raqamli muxammaslar to'plamida va 1133-raqamli musaddasotda shoir nomini va she'rlarini uchratdik. 2391-raqamdagi bayozda Hofiz, Bedil, Shoyiq, Sayido, Sodiq, Soib, Xolis, Boqiy kabi ijodkorlar qatorida uchratadigan bo'lsak, 1582-tartib raqamida saqlanuvchi bayozda esa 284 g'azal, mustazod, qasida va ruboiylar ichida Mirzo, Haqiriy, Rog'ib, Kamoliy, Avaz, Devoni, Ojiz, Shinosiy, Doiy kabi shoirlarning baytlari berilgan. Qolgan manbalarda bir qator mashhur ijodkorlar ijodi qatorida Kamoliy she'rlari ham o'rin olgan.

Shoir Kamoliy ijodining bu qadar keng miqyosda topilishi o'zi yashagan davr muhitida o'zgacha o'rne borligidan dalolat beradi.

Yuqorida sanab o'tilgan uchta qo'lyozma nusxadan nisbatan to'liq hamda aniqroq manba sifatida 948-raqamdagi qo'lyozma nusxasini tanladik. Ushbu qo'lyozma nusxa tasnif qilin-ganda unda jami 659 g'azal, 48 ta muxammas, 4 ta musaddas hamda 3 ta qasida borligi ma'lum bo'ldi. Devonda barchasi aniq ko'rsatilgan g'azallar, muxammaslar, musaddaslar hamda qasidalar alohida aniq tarzda, sarlavhalari bilan birga berib borilgan (masalan, g'azali Kamoli, muxammasi Kamoliy va boshqalar). Navoiy, Fuzuliy, Muhammad Rahimxon Feruz, Amiriy, Xolis, Ogahiy, Munis, Ravnaq, Sultoni, Fig'oniy kabi shoirlarga muxammaslar bog'langan.

Ma'lumki, ishq-muhabbat she'riyatning, xususan g'azal

yo'zishning birlamchi bosh mavzusi hisoblangan. XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib ham ijtimoiy hayotdagi keskin o'zgarishlarga qaramay, g'azalchilikda muhabbat mavzusi an'anaviy holda davom etgan. Ammo bu davrga kelib g'azal janrida ro'y bergan yangiliklardan biri – g'azal mazvu ko'laminin birqadar kengayishi bo'ldi. Ijtimoiy mavzular, maorif-ma'rifatchilik yo'nalishidagi g'oyalarning yetakchi o'ringa chiqqan borishi adabiyotdagi o'ziga xos o'zgarishlardan biri hisoblandi. Yuz berayotgan tarixiy voqealarga bo'lgan munosabat, shoirlar ijodida ham yaqqol sezila boshladi.

Xulosa

Umuman olganda, saroyda adabiy muhitning tashkil qilinishi, Muhammad Rahimxonning mumtoz adabiyotdagi misli ko'rilmagan darajada ijobiy xizmatlaridan biri bo'ldi. Bu davrda yaratilgan yuzdan ziyod badiiy, tarixiy va boshqa sohalarga oid asarlar, arab va fors-tojik tillaridan o'girilgan tarjimalar, mumtoz adabiyot vakillari yozib qoldirgan durdona asarlarning hech qanday o'zgarishsiz ko'paytirilishi va bizgacha yetib kelishi, haqiqiy olijanob, ilmga muhabbati bisyor hukmdorning fazilatidir.

Xulosa qilib aytganda Feruz davri Xorazm adabiy muhitida ro'y bergan muhim o'zgarishlar va sezilarli rivojlanishlar o'zbek mumtoz adabiyoti va matnshunosligida o'chmas iz qoldirdi.

Bu davrda yashagan shoirlar, xususan, Kamoliy ham ushbu adabiy jarayondan chetda qolmadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda uning she'rlari ham o'zining hayotiyliigi va samimiyligi bilan muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

- Абдуллаев, В. 1979. *Ўзбек адабиёти тарихи*. Беш томлик. 4-том. Тошкент: Фан.
- Абдуллаев, В. 1980. *Ўзбек адабиёти тарихи*. Иккинчи китоб. Тошкент: Ўқитувчи.
- Саиджонов, Зебо. 2016. “Жадидчилик ва Хоразм адабий муҳити”. *Шарқ юлдузи* 4.
- Исмоилова, Гулсара. 1995. *Феруз даври ва Хоразм адабий муҳити*. Номзодлик диссертацияси. Тошкент.
- Лаффасий. 1992. *Тазкираи шуаро*. Урганч: Хоразм.
- Ogahiy. *Gulshani davlat*. Qo'lyozma. O'zR FA ShI Qo'lyozmalar fondi. Inv 79.
- Бобожон Тарроҳ Азизов. 1994. *Хоразм навозандалари*. Тошкент: Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.
- Давлатёр Раҳим, Шихназар Матрасул, Нусратулло Жумахўжа. 1995. *Феруз шоҳ ва шоир қисмати*. Иккинчи китоб. Тошкент: Ўзбекистон.
- Ahmad Tabibiy. *Majmuat ush shuaro*. Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Sharqshunoslik instituti. Inv № 1152.

Otanazar Muso mutavalli Kamoliy. *Devoni Kamoliy*. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. Inv. № 948.

Ahmad Tabibiy. *Majmuat ush shuaro*. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. Inv № 1134.

The role of Otanazar Kamoli in the Literary Environment of Khorezm

Sharofiddin Jalilov¹

Abstract

Second half of the XIXth century. At the beginning of the XXth century, along with a number of political changes, a unique literary environment developed in the Khiva Khanate.

King Muhammad Rahim Khan II Feruz, who always sought to ensure the gathering of the country's artists, left a mark in the history of literature as the largest patron of poets. The creation of a new school of creativity as a result of the efforts of Muhammad Rahim Khan II Feruz led to the creation of many works. According to the instructions given by Feruz to representatives of the Khorezm literary community, the tradition of creating a devan became a tradition and was further developed.

In particular, the names of the creators who managed to create the sofa were taken directly from the magazine "Majmuat ush-shuaro", which covers the life and work of representatives of the literary environment of Khorezm. It is noteworthy that before the creation of the tazkira "Majmuat ush-shuaro" there was no collection or tazkira containing complete information about the life and work of representatives of the literary environment of Khorezm. From this point of view, we can say that information about the life and work of Otanazar Kamali is given a place in this review, which indicates the special place of the poet in this literary environment.

Considering the above, this article provides brief information about the development of the literary environment of Khorezm during the reign of Muhammad Rahim Khan II Feruz, his encouragement of science and creativity among government affairs. It also briefly analyzes the unique styles used by artists of this period, using their poetry as an example. In

¹ Sharofiddin Jalilov – researcher, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: Sharofiddinjalilov95@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-4717-6076

For citation: Jalilov, Sh. 2024. "The role of Otanazar Kamoli in the literary environment of Khorezm". *Golden Scripts* 3: 24 – 36.

addition, based on sources, information about the life and creative work of Otanazar Kamoli was restored and analyzed. Handwritten copies of the poet's book, the composition and content of the book, the volume of works included in it were scientifically analyzed, and the poems in the book were classified by genre.

Key words: *Literary environment, Khiva, Feruz, Kamali, "Devoni Kamali", textual research.*

References

- Abdullayev, V. 1979. *O'zbek adabiyoti tarixi*. Besh tomlik. 4-tom. Toshkent: Fan.
- Abdullayev, V. 1980. *O'zbek adabiyoti tarixi*. Ikkinchi kitob. Toshkent: O'qituvchi.
- Saidjonova, Zebo. 2016-yil, 4-son. *Jadidchilik va Xorazm adabiy muhiti*. Maqola. "Sharq yulduzi" jurnali.
- Ismoilova, Gulsara. 1995. *Feruz davri va Xorazm adabiy muhiti*. f.f.n. dissertatsiyasi. Toshkent.
- Laffasiy. 1992. *Tazkirayi shuaro*. Urganch: Xorazm.
- Ogahiy. *Gulshani davlat*. Qo'lyozma. O'zR FA ShI Qo'lyozmalar fondi. Inv79.
- Bobojon Tarroh Azizov. 1994. *Xorazm navozandalari*. Toshkent: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.
- Davlatyor Rahim, Shihnazar Matrasul, Nusratullo Jumaxo'ja. 1995. *Feruz shoh va shoir qismati*. Ikkinchi kitob. Toshkent: O'zbekiston.
- Ahmad Tabibiy. *Majmuat ush shuaro*. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. Inv № 1152.
- Otanazar Muso mutavalli Kamoliy. *Devoni Kamoliy*. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. Inv. № 948.
- Ahmad Tabibiy. *Majmuat ush shuaro*. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. Inv № 1134.

ADABİYOTSHUNOSLIK
LITERATURE**“Xəmsə” əənənəsində mövzunun həlledici funksiyası**Zəhra Allahverdiyeva ¹**Özet**

Dahi Azərbaycan şairi Nizami Gəncəvinin “Xəmsə”si Yaxın və Orta Şərq xalqları ədəbiyyatının inkişafında mühüm rol oynamış, tükənməz mövzu və ideya mənbəyinə çevrilmiş, bir çox xalqların mədəni həyatında dərin iz qoymuşdur. “Xəmsə”nin mövzuları bir çox sənətkarların əsərlərinin dünya mədəniyyəti səhnəsinə çıxarılmasına, xalqlar ədəbiyyatının zənginləşməsinə xidmət etmiş, Nizami yaradıcılığının təsiri ilə humanist ideyalar dünya ədəbiyyatında aparıcı mövzuya çevrilmişdir.

“Xəmsə” əənənəsinin tərəfdarlarının özlərinin də etiraf etdiyi kimi, “Nizaminin qoyduğu səddi aşmaq” çətin iş idi. Buna görə də mövzuya və quruluşa yeniliklər gətirmək və orijinallıq gətirmək üçün çoxlu böyük istedadlara ehtiyac var idi.

Orta əsrlərdə yaranmış məsnəvilərin mövzularında, süjetində, bədii qəhrəman və personajların tipologiyasında və digər elementlərində Nizami yaradıcılığının təsiri özünü göstərir. Biz də belə qənaətə gəldik ki, cavab olaraq yazılan əsərlərdə oxşar motivlərin tipoloji xüsusiyyətləri ilə yanaşı, müxtəlif tarixi dövrlərdə mövzunun əhatə dairəsi genişlənməmişdir. Nizami yaradıcılığı fenomeninə aid olan tarixi şəxsiyyətlər, ədəbi qəhrəmanlar, dini-mifik personajlar çıxarılır, yeni qəhrəmanların həyatına əsaslanan süjetlər, “yeni aşıqların” romantik macəralarına həsr olunmuş əsərlər yazılmışdır.

Nizaminin humanist ideyaları qorunub saxlanılmış və davam etdirilmiş, onun bu mövzularda əldə etdiyi “ustad statusu” yeni yazılan əsərlərdə xüsusi qeyd edilmişdir. Nizami Gəncəvi mövzuları izlənməklə, üslub baxımından orta əsrlər ədəbiyyatının mühüm ifadə xüsusiyyətləri simvollar sistemi yeni yaranan əsərlərdə daha fəal forma almışdır.

Açar sözlər: Nizami Gəncəvi, “Xəmsə”, mövzu, məsnəvi, Xacu Kirmani.

¹ Allahverdiyeva Zəhra – Filologiya üzrə fəlsəfə doktoru, dosent, AMEA, Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutunun “Nizamişünaslıq” şöbəsinin baş elmi işçisi
E-mail: zahra.allahverdiyeva@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-8697-0395

Alıntı için: Allahverdiyeva, Z. 2024. “Xəmsə” əənənəsində mövzunun həlledici funksiyası”. *Oltin bitiglar* 3: 37 – 50.

Giriş

Dahi Azərbaycan şairi Nizami Gəncəvinin “Xəmsə”si Yaxın və Orta Şərq xalqları ədəbiyyatının inkişafında mühüm rol oynamış, tükənməz mövzu və ideya qaynağına çevrilərək, bir çox xalqların mədəni həyatında dərin iz buraxmışdır. “Xəmsə” mövzuları bir çox sənətkarların əsərlərinin dünya mədəniyyətinin ön sırasına qalxmasına, xalqların ədəbiyyatının zənginləşməsinə xidmət etmiş, Nizami yaradıcılığının təsiri ilə humanizm təlimi dünya ədəbiyyatında aparıcı mövzuya çevirmişdir. Görkəmli şərqşünas R.Azadənin də qeyd etdiyi kimi, “...bir sıra köklü cəhətlərlə əvvəlki şeirdən fərqlənən, yeni məktəbin özülünü qoyan” [Azadə 1984, 47]. Nizami öz yaradıcılığı ilə Yaxın Şərq ədəbiyyatında mürəkkəb, zəngin məzmunlu və çoxşaxəli, bitkin süjetli məsnəvi janrında dastanların inkişafına və təkmilləşməsinə daha geniş imkanlar açdı və “Xəmsə” ənənələrində fars, türk və hind ədəbiyyatının böyük bir nəslə yetişib, Nizami mövzularında yazdıqları epik-romantik səpkili əsərlərlə orta əsrlər ədəbiyyatının bu istiqamətdə inkişafını təmin etdilər. “Xəmsə” ənənəsinin ardıcıllarının özlərinin də etiraf etdiyi kimi, “Nizaminin çəkdiyi səddi aşıb keçmək” çətin bir məsələ idi. Bu səbəbdən, yenilik etmək, mövzu və struktura orijinallıqları daxil etmək üçün bir çox nəhəng istedad sahiblərinə mühüm çalışmalar lazım gəlmişdir.

İlk orijinal mətn olaraq qəbul edilən Nizami “Xəmsə”sinə daxil olan məsnəvilərə xas çoxşaxəli spesifik xüsusiyyətlər müxtəlif ədəbi mərhələlərdə həlledici rol oynadığından, bu mövzu və motivlərin tipologiyası, sabillik və orijinallıq dərəcələri və sair məsələlərin öyrənilməsi mühüm əhəmiyyət kəsb edir. Nizami əsərindən sonra meydana çıxan “Xəmsə”lərin özləri də biri - digəri ilə sıx əlaqəli səciyyə daşıyır və beləcə, zaman keçdikcə, yeni yaradıcılıq improvizasiyası keçən bu janr özündə bir neçə nəslin təcrübəsini birləşdirərək, Şərqdə mövzu və ideya, struktur və bədii dil sisteminin əsas hissələrindən birini təşkil edir. Təsadüfi deyildir ki, epik əsərlər üzrə nəzəriyyəçi-alim Yeleazar Meletinski “Orta əsrlərdə yaranan Yeni dövr epik romanların yunan qəhrəmanlıq dastanlarından fərqləndiyini və bu əsərlərdə daha böyük problemlərin həll olunduğunu” göstərərək yazırdı: “Orta əsr romanı qəhrəmanlıq eposunda görünməyə layiq olan əsl qəhrəmanı üzə çıxardı, (antik romanda olduğu kimi) təkcə xüsusi şəxsiyyət deyil, həm də onun daxili dünyası sosial aləmə müxalif olan şəxsiyyətdir, ona ziddir. Çox tez-tez orta əsrlər romanında və ya romantik poemada mümkün dissonans problemi və şəxsi hisslərin (romantik element), eləcə

də sosial vəzifənin (epik element) arzu olunan uyğunlaşması əsas yer tutur. Tristan və İzolde, Vis və Ramin, Leyla və Məcnun kimi əsərlərdə bu dissonans ictimai borcun yerinə yetirilməməsindən doğan acınacaqlı vəziyyət kimi ifşa olunur" [Meletinski 2001, 90-91].

Orta əsrlərdə yaranan məsnəvilərdə mövzu, süjet, bədii qəhrəman və obrazlar tipologiyası və sair elementlərdə Nizami yaradıcılığının təsiri aşkar görünməkdədir. Təsədüfi deyildir ki, şairin "Xəmsə" mövzularına ilk olaraq, nəzirə yazan Əmir Xosrov Dəhləvi mövzu, ideya, süjet, obraz və surətlər çevrəsində Nizami möhürünün və oxşarlığının qaçılmazlığını "Ayineyi-İskəndəri"də xüsusi qeyd edir və Nizami əsərinin qiymətini aşağıdakı beytlərdə göstərir:

زهی سگہ کیمای سخن
که یک جو درو نیست جای سخن
گرامی کن گوهر آدمی
گرامی ترین جوهر مردمی
بهر خانه زو صلح و جنگی دگر
بهر دل شتاب و درنگی دگر
بهارى بصد نیکویی خاسته
عروسی بصد زیور آراسته

[Əmir Xosrov 1977, 25].

Əhsən, söz kimyasının sikkəsinə,
Ki, onda söz (deməyə) bir arpalıq yer yoxdur.
İnsan incisini əziz tutmaqla,
İnsanlıq cövhərinin ən qiymətlisidir.
Onun hər (söz) xanəsinin sülh və hərbi bir başqadır.
Qəlbin həyəcanı(duygular) və naz onda bir başqadır.
Yüz yaxşılıqla bir bahar ucaldı,
Yüz bəzəklə bir gəlin bəzədi.

Ümumiyyətlə, "Xəmsə" ənənəsi üzrə mövzu, ideya, struktur və üslub problemlərinin araşdırılması geniş elmi müqayisələrə yol açan mürəkkəb bir məsələdir. Onu da qeyd etmək lazımdır ki orta əsrlər ədəbiyyatında "Xəmsə" ənənəsinin inkişafını hər bir dövrün yeni tələbləri və ayrı-ayrı xalqların mədəniyyətinin inkişafı kontekstində araşdırılması vacibdir.

"Xəmsə" ənənəsi üzrə mövzu və süjet tipologiyasının öyrənilməsi

"Xəmsə" ənənəsinin inkişafı, janrın mövzu və süjet tipologiyası, ideya-fəlsəfi, poetik-üslubi aspektləri ətrafında geniş tədqiqatlar aparan şərqşünas - alim Mehdi Kazımovun konkret olaraq

“Yeddi gözəl”ə yazılmış nəzirələrin məzmun və ideya fərqi haqqında söylədiyi haqlı fikiri xatırlamaq yerinə düşür: “Nizami yaradıcılığı sosial ziddiyyətlərin qoyuluşu etibarilə onu davamçılarından qəti şəkildə ayırır. Bu özünü “Yeddi gözəl”ə yazılmış nəzirələrin təhkiyəsində, eləcədə də təsvir olunan novellalarda əsaslı şəkildə göstərir [Kazimov 1987, 48].

Məlumdur ki, mövzu, ideya, süjet, vəzn və sair tipoloji xüsusiyyətlərinə əsasən, ədəbiyyatşünaslıqda “Xəmsə”lər nəzirə, cavab, təqlid, tətəbbü, istikbal, tərcümə və sair adlarla fərqləndirilsə də, onların iki böyük qrupu xüsusi qeyd olunur: nəzirə və cavab olaraq yazılmış əsərlər.

XX əsrin 40-cı illərində Həmid Araslı Nizaminin Yaxın Şərq ardıcıllarının onu iki istiqamətdə - nəzirə və cavab olaraq izlədiyinə diqqət yetirərək göstərirdi ki, “...ya şair Nizami mövzularını alıb, yeni əsli - orijinal bir əsər yaradır; yaxud da yeni bir mövzunu Nizami üslubunda canlandırır, onun ədəbiyyatımıza gətirdiyi xüsusiyyətləri davam etdirməklə, bədii quruluş cəhətdən onu izləməyə çalışır [Araslı 1940, 104].

Sonrakı dövrlərdə də ədəbiyyatşünaslıqda bu problem ətrafında ciddi araşdırmalar aparılmış, “Xəmsə” ənənəsinin nəzəri əsasları və prinsipləri müəyyənləşdirilərək öyrənilmişdir. Şərqşünaslıqda H.Araslı, Y.E.Bertels, A.S.Ləvənd, H.Ayan, Q.Beqdeli, A.A.Starikov, J.Şaripov, A.S.Suxaçev, A.Ş.Şumuhamedov, Q.Əliyev, A.Mirzoyev, N. Araslı, M.Kazimov və başqa alimlərin araşdırmalarına əsasən, belə nəticəyə gəlmək mümkündür ki, nəzirə olaraq yazılmış əsərlərdə əsas meyar mövzudur; yəni müəllif ortaq mövzunu əsas götürərək, özünün yeni, oxşar əsərini yaradır. Nizami “Xəmsə”sindən alınmış mövzu, ideya, həmçinin süjet, obraz, məcaz və ifadələr, simvollar epik poeziyanın əsas daşıyıcı elementlərinə çevrilərək toxunulmaz qalmış, ədəbiyyatda Nizami orijinallığı qorunmuşdur.

Artıq yuxarıda qeyd etdiyimiz kimi, bu ortaq mövzularda yazan şairlər öz nəzirə əsərlərində orijinal yanaşmaları, yenilikləri ilə seçilə bilirdilər. Bu baxımdan, nəzirə, yaxud cavab olaraq yazılmış “Xəmsə” əsərlərinə spesifik xüsusiyyətlər xasdır.

Şərq ədəbiyyatında “Xəmsə” ənənəsinin inkişafı nəzəri-tematik və struktur üslubi baxımdan da tədqiqatçıları cəlb etmişdir.

Bu sahədə tədqiqat aparan alimlər “Xəmsə” mövzuları üzrə süjet prinsiplərində hər bir müəllifin fərdi yaradıcılıq axtarışları, ənənə çərçivəsində etdiyi yenilikləri, orijinallıq dərəcəsini müəyyən edən əsas meyarlar sırasına daxil edirlər. Ümumilikdə, nəzirə və

cavab tipi xüsusi olaraq qeyd olunmuşdur.

Şərqşünaslıqda bir sıra hallarda mövzunun qabarıq tipoloji aspektlərini nəzərə almaqla, bu iki tip – nəzirə və cavab arasında heç bir fərq qoyulmur; onlar eyniləşdirilir. Məsələn, türk alimi Hüseyn Ayanın fikrincə, "nəzirənin bir adı da cavabdır. Şairin ustad saydığı "sənətkarın əsərinin konusunu (mövzusunu) almaz, yalnız vəznini, biçimini və əsasını alır. Bənzərini meydana gətirərək, ustadın əsərinə cavab vermiş olur" [Ayan 1979, 96].

"Xəmsə"lərdə cavab, yaxud nəzirə adının eyniləşdirilməsi digər müəlliflərdə də müşahidə olunur. Azərbaycan ədəbiyyatşünaslarından Q.Beqdeli və M.Kazımov bu iki tip arasında elə bir ciddi fərqi olmadığını fikrindədirlər [Beqdeli 1971, 14; Kazımov 1987, 11].

Cavab şəklində yazılan əsərlərdə mövzu öz funksiyalarını təkcə Nizaminin yaradıcılıq dünyasına xas olan tarixi şəxsiyyətlər, ədəbi qəhrəmanlar, dini-mifik obrazlar vasitəsilə deyil, yeni qəhrəmanların həyatı üzərində qurulan süjetlər və yeni aşıqların "məhəbbət sərgüzəştləri" əsasında yerinə yetirir. Nizami tərəfindən realistik-romantik istiqamətdə işlənmiş mövzular Xacu Kirmani qələmilə yenidən ədəbiyyatın aktual məsələsinə çevrilir, lakin problem və onun həlli yolları fərqli, sufi-modernist formada ifadə olunur.

Qəzənfər Əliyev yazırdı: "Nizami poetik məktəbi ənənəsində yazılan poemalar arasında cavablar da az deyil, çünki onlar şairlərə nüfuzlu ədəbi yarışlara qoşulmağa və öz bədii istedadının gücünü sınağa imkan verirdilər. Dövri poeziyanın "Xəmsə" ənənəsi sırasında Gözəl Yusif haqqında, "Gül və Bülbül", "Hir və Rənca" rəvayətlərinin süjetləri üzrə yaradılmış cavab poemalar vardır" [Əliyev 1985, 11].

Problemin tarixi-xronoloji və nəzəri aspektlərini tədqiq edən Qəzənfər Əliyev araşdırmalarında cavab sırasından olan əsərlərdə müəlliflərin öz sələflərinin poetik nailiyyətlərindən yalnız formal şəkildə faydalansa da, xələf şairin öz sələfi ilə təkbətək mübarizəyə girişdiyini, şairə öz istedadını nümayiş etdirmək üçün daha çox imkan verdiyini qeyd edir və bu səbəbdən elmi ədəbiyyatda tez-tez nəzirə və cavab əsərləri arasında fərqlərin olduğunu əsaslandıraraq yazırdı: "Belə ki, nəzirədən fərqli olaraq, cavabda, bir qayda olaraq, fərqli süjet inkişaf etdirilir. Məsələn, X əsr hind şairi Feyzinin "Nal və Daman" əsərinin süjeti Nizaminin "Xəmsə"sindəki süjetlərdən kənara çıxır. Eyni zamanda, bu poema Nizami yaradıcılığına cavab olmaqla, ciddi şəkildə "Xosrov və Şirin" ənənələrində yazılmışdır"

[Əliyev 1985, 11].

Biz də belə bir qənaətə gəlmişik ki, cavab olaraq yazılmış əsərlərdə oxşar motivlərin tipoloji xüsusiyyətləri ilə yanaşı, müxtəlif tarixi dövrlərdə mövzunun əhatə dairəsi genişlənməsi müşahidə olunur. Fenomen Nizami yaradıcılığı çevrəsinə məxsus tarixi şəxsiyyətlər, ədəbi qəhrəmanlar, dini-mifik obrazlar silsiləsindən kənara çıxılır, yeni-yeni qəhrəmanların həyatı üzərində qurulmuş süjetlər və “təzə aşıqların” eşq macəralarına həsr olunmuş əhvalatlar qələmə alınır. Əlbəttə, Nizaminin humanist ideyaları qorunaraq davam etdirilir və onun bu mövzularda qazandığı “ustad” titulu yeni qələmə alınan əsərlərdə xüsusi qeyd olunur. Həmçinin yeni yaranmış əsərlərdə üslub baxımından, çox zaman orta əsrlər ədəbiyyatının mühüm ifadə xüsusiyyətləri - simvolik sistem daha aktiv forma alır.

Beləliklə, cavab olaraq yazılmış əsərlərdə fərqli xüsusiyyətlər daha qabarıq nəzərə çarpır və orijinal yanaşmalar müşahidə olunur.

“Xəmsə” mövzularına modern yanaşma: ideya, süjet və üslub xüsusiyyətləri

Məsnəvi janrında ənənəyə çevrilmiş Nizami Gəncəvi “Xəmsə”sinin aparıcı prinsipləri ilk növbədə, məzmun, fəlsəfi ideya və üslub xüsusiyyətlərinin izlənməsi ilə bağlıdır və Nizami tərəfindən qoyulan ümumbəşəri problemlərə modern yanaşmalar hər dövrün öz xüsusiyyətlərinə uyğun şəkildə davam etməkdə idi. Sələf Nizami Gəncəvi məsnəvi janrında özünün novatorluğunu, məzmun, ideya və obrazlar, bədii ifadə sistemi və sair məsələlərdə orijinallığını qeyd etmişdir. Təsadüfi deyildir ki, ilk poeması “Məxzənül-əsrar” əsərinin “Kitabın yazılma səbəbi” hissəsində belə yazırdı:

منکه سرایندهٔ این نوگلم
باغ ترا نغز نوا بلبلم
در ره عشقت نفسی میزنم
بر سر کویت جرسی میزنم
عاریت کس نپذیرفته‌ام
آنچه دلم گفت بگو گفته‌ام
شعبدهٔ تازه برانگیختم
هیکلی از قالب نو ریختم
صبح دمی چند ادب آموختم
پردۀ سحر سحری دوختم
مایهٔ درویشی و شاهی درو
مخزن اسرار الهی درو
[Nizami 1960, 36].

Mən ki, bu yeni gülün yaradıcısıyam,
Sənin bağının nəğmə qoşan bülbülüyəm.
Sənin eşqinin yolunda nəfəs çəkirəm,
Sənin kuyində zəng çalıram.
Kimsədən borc qəbul etməmişəm,
Ürəyim onu ki, dedi:- De!- demişəm.
Təzə şəbədə ucaltım,
Yeni qəlibdən bir heykəl yaptım.
Ona sübh üzlü bir neçə ədəb öyrədib,
Səhərin sehrindən pərdə tikdim.
Dərvişliyin və şahlığın mayası ondadır,
İlahi sirlərin xəzinəsi ondadır.

Xələf – şairlər Nizami əsərinin məzmun, ideya və obrazlar, bədii ifadə sistemindəki ən əsas elementləri mənimsəyərək, dövrün estetik tələblərinə uyğun şəkildə öz fərdi istedad, bilik və dünyagörüşlərini nümayiş etdirirdilər. V.M.Jirmunskinin haqlı olaraq qeyd etdiyi kimi, “Dominant fəaliyyət göstərən janrlar çərçivəsində fərdi yaradıcılıq qapanır; artıq janr fərdi unikallığın deyil, sosial xarakterli dünyagörüş və üslubun ifadəsidir” [Jirmunski 1971, 161].

Bu baxımdan, Nizami Gəncəvinin “Məxzənül-əsrar” poemasına cavab olaraq yazılmış Xacu Kirmaninin “Rövzətül-ənvar” (“Nurlar bağçası”) əsərinə daxil olan hekayələrin mövzu zənginliyinə diqqət yetirsək, qatı sufi-fəlsəfi məzmunun bu hekayələrin əsas xarakterik xüsusiyyəti olduğunu görürük. Nizami tərəfindən realist – romantik səpkidə işlənmiş problemlər Xacu tərəfindən yenidən ədəbiyyatın aktual məsələsinə çevrilərək sufi-modernist formada ifadə olunur. Öz sələfi Nizami kimi, Xacu Kirmani də insanı ictimai-əxlaqi yetkinliyə, mərifət sahibi olmağa, həqiqətə doğru yönəlməyə, bu yolda qarşıya çıxan çətinlikləri dəf etməyə, bəşəri xoşbəxtliyə çağırır. Xacunun dərvişlik fəlsəfəsi onun humanizminin tərkib hissəsidir, dövrünün sosial problemlərini və siyasi-fəlsəfi görüşlərini əks etdirir. Şair qələmə aldığı mövzularda öz həyat fəlsəfəsini, gəzib-dolaşdığı ölkələrdə eşitdiyi və görüb-şahidi olduğu düşündürücü əhvalatları qələmə alır.

Onu da qeyd etmək lazımdır ki, sözün həqiqi mənasında sufiyanə ömür sürən Xacu Kirmani özü də dərvişliyin orta əsrlər fəlsəfəsində mövcud tələb və müddəalarına əməl etmişdir. Məlumdur ki, sufizmdə “dərvişlik” insanın yetişdiyi ali, çox uca bir məqamı əks etdirir. Türk alimi Ə.Kabaklının göstərdiyi kimi, bəzi mütəfəkkirlər “o məqamı düşüncə tərzilə olaraq qəbul edərək, onu ideya olaraq təbliğ etmiş, digərləri isə həməən düşüncələrini həyata keçirərək özləri bir

dərviş ömru yaşamışlar” [Kabaklı 1968, 166].

Onu da qeyd edək ki, sufi ədəbiyyatında “dərvişlik” və “cavanmərdlik” eyni mənada işlədilir. Şeyx Əbülhəsən Xəraqani (XI əsr) “Nurul - ülm” əsərində “dərvişlik nədir?” sualına belə cavab vermişdir: “Dərvişlik – üç mənbədən axan bulaqdır. Biri - pəhrizdir (qənaət, yaxud halal-haram gözləməkdir), o biri – yüksək himmət və səxavətdir, digəri isə ali və qadir Allahın yaratdıqlarından asılı olmamaqdır” [Bertels 1962, 254].

Yetkin cəmiyyət, kamil insan yaratmağa yönəldilən bu böyük fəlsəfi məzmun – ənənəyə uyğun olaraq, islam fəlsəfəsi, Qurandan alınma kəlam və hədislər, eləcə də Şərqin ədalət, kəramət, səxavət timsalı olan peyğəmbərlər, şahlar, zadəganlar, filosoflar, şeyxlər, dərvişlər və başqa obrazların həyat və fəaliyyətlərinə bağlı hekayələr vasitəsilə simvolik tərzdə müxtəlif süjetlərdə əks olunur.

Məsələn, Xacu Kirmaninin “Rövzətül-ənvər” poemasının 14-cü məqaləti “Kərəm və səxavət” haqqındadır. Məqalətin məzmunu ilk öncə, İslamda mövcud olan “kərəm” və “səxavət” haqqında fəlsəfi dünyagörüşə söykənir. Əl-əkrəm (الاکرم) – (Kərəm) Allaha aid olan bu kəlam, Onun sonsuz lütf və inayətini bildirir. Qurani-Kərimin “Ələq” surəsində deyilir: “Oxu! Rəbbin böyük kərəm sahibidir. 3. O Rəbbin ki, qələmi tanıtdı. 4. İnsana bilmədiklərini öyrətdi.” [Qurani-Kərim 2005, 597].

Didaktik hissəyə uyğun qurulmuş hekayə “Könül sahibi müsafirin karvanla Hatəm Tainin qəbri önündə dayanması və ondan süfrə istəməsi - Hatəmin kərəminin izharı” adlanır. Məlumdur ki, Hatəm ibn Abdullah ibn Sə`d ab Tai VI əsrin sonu VII əsrin əvvəllərində yaşamış, ərəb tayfaları arasında adı səxavət və kərəm simvolu olaraq şöhrətlənmiş, ölümündən sonra qəbri ziyarətgaha çevrilmişdir. Səxavət və kərəm anlayışı islami düşüncəyə görə, mərhəmətli və səxavətli olan uca Allaha aid xüsusiyyətlərdir. Mərifət sahibləri səxavət və kəramətlərinə görə Allaha yaxın (qərb) olan müqəddəs şəxsiyyətlərdir. Nizami Gəncəvi də öz yaradıcılığında islami humanist məzmunlu kərəm və səxavət anlayışına xüsusi önəm vermişdir. “Məxzənül-əsrar” əsərində bu anlayışları Allaha aid edərək yazırdı:

باغ سخارا چو فلک تازه کرد
مرغ سخن را فلک آوازه کرد

[Nizami 1960, 3].

Səxavət bağını fələk kimi təzələdi,

Söz quşunu göylərə ucaltdı.

Xacu Kirmani öz sələfinin islami-humanist görüşlərini

sufizmin müddəalarına uyğun qurmuş, "Rövzətül-ənvar" poemasına daxil etdiyi hekayə ilə Hatəm Tai haqqında Şərqdə yayılmış süjetləri məzmunca daha da zənginləşdirmişdir. Hekayənin məzmununu tam şəkildə çatdırırıq: "Qəzadan, Hatəm Tainin ömrünə bəla gəldi və o, həyatdan getməyə hazırlaşdı. Tab və taqətdən düşdü. Ölüm atəşi gəldi və canının suyunu apardı. Onun Yusifi (gözəl camalı) uca ağacından düşdü. Vücudunun torpağı yel oldu (dağıldı). Gözləri qarışqa yuvası oldu. Türbəsi Gurun ciltvəgahı oldu. Bir gün bir dəvə karvanı yel qovmuş ot kimi tələsib (əsib) Hatəmin türbəsinə çatdı. Karvan əhlinin arasında bir sirr əhli var idi ki, can gözünü könlündə açmışdı¹. Onun mədəsi qovuş kimi boşaldı (acdı), lakin yemək süfrəsində azuqə yox idi. Gördü ki, səbri xırmandan yelə getdi (səbri tükəndi) üzünü Hatəmin qəbrinə qoydu və dil açıb dualar oxudu: "Ey səxavətlə nəfsin açıq gözünü bağlayan! Səxavət topunu fələyin başına vuran! Əta suyunu Ceyhunun üzünə vuran! Qapın kərəm qapısı kimi şöhrət tapıb. Biz, iki-üç nəfər könül fəqiri sənə qonağın. Öz qonaqlarına səbr buyurma! Fəqirlərinə qonaqpərvərlik elə ki, qəriblərin işi keçsin. Baxmayaraq ki, biz könül bəslərik, amma ə`nam səndədir. Süfrə bizim, kərəm bərəkəti sənindir." O qədər təmanna etdi, yalvardı ki... Bu vaxt karvandan bir yüklü dəvənin nəfəsi kəsildi, yel kimi titrədi, yerə yığılıb nalə etdi. Tez dəvəni kəsdilər. Sarvan neçə-neçə qadına - kişiylə həmən dəvənin ətindən qismət verdi. Karvanda neçə şeyx, neçə gənc süfrə dolu yeməkdən doydu. Bir neçə şəxs Hatəm Tainin qəbrinə tərəf işarə edib "(O) bizi öz dəvəmizə qonaq etdi" - deyər qınadı.

Səhər tezdən dəvə karvanı yola düşdü... Şərq tərəfdən taba gətirilən günəşin istisi yandırır... İşıqızlılıq sovuşdu (hava qaraldı) və iti üzlü isti də keçib getdi.

kalimalar” (“Risolayi Qudsiya”) nomi bilan kitob holiga keltirishi ham bejiz emas va Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”ning Xoja Muhammad Porsoga bag’ishlangan faslida Xoja haqida qimmatli ma’lumotlarni keltirish bilan birga naqshbandiylikning asosiy tamoyillarini mahorat bilan yoritib o’tadi.

Manbalarda naqshbandiylik haqida so’z borganda, haqiqatan ham, shariatning tariqatda muhim ahamiyat kasb etishi ayonlashadi: “Naqshbandiyada tariqatga kirgan darvesh ushbu shartlarga amal qilishi shart: tavba qilish, payg’ambarimizning sunnatlariga amal qilish, *shariatga zid bid’atlardan qochish*, taqvoni kuchaytirishga amal qilish, zulm va nohaqlik qilmaslik, qarzini to’lash, Allohni har lahzada zikr etish” [Typap 1999, 108]. Xoja Muhammad Porso shariat bilan birga tariqat uchun eng muhim jihat sifatida taom yemoq masalasiga to’xtaladi, ya’ni ovqatlanishda me’yorning saqlanishiga urg’u beradi. Bu yerda “yashash uchun, tirik qolish uchun yemoq kerak” degan aqida kelib chiqadi va buni insonning nafsi bilan kurashining zohiriy ko’rinishi sifatida atash mumkin. Husayn Voiz Koshifiy ham ovqatlanish masalasida shunday deydi: “... *hayvonning yeyishi bilan insonning yeyishi orasida farq bo’lishi kerak. Chunki hayvon yeyish uchun yashaydi, odam yashash uchun yeydi. Bu ikki xil yeyishning farqi odobda bilinadi*” [Кошифий 1994, 59].

Tazkiradagi ushbu faslning ifoda ko’lamidagi rang-baranglik, tasavvufiy g’oyalarning mohirlik bilan singdirilishi Xojaning bu boradagi mulohazalari sifatida davom etadi: “*Va manom taqlilida e’tidol tariqi bila ko’shish qilmaq, alalxusus, [shom va xufton namozi orasidagi vaqtda quyosh chiqmasdan oldin, hech kimga bildirmay turmoq kerak]*” [Навоий 1999, 205]. Naqshbandiylik ta’limoti, manbalarga ko’ra, 11 tamoyilga asoslangan bo’lib, ular Yusuf Hamadoniy tomonidan asoslangan *xush dar dam, nazar bar qadam, safar dar vatan, xilvat dar anjuman*; G’ijduvoniy tomonidan ilgari surilgan *yod kard, bozgasht, nigohdosht, yoddosht* hamda Bahouddin Naqshband tomonidan kiritilgan *vuqufi zamoniyy – zamon-vaqtdan ogoh bo’lish, uni asrash, vuqufi adadiy – son-adaddan ogoh bo’lish, tavhidga etish, vuqufi qalbiy – qalb holatidan ogoh bo’lish* [Элов, Наврӯзова, Юнусова 2020, 70].

E’tibor qilsak, “*manom taqlilida e’tidol tariqi bila ko’shish qilmaq*” jumlası vuqufi zamoniyy – zamon-vaqtdan ogoh bo’lish, uni asrash tamoyiliga mos keladi. Negaki **manom** – yotoqxona, uxlash joyi hamda tasavvufiy istiloh sifatida tush ko’rish, tushida ko’rish, ba’zi bir holatlar tush orqali namoyon bo’lishini anglatadi [Абдулхайров 2018, 189]. Bu yerda esa umumiy ma’noda aynan uyquning

me'yorda bo'lmog'i, shom va xufton namozi oralig'idagi qorong'ilikda, tong sahar quyosh chiqmasdan oldin uyg'onish haqida gap ketmoqda. Albatta, bu vaqtning qadriga yetish, g'aflatdan qochish, har daqiqani qimmatli deb bilib, undan oqilona foydalanishga undovchi chaqiriq sifatida keltiriladi va har bir harakat, xususan, sahar uyg'onish ham insonning o'z xohish-irodasiga ko'ra, chin dildan, ixlos bilan amalga oshirilishi kerakligi uqtiriladi: "Tavajjuh bila o'ziga furu bormoq va xavotir nafi alal-xusus tamanniy xotiri hol va moziy va mustaqbal nisbatig'a yaxshi muassirdir [qalbdan pardalarni ko'tarish uchun]" [Навоий 1999, 206].

Ushbu faslda keltirilgan yana bir tasavvufiy qarashni o'zida singdirgan ahamiyatli o'rin shuki, Navoiy Xoja Muhammad Porsoning til va qalb sukuti borasidagi mulohazalarini keltiradi. Hazrat Naqshbandning *vuqufi qalbiy* – qalb holatidan ogoh bo'lish falsafasi ana shu mulohazalarda o'z aksini topgan desak, xato bo'lmaydi. Tazkirada keltirilishicha, "*til behuda gapdan sukut qilsa, qalb Alloh bilan tillashadi*" [Навоий 1999, 202].

Xojaning yaqin as'hoblaridan birining "tariqatni nima bila topsa bo'lur?" degan savoliga berilgan javoblarning har biridan naqshbandiya ta'limotining bir tamoyili zuhur etib turibdi. Behuda gaplardan tiyilish, Allohni zikr etish bilan bog'liq bu o'rinlar naqshbandiylikning beshinchi, ya'ni *yod kard – Tangrini eslash, zikr etish tamoyiliga* to'g'ri keladi. Fikrimizning tasdig'i sifatida manbaga yuzlanamiz: "Yod kard: eslash, zikr etish, ya'ni Allohni yod etib, mosivodan ko'ngilni uzish; naqshbandiyada bu zikrning usuli quyidagichadir: murid o'zini huzur ichra shayxining ko'ngil ro'parasida tasavvur qilib, ko'zi-og'zini yopadi, tilini tanglayiga yopishtirib, tishlarini bir-biriga jipslab, nafas olmay, xokisorlik bilan qalban kalimayi tavhidni zikr qiladi" [Typap 1999, 110].

Biz yuqorida keltirgan misoldagi "qalbning Alloh bilan tillashishi" deganda tasavvufiy nuqtayi nazardan, "zikr keltirmoq" ma'nosi anglashiladi. Manbalarga ko'ra, zikr ikki guruhga bo'linadi: 1. Sokin, ya'ni xufyona zikr. Naqshbandiyaga xos. 2. Ovozli zikr. Qodiriya va boshqa tariqatlarga xos [Kara 1922, 36].

Navoiy Xojaning fikrlarini berishda davom etadi. Tilning behuda gaplardan sukut qilishi lozimligi bilan bir qatorda qalbning dunyo andishalaridan, nafsidan sukut qilishi orqali Haqqa yaqinlashish borasida ibratli fikrlarni yozadi. Bu esa, albatta, o'quvchida tazkirani o'qish davomida shunday ulug' shayxlarning ibratli hayot yo'lidan boxabar bo'lish bilan birga, naqshbandiylik tariqatining insonni ma'naviy barkamollikka undovchi, gunoh

ishlardan qaytaruvchi, qalbni dunyoning tashvishlaridan ozod qiluvchi, ruhiy yengillikni ta'minlovchi yo'l ekanligidan ogoh etadi. Faslda keltirilgan jazba va suluk istilohlari ham alohida tahlilni talab qiladi. Navoiy shunday yozadi:

"Maqsud bizning zuhurimizdin aning vujudidir va anga ikkalasi tariyq bilaki, jazba va suluk bo'lg'ay, tarbiyat qilibman [Навоий 1999, 202].

Avvalo, jazba so'zining lug'aviy hamda tasavvufiy ma'nolariga e'tibor qarataylik. Bu haqda tasavvufshunos olim N.Komilov shunday deydi: "...har bir sohada bo'lganiday, so'fiylikning ham o'ziga xos iste'dodi bor. Buni tasavvufda jazba deb yuritganlar. Jazba – bu insondagi alohida ilohsevarlik mayli, ruhiy va tafakkuriy-shuuriy bir tavajjuhdir" [Комилов 2009, 32]. Adabiyotshunos olim I. Haqqul Navoiy ijodida, xususan, "Nasoyim ul-muhabbat"da ishq va komillik jazbasi haqidagi mulohazalarini bayon etar ekan, jazba va majzub so'zlarini quyidagicha izohlaydi: "majzub – jazba odami. Jazba esa ko'pincha sulukka bog'liq bo'lmagan va sulukdan oldin paydo bo'ladigan holat" [Хаққул 2022, 30]. Demak, Jazba solikning ko'nglidagi ilohiy ishq, mayli bo'lsa, suluk tariqat yo'lidir.

Xo'sh, asarda Hazrat Bahouddinning Xoja Muhammad Porsoga qarata aytilgan yuqoridagi fikrlarida qanday ma'no bor? Navoiy bu o'rinda qanday tasavvufiy g'oyani ilgari surgan bo'lishi mumkin? Ma'lumki, Bahouddin Naqshband hazratlari o'zidan keyingi davomchi, tariqat yo'lidagi yo'lboshchi sifatida Xoja Muhammad Porsoni ko'radi va bu maqomni unga topshiradi. Bu jarayon murid uchun muhim bir davr bo'lib, biz yuqorida aytib o'tganimizdek, ustozining zohiriy va botiniy holatining muhimligini ham anglatadi. Murid bu davrda o'z nafsidan kechadi va "men"ligini tubdan isloh qiladi. Bu borada I. Haqqulning quyidagi mulohazalarini keltirish mumkin: "Qadim Sharqda ma'naviy valodat – ikkinchi tug'ilish deyilgan bu hodisaga Iso alayhissalomning "ikki bora tavallud topmagan malakut samosiga yuksalolmaydi" degan gapi asos bo'lgan" [Хаққул 2022, 399].

"Bizning zuhurimizdin oning vujudidir" jumlasini orqali ham aynan ana shunday holat, Xoja Muhammad Porso uchun "ma'naviy valodat – ikkinchi tug'ilish" holati yuz bergan deyish mumkin. Bu yo'lda esa jazba muhim ahamiyatga ega. Negaki, "...agar jazba yetarli bo'lmasa, xohish bo'lgani bilan ko'zlangan maqsadga erisholmasdan, yarim yo'lda qolish mumkin" [Комилов 2009, 33]. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, vafoti yaqinlashgan Hazrat Bahouddinning as'hoblariga qarata aytilgan "Bizni ko'rishga kimda orzu paydo

bo'lsa, Xoja Muhammad Porsoga qarasin" mazmunidagi yuqoridagi jumlasini Xoja Muhammad Porso uchun ma'naviy qayta tug'ilish kabi bir holat edi.

Tazkiradagi Xoja Ubaydulloh Ahror haqidagi fasl uslubiy jihatdan Xoja Muhammad Porso haqidagi qismdan farq qiladi. Ular uslubidagi o'ziga xoslik sifatida tasavvufiy qarashlarning ifodasini keltirishimizga sabab shuki, Xoja Ubaydulloh Ahror zikrida Navoiy faqatgina ma'lumotlarni ketma-ketlikda izchillik bilan yoritish usulini tanlagan va naqshbandiya g'oyalariga urg'u bermagan. Navoiy ushbu faslda, avvalo, Xoja Ubaydulloh nomining tazkirada zikr etilishi sababi va manbasi haqida chuqur to'xtaladi. Jomiy "Nafohat ul-uns"ni bitar vaqtida tazkiraga nomlari kiritilgan shayxlar orasida faqat uning hayot bo'lganligini ta'kidlaydi.

Bilamizki, Shayx Sa'diddin Koshg'ariy Jomiyning tariqatdagi piri. Sa'diddin Koshg'ariy 1456-yilda vafot etgach, Jomiy xojagon tariqatining boshqa namoyandalari emas, Xoja Ahror Valiyga intiladi va o'ziga ma'naviy pir deb qabul qiladi [Valixojayev 2004, 51]. Ana shu sharif silsilaning davom etib cho'zilishini umid qilgan holda, Navoiy Xoja Ahror Valiy hazratlarining nomlarini zikr etishning sababini quyidagicha izohlaydi: *"...bu majmuaki, muning jam'idin maqsud bu toifaning maorifining zikri va manoqibining nashridir, alarning zikridin xoli bo'lg'ay. Lojaram bu sharif silsilaning manoqibi sharhin va ahvolin alarning ba'zi qudsiya kalimotlari bilaki, maorif nigorxonalarining raqamzadasi bo'lubtur, miskiyat ul-xitom qilildi"* [Навоий 1999, 211].

Ushbu ma'lumotlardan so'ng, Navoiy Jomiyning Xoja Ubaydulloh haqida salmoqli so'z yuritganligini, qolaversa, bu ma'lumotlar o'zi uchun ham avval noma'lum ekanligini aytib, shayxning tavallud topgan joyi, ota-onasi, bolalik yillari haqida quyidagilarni keltiriladi: *"Alarning mavlidi Toshkanddir va otalari darvesh kishi ermish va ona tarafidin hamonoki, Shayxi Tahirki, ul viloyatda muta'yyin shayx ermish, anga yetarlar va o'zlarida bu ish choshnisi tufuliyat ayyomidin bor emish. Yigit bo'lg'ondin so'ngrakim, sayohatga qadam qo'yubdurlar"* [Навоий 1999, 212].

Ma'lumotlar tizimli ravishda keltirilishda davom etadi. Endi Xoja Ubaydullohning sayohatga qadam qo'yanlaridan keyingi davr haqida so'z ketadi, ya'ni bu davrda shayxning ijtimoiy faoliyati, sayohatlari, kimlarning xizmatida bo'lganligi, ustozlari haqidagi ma'lumotlar qalamga olingan. Navoiy Xoja Ubaydulloh Ahrorning Samarqandga ilk safaridan, ya'ni tog'asi xoja Ibrohim bilan shahardagi mavlono Qutbiddin madrasasiga kelishidan tortib, mavlono

Ya’qub Charxiydan ilm-u irshodlar topgunigacha bo’lgan davrni bir-ikki jumla orqali yoritib o’tadi. B. Valixo’jayev “Buyuk ma’naviy murshid” nomli risolasida Muhammad Qozining “Silsilat ul-orifiyn” asaridagi ma’lumotga tayangan holda Xoja Ahrorning Samarqandga ilk safarini taxminan 1427-yilga, mavlono Ya’qub Charxiy siymosida o’zi izlagan ma’naviy pirni topish davrini 1433-1434-yillarga to’g’ri kelishini yozadi [Valixo’jayev 2004, 21]. Taxminan yetti yillik davr tazkirada qisqacha bayon etilgan va quyidagi shaxslar nomi zikr etilgan:

1. Mirsayid Qosim Anvor.
2. Shayx Bahouddin Umar.
3. Shayx Zaynuddin Havofiy.
4. Mavlono Sa’diddin Koshg’ariy.
5. Mavlono Muhammad Asad.
6. Xoja Muhammad Porso.
7. Xoja Abu Nasr Porso.
8. Nizomiddin Xomush.
9. Mavlono Ya’qub Charxiy.

Ushbu faslda Xoja Ahror hayoti va faoliyati xronologik ketma-ketlikda yozilgan. Biroq shaxslar nomi to’liq ketma-ketlikda keltirilgan deya olmaymiz. Buni Xoja Ahror hayoti va faoliyati haqida ma’lumot beruvchi barcha manbalar tasdiqlaydi. Xususan, B. Valixo’jayev hazrat Xojaning Samarqandga ilm olish uchun kelgani, u yerda dastlab madrasa hujralaridan birida yashab, o’qishni boshlaganligi va davom ettirolmay betob holda yotganda, Sa’diddin Koshg’ariy uning qoshiga kelib, Sayid Qosim Anvorning Samarqandga kelgani va uning ziyoratiga borishi lozimligini aytganligini yozadi [Valixo’jayev 2004, 22]. Demak, Xoja Ahror avval Sa’diddin Koshg’ariy bilan, biroq vaqtdan so’ng esa mavlono Qosim Anvor bilan uchrashgan.

Yana shuni ta’kidlash kerakki, Navoiy Xoja Ahror hayoti davomida uchrashgan, suhbatlarida bo’lgan mutasavvuflar nomini keltirishda avval Hirot mashoyixlari, keyin Movarounnahr, ya’ni Samarqand, Buxoro zaminida yashagan shayxlarni sanab o’tadi: *“Xuroson mashoyixidin Hazrat Mirsayid Qosim Anvor q. s. xizmatlariga yetibdurlar va Shayx Bahouddin Umar r. t. mulozamatig’a musharraf bo’lubturlar va Shayx Zayniddin Havofiy suhbatiga yetibdurlar... va Movarounnahr mashoyixidin Xoja Muhammad Porso mulozamatig’a yetibdurlar va Xoja Abu Nasr suhbatig’a yetibdurlar va Mavlono Nizomiddin Xomush bila suhbat tutubdurlar...”* [Навоий 1999, 213].

Ma’lumki, Xoja Ahror avval Samarqandga, so’ng Buxoro orqali

Hirotda safar qiladi, undan keyin esa yana Shoshda qo'nim topadi. Shayx Sa'diddin Koshg'ariy bilan oldin ko'rishganligiga qaramasdan, uning nomini Mirsayid Qosim Anvor, Shayx Bahouddin Umar, Shayx Zaynuddin Havofiy kabi hirotlik allomalar nomidan keyin kelishi esa yuqoridagi fikrimizning tasdig'i bo'la oladi.

Navoiy Xoja Ahror haqidagi faslda endi uning ijtimoiy mavqeyi, yuksak ilmi nuqtayi nazaridan jahon miqyosida tutgan o'rniga to'xtaladi. Bu borada quyidagi jumlarlar ahamiyatlidir: *"Yo'qki, yolg'uz Movarounnahr salotini, balki Xuroson va Iroq va Ozarbayjon, hattoki bir soridin, Rum va Misrg'acha va bir soridin Xito va Hindg'acha barcha muluk va salotin o'zlarin Xojaning mahkumi hukmi va ma'muri farmoni tutarlar erdi..."* [Навоий 1999, 212].

Keyingi o'rinda esa shayxning vafoti sanasi, yoshi haqida so'z boradi. Roqim Samarqandiyning "Tarixi kasira", Muhammad Qozining "Silsilat ul-orifiyn", Herman Vamberining "Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi" va boshqa manbalarga tayanib, B. Valixo'jayev Xoja Ahror vafotini hijriy 895, milodiy yil hisobi bo'yicha 1490-yilning fevral oyiga to'g'ri kelishini aytadi. Biroq Navoiy tazkirasida "Sakkiz yuz to'qson to'rtida dunyodin o'tdilar" tarzida keltiriladi. Navoiy fasl so'ngida bu ulug' shayxning yo'lidan borgan, ilm-u irshod yo'lidan bahramand bo'lgan bir qancha shogirdlarning ham nomini tilga oladi va ularning juda ko'pligini ta'kidlash uchun quyidagi jumlani keltiradi: "...yana dog'i darveshlar bor erdilar va muxtasarda munchasi sobit bo'ldi" [Навоий 1999, 213].

Tahlillardan anglashiladiki, tazkiradagi ilmiy uslubga xos ma'lumotlarning tizimlashtirilishi va sistemali tarzda bayon etilishi Xoja Ubaydulloh Ahror haqidagi faslda yaqqol namoyon bo'lgan va Xoja Muhammad Porso haqidagi fasldan ana shu jihat bilan ham farqlanadi.

Xulosa

Tahlillardan kelib chiqib, quyidagicha xulosalarga ega bo'lamiz:

1. Navoiy Xoja Muhammad Porso haqidagi faslda tasavvufdagi pir va murid munosabatlari, ularning holati, burch va mas'uliyatlari borasidagi mulohazalarni Hazrat Bahouddin Naqshband va Xoja Porso misolida ko'rsatadi.

2. Naqshbandiylikning 11 tamoyili, ya'ni Yusuf Hamadoniy tomonidan asoslangan *xush dar dam, nazar bar qadam, safar dar vatan, xilvat dar anjuman*; G'ijduvoniy tomonidan ilgari surilgan *yod kard, bozgasht, nigohdosht, yoddosht* hamda Bahouddin Naqshband

tomonidan kiritilgan *vuqufi zamoni*y – *zamon-vaqtdan ogoh bo'lish, uni asrash, vuqufi adadiy – son-adaddan ogoh bo'lish, tavhidga etish, vuqufi qalbiy – qalb holatidan ogoh bo'lish* kabilarning aksariyati, xususan, vuqufi qalbiy va vuqufi zamoni y singari tamoyillar Xoja Porsoning mulohazalari sifatida keltirib o'tilgan.

3. Tazkiradagi Xoja Ubaydulloh Ahror zikrida yuqoridagi qarashlar kuzatilmaydi. Ma'lumotlar tizimli ravishda ketma-ketlikda keltiriladi.

Adabiyotlar

- Алишер Навоий, 1999. *Насойим ул-муҳаббат*. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 17-жилд. Тошкент: Фан.
- Абдулхайр, Манзар. 2018. *Навоий асарларининг изоҳли луғати*. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, Давлат илмий нашриёти.
- Комилов, Н. 2009. *Тасаввуф*. Тошкент: Movarounnahr - O'zbekiston.
- Kara, M. 1922. *Tasavvuf ve tarikatlar*. Fethiye/Bursa.
- Yusupova, D. 2013. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi (Alisher Navoiy davri)*. Toshkent: Akademnashr.
- Кошифий, Хусайн Воиз. 1994. *Футувватномаи Султоний*. Форс тилидан Н.Комилов таржимаси. Тошкент.
- Турар, К. У. 1999. *Тасаввуф тарихи*. Т.: Истиқлол.
- Элов, Ж. Р, Наврўзова, Г. Н, Юнусова, Г. С. 2020. *Қодирия ва нақшбандия таълимоти: Таҳлил ва тавсиф*. Тошкент: Nurafshon business.
- Ҳаққул, И. 2022. *Истиқлол даври навоийшунослиги*. Ўттиз жилдлик. Ўн биринчи жилд. Навоийга қайтиш. 1-китоб. Тошкент: Tamaddun.
- Valixo'jayev, B. 2004. *Buyuk ma'naviy murshid*. Toshkent: Fan.

The mention of Khoja Muhammad Porso and Khoja Ubaydullah Ahror in “Nasoyim ul-muhabbat”

Gavhar Muftullayeva¹

Abstract

The style of a work is created based on the author's goals and thoughts at any given time. When we assess the works from the time of Navoi, specifically literary samples belonging to the 15th-16th centuries, and categorize them as belonging to a single era's style, we approach the issue unilaterally. Indeed, each of the works created by Navoi possesses its own style. The author can elevate to the level of a main character, but the differences in word usage and the expression of attitudes towards surrounding events reveal their stylistic distinctiveness. For example, there is a noticeable difference between the style of brief and concise expression of events in historical works and the emotionality found in elegies. Thus, the concept of «author's style» has a general aspect, but it also divides into specific directions, indicating that each creative work has its own style and that even within a single work, there may be different stylistic features present. In this respect, the chapters about Khoja Muhammad Porso and Khoja Ubaydulloh Ahror in the «Nasoyim ul-Muhabbat» also exhibit stylistic peculiarities, one of which could be considered the expression of Sufi ideas. This article comparatively analyzes the incorporation of Naqshbandi principles in these chapters and highlights the places where Sufi ideas are advanced.

Key words: *pir, murshid, khush dar dam, nazar bar qadam, safar dar vatan, khilvat dar anjuman, yod kard, bozgasht, nigohdosht, yoddosht, vuqufi zamoni, vuqufi adadiy – being aware of numbers, vuqufi qalbiy, zikr, tawhid, wahdat al-wujud, spiritual birth.*

References

- Alisher Navoiy, 1999. *Nasoyim ul-muhabbat*. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 17-jild. Toshkent: Fan.
- Abdulxayr, Manzar. 2018. Navoiy asarlarining izohli lug'ati. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, Davlat ilmiy nashriyoti.
- Komilov, N. 2009. *Tasavvuf*. Toshkent: Movarounnahr - O'zbekiston.

¹ Gavhar Y. Muftullayeva – basic doctoral student at Navoi State University.

E-mail: gavharmuftullaeva@gmail.com

ORCID ID: 0009-0003-0632-0371

For citation: Muftullayeva, G. 2024. The mention of Khoja Muhammad Porso and Khoja Ubaydullah Ahror in “Nasoyim ul-muhabbat”. *Golden scripts* 3: 62 – 75.

- Yusupova, D. 2013. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi (Alisher Navoiy davri)*. Toshkent: Akademnashr.
- Koshifiy, Husayn Voiz. 1994. *Futuvvatnomai Sultoniyy*. Fors tilidan N.Komilov tarjimasi. Toshkent.
- Turar, K. U. 1999. *Tasavvuf tarixi*. Toshkent: Istiqlol.
- Elov, J. R, Navro'zova, G. N, Yunusova, G. S. 2020. *Qodiriya va naqshbandiya talimoti: Tahlil va tavsif*. Toshkent: Nurafshon business.
- Kara, M. 1922. *Tasavvuf ve tarikatlar*. Fethiye/Bursa.
- Haqqul, I. 2022. *Istiqlol davri navoiyshunosligi*. O'ttiz jildlik. O'n birinchi jild. Navoiyga qaytish. 1-kitob. Toshkent: Tamaddun.
- Valixo'jayev, B. 2004. *Buyuk ma'naviy murshid*. Toshkent: Fan.

LINGVISTIKA

LINGUISTICS

Qarluq lahjasining o'rganilish tarixi

Umarjon Qodirov¹

Abstrakt

Turkiy tillar ichida turli lahjalari va shevalarining xilma-xilligi bilan alohida ajralib turuvchi o'zbek tili o'zining boy va murakkab tarixiga ega. Bundan salkam ming yil oldin Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devonu lug'otit turk" asarida "Xoqoniya turkchasi" deya nomlagan qarluq lahjasi esa o'zbek tilining uchta asosiy lahjasidan biri bo'lib, u o'zbek adabiy tili uchun tayanch lahja vazifasini o'tagan.

Maqolada XX asrning 20-yillaridan boshlab 80-yillarning o'rtalarigacha ushbu qarluq lahjasi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar haqida so'z yuritiladi. 70–80 yillik vaqt oralig'idagi rus va o'zbek tilshunoslari, dialektologlarining ilmiy ishlariga bugungi kun nuqtayi nazaridan qarab baho beriladi, tahlil qilinadi. Qarluq lahjasining O'zbekiston davlati hududi bo'ylab tarqalish ko'lami – lahja areallari xususida ham ma'lumotlar berib o'tiladi.

Kalit so'zlar: *Qarluq, o'g'uz, qipchoq, lahja, areal, tasnif, turkiy, dialekt, sheva.*

Kirish

O'zbek xalqi o'zining tarixiy shakllanish bosqichlarida juda murakkab etnogenetik jarayonlarni boshidan kechirdi. Bir tarafdin o'ziga qo'shni bo'lgan tojik xalqi bilan ming yillar davomida yonma-yon yashash, arablar istilosi va arab tilining bu o'lkalarda yuz yillar davomida ilm-fan tili sifatida iste'molda bo'lishi, mo'g'ullar istilosi, temuriylar, shayboniylar hukmronligi davrida turkiy tilning yana hokim mavqega ega bo'lishi kabi omillar o'zbek tili lahjalarining, xususan, qarluq lahjasining ham lug'at tarkibi, gap qurilishi, fonetikasi va morfologiyasida o'z izlarini qoldirgan.

Tarixiy manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, milodning VI–VIII asrlarida boshlangan etnogenetik jarayonlar XI asrga kelib qarluq-chigil-uyg'ur til birligining shakllanishiga olib keldi. XII as-

¹ Qodirov Umarjon Akramjon o'g'li – tadqiqotchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: kodirovumarjon@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0001-5768-0789

Iqtibos uchun: Qodirov, U. 2024. "Qarluq lahjasining o'rganilish tarixi". *Oltin bitiglar* 3: 76 – 89.

rda Movarounnahr hududining juda katta qismini egallagan qoraxoniylar davlatida hokim mavqega ega bo'lgan turkiy tilning asosini ham Mahmud Koshg'ariy "xoqoniya turkchasi..." deb nomlagan qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi tashkil qilar edi.

Hozirgi kunda o'zbek adabiy tilining tayanch lahjasi bo'lgan qarluq lahjasining zamini XI asrda shakllanib bo'lgan edi va o'tgan salkam ming yillik davrda turli o'zgarishlarga uchragan holda bugungi kungacha yetib kelgan. Ushbu lahja o'z tarkibida o'g'uz va qipchoq lahjalariga xos unsurlarni ham olgan. Qarluq lahjasi bir necha guruh shevalarni o'zida jamlagan bo'lib, uning yetakchi qismini Farg'ona-Toshkent guruh shevalari tashkil qiladi va u hozirgi kunda o'zbek adabiy tilining me'yorlarini belgilovchi lahja hisoblanadi.

Asosiy qism

Turkiy tillarning o'g'uz, qipchoq va qarluq lahjalaridan tashkil topgani qadimdan ilmga ma'lum bo'lgan. O'g'uz va qipchoq lahjalari qadimda ham shu nom bilan atalgan. Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devonu lug'otit turk" asarida o'g'uz va qipchoq lahjalarini aynan shu nom bilan ataydi. Hozirda biz qarluq lahjasi deb nomlayotgan lahjani esa "xoqoniya turkchasi" deb nomlaydi: "Tillarning yengili o'g'uzcha, eng to'g'risi, yaxshisi yag'ma, tuxsi kabilarning tili va shuningdek, Ila (Ili), Ertish (Irtish), Yamar, Etil (Volga) vodiylaridan uyg'ur shaharlarigacha bo'lgan joylarda yashovchilar tilidir. Bularning ichida eng ochiq va ravon til – xoqoniya o'lkasida yashovchilarning tilidir... Shahar o'rtasida turuvchilar xoqoniya turkchasida so'zlaydilar..." [Кошғарий 2017, 25].

Mahmud Koshg'ariy tomonidan "Xoqoniy turkchasi" deb nomlangan til birligi tarixiy-lingvistik nuqtayi nazardan aynan qarluq-chigil-uyg'ur til birligining o'zi ekanligini professor V.V.Reshetov ham ta'kidlab o'tgan [Решетов 1960, 38].

O'zbek tili lahjalarini ilmiy asosda o'rganish ishlari XX asrning 20-yillaridan boshlangan. Rus tilshunosi, professor Ivan Ivanovich Zarubin (1887–1964) o'zbek tili lahjalarini quyidagi to'rt guruhga bo'ladi:

1. Xiva lahjasi.
2. Farg'ona lahjasi.
3. Toshkent lahjasi.
4. Samarqand-Buxoro lahjasi [Зарубин 1925, 14].

I.I.Zarubinning tasnifida o'zbek tilining asosiy lahjalaridan bo'lgan qipchoq lahjasi e'tiborga olinmagan. Shunday bo'lsa-da, uning ishi o'zbek tili lahjalarini tasniflashda dastlabki qadam sifatida ahamiyatlidir.

Akademik Konstantin Konstantinovich Yudaxin (1890-1975) o'zbek tili lahjalarini dastlab tasniflaganda uning tojik tili-ga bo'lgan munosabati hamda singarmonizmni saqlash darajasiga ko'ra quyidagi to'rt guruhga ajratadi:

1. Asl turkiy tovush sistemasi va singarmonizmni saqlagan o'zbek shevalari.

2. O'z tovush tarkibini qisman o'zgartirgan, singarmonizmni yo'qotgan shevalar.

3. Eron tili unlilar sistemasini saqlagan shevalar.

4. O'zbek va tojik tillarida so'zlashadigan tojik shevalari.

Keyinroq K.K.Yudaxin o'zbek tili lahjalari bilan chuqurroq tanishib, o'zining dastlabki tasnifiga o'zgartirishlar kiritadi hamda o'zbek tili lahjalarini quyidagi besh guruhga bo'ladi:

1. Toshkent lahjasi. 2. Farg'ona lahjasi. 3. Qipchoq lahjasi. 4. Xiva (Xiva-o'g'uz) lahjasi. 5. Shimoliy o'zbek shevalari [Юдахин 1929, 115].

Professor Yevgeniy Dmitriyevich Polivanov (1891-1938) o'zbek shevalarini tadqiq qilishda ko'p ishlarni amalga oshirdi. Olim o'zbek tili shevalarini tasniflashda ularda yuz bergan barcha fonetik o'zgarishlarni turkiy bo'lmagan etnik qatlamlar ta'siri bilan izohla-gan holda, ikkita katta guruhga: eronlashgan va eronlashmagan guruhlariga ajratadi. Shundan so'ng Y.D.Polivanov o'zbek tili lahjala-rini quyidagi uch qismga bo'ladi:

1. Turkiy tillarning "janubiy-sharqiy" yoki "chig'atoy" guruhi.

2. Turkiy tillarning "janubiy-g'arbiy" yoki "o'g'uz" guruhi.

3. Turkiy tillarning shimoliy-g'arbiy yoki "qipchoq" guruhi.

Y.D.Polivanov tasnifida qarluq lahjasi "janubiy-sharqiy" yoki "chig'atoy" lahjasi deb nomlangan.

U chig'atoy o'zbeklarini O'rta Osiyodagi eng qadimgi o'troq-lashgan qabilalar sifatida baholaydi. Ular, ya'ni chig'atoy o'zbeklari, Polivanovning fikricha, O'rta Osiyoning eron tilli aholisi bilan bo'lgan iqtisodiy kurashda g'olib chiqib, O'zbekistonning eng muhim sha-harlarini qo'lga kiritgan.

Y.D.Polivanov o'zbek tilining bu lahjalarini o'z ichida ham bir necha guruhlariga bo'ladi. Masalan, Chig'atoy lahjasini quyidagi guruhlariga ajratadi:

1. Toshkent va uning atrofidagi qishloq shevalari.

2. Marg'ilon-Qo'qon shevalari.

3. Andijon-Shahrixon shevalari.

4. Uyg'urlashgan Namangan va unga yaqin qishloq shevalari.

5. Shimoliy o'zbek shahar shevalari (Turkiston, Chimkent).

Qipchoq lahjasini esa Polivanov quyidagi guruh shevalardan tashkil topgan, deb ta'kidlaydi:

1. O'rta Xorazm (Gurlan, Bog'ot tumanlari va Shobboz shevalari).
2. Shimoliy Xorazm (Xo'jayli, Qipchoq, Qo'ng'iroq tumanlari shevalari).
3. "O"lovchi tip (Samarqand viloyatidagi qozoq-nayman, Farg'ona-qoraqalpoq shevalari).
4. Qurama shevalari (Ohangaron vodiysidagi qurama shevalar).
5. Shimoliy o'zbek shevalari (Turkistondagi Suzoq va Chalaqo'rg'on qishloq shevalari (Qozog'iston).
6. O'rta o'zbek (qirq shevalari va boshqalar).
7. Janubiy o'zbek shevalari.

Y.D.Polivanov o'zbek tilining uchinchi lahjasi – o'g'uz lahjasini ikki guruh shevalardan tashkil topgan, deb hisoblaydi:

1. Janubiy Xorazm (Xiva, Yangi Urganch, Shovot, G'azovot, Hazorasp, Yangiariq, Xonqa) guruh shevalari.

2. Shimoliy o'g'uz guruhi (Iqon-Qorabuloq) shevalari.

Professor Y.D.Polivanov o'zbek tili shevalarini tasniflashda ularning eronlashganligi jihatini asosiy o'lchov sifatida oladiki, bu narsa keyinchalik o'zbek tilshunos olimi, professor G'ozzi Olimning jiddiy tanqidlariga sabab bo'lgan.

G'ozzi Olim professor Polivanovning o'zbek shevalari tasnifi-ni tanqid qilar ekan, jumladan, shunday deydi: "Bir tilning o'zgarish, o'sish faktorini faqat tashqaridan izlash, albatta, to'g'ri emas; hodisalarning (xoh u tabiiy bo'lsin va xoh ijtimoiy bo'lsin) o'suviga va o'zgaruviga asosiy sabab tashqarida emas, balki u hodisaning o'z ichidagi qo'zg'alishidadir..." [Q]azi Alim Junus 1935, 20].

G'ozzi Olim tasnifida Qarluq lahjasi "Turk-barlos" lahjasi" deb nomlangan. Uning aytishicha, bu lahja Temur va temuriylar davrida hokim mavqega ega bo'lgan. Bu lahja vakillari O'zgan, Andijon (Jalaquduq va Marhamat tumanlarida), O'smat (Jizzax tumanida), Urgut (Qoratepa, Taxtaqoracha), Kitob (Qashqadaryo), Qoratos (Tojikiston) atrofida yashovchi Turk-Barlos qabilasining jonli tili bo'lib, Chig'atoy adabiy tiliga asos bo'lgan. G'ozzi Olimning aytishicha, melodning VI asrida O'rta Osiyoda tuzilgan kuchli Turk davlatida ham ushbu lahja hokim mavqeda bo'lgan. Kultakin va uyg'ur yozuvidagi obidalarda ham bu lahja elementlari yetakchilik qiladi. Mo'g'ullar istilosidan keyin "Chig'atoy tili" nomini olgan. Milodiy VI asrdan XIV asrgacha bo'lgan davrda asosan ikki lahjani o'z ichiga ol-

gan. Bularning biri ʔ(z) lahjasi, ikkinchisi esa “d” lahjasi edi. Kulta-kin obidasining, uygʻur yozuvlarining, Qoraxoniylarning adabiy tili, Qutb Xorazmiy “Xusrav va Shirin” asari tili, Rabgʻuziyning “Qisasi anbiyo” asari tili ʔ (z) lahjasiga mansubdir.

Zamaxshariy tomonidan tuzilib, Otsiz Xorazmshoh oʻgʻliga bagʻishlangan “Muqaddimatul adab” lugʻatining turkchasi, 1930-yilda Bekjon Rahmonov tomonidan Xorazmda topilgan Sayyid Ota manqabasiga oid bir asar esa “d” lahjasiga oid asarlar sirasiga kiradi.

Gʻozi Olim Ahmad Yassaviyning “Hikmat” asari ham “d” lahjasiga oid, degan ehtimolni aytadi, lekin qatʻiy fikr bildirmaydi. Biroq hozirda mavjud boʻlgan “Hikmat” nusxalarining tili asl “Hikmat” tili emasligini qatʻiy aytadi. Moʻgʻul istilosidan keyin “y”li turk-barlos lahjasi ʔ ← d tillariga tayanib oʻsgan adabiy tilni yengib, temuriylar davrida Oʻrta Osiyoda hokim mavqega ega tilga aylanadi.

XVI asr boshida temuriylar inqirozidan soʻng hokimiyat tepasiga kelgan qipchoq shevasida soʻzlashuvchi oʻzbeklar (shayboniylar) turk-barlos tilini adabiy til sifatida qabul qildilar.

Gʻozi Olim oʻzbek davlatining markazi (Oltin Oʻrda nazarda tutiladi) Saroy shahrida boʻlgan davrlarda ham (XII–XIV asrlar) saroy ahli va zodagonlar bu lahja bilan tanish boʻlganlarini taʼkidlaydi [Qʻazı Alım Junus 1935, 20]. Uning aytishicha, Oltin Oʻrda hududida ʔ (z) lahjasida yozilgan Qutbning “Xusrav va Shirin” asari, “y” lahjasida yozilgan Xorazmiyning “Muhabbatnoma”si va Toʻxtamishxon yorligʻi qipchoq-oʻzbek yozuvchilarining turk-barlos adabiy tilini tatbiq qilishdagi dastlabki tajribalaridan boʻlgan.

Gʻozi Olim turk-barlos tilining “y”li variantini yangi adabiy til, “d”li variantini esa eski adabiy til deb ataydi. “Miftohul-adl” va Navoiy tilidagi ʔ ← d lanishlar oʻsha eski tilning izlari ekanligini taʼkidlaydi.

Bu lahjada soʻzlashuvchilar Toshkent, Qoʻqon, Namangan, Andijon, Margʻilon shaharlari va tumanlarida yashaydilar. Samarqand, Zarafshon, Buxoro va Qashqadaryoda ham bu lahja vakillari mavjud boʻlsa-da, ozchilikni tashkil qiladi. Qozogʻistonning Turkiston, Chimkent, Sayram shaharlarida, Qirgʻizistonning Oʻsh, Oʻzgan shaharlarida yashovchi xalq ham shu lahjada soʻzlashadi. Afgʻonistonning Balx, Qunduz shaharlarida ham bu sheva vakillari bor.

Gʻozi Olim turk-barlos lahjasini quyidagi toʻrt asosiy shevaga boʻladi:

1. Sayram-Chimkent shevasi.
2. Toshkent-Xos shevasi.
3. Andijon shevasi.

4. Namangan shevasi.

Bu to'rt sheva ichida Chig'atoy adabiy tiliga eng yaqini, unli-undosh tovushlar tizimida eng mukammali, singarmonizmni eng yaxshi saqlagani Sayram-Chimkent shevasi, deb hisoblaydi professor G'ozim Olim. Shuningdek, morfologik jihatdan O'rxun-Yenisey yodgorliklari tiliga va "xoqoniy turkchasi"ga eng yaqin turgani Toshkent-Xos shevasidir.

G'ozim Olim o'zbek tilini quyidagi uch lahjaga bo'ladi:

1. O'zbek-qipchoq lahjasi.
2. Turk-barlos lahjasi.
3. Xiva-Urganch lahjasi.

Bu lahjalar o'z ichida yana shevalarga ajratiladi. O'zbek-qipchoq lahjasi to'rt shevaga (qirq, jaloyir-laqay, qipchoq, gurlan), turk-barlos lahjasi uch shevaga (Sayram-Chimkent, Toshkent-Xos, Andijon-Namangan), Xiva-Urganch lahjasi esa ikki shevaga (Xiva, Qorluq) ajratiladi).

Professor Aleksandr Kuzmich Borovkov (1904–1962) o'zbek shevalari tasnifining ikki xil variantini tavsiya qiladi. U o'z tasnifining birinchi variantiga asos qilib fonetik belgilarning "j"lashish va "y"lashish, "o"lashish va "a"lashish xususiyatlarini olgan hamda o'zbek shevalarini quyidagi guruhlariga bo'lgan holda tasniflagan:

1. "O"lovchi guruh shevalar. Bu guruhga Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samarqand, Buxoro va boshqa markaziy shahar shevalari, ularning atrofidagi tumanlar shevalari kiradi.

2. "a"lovchi guruh shevalar. Bu guruhdagi shevalar uchun singarmonizm qonuni xos bo'lib, ular "y"lashish va "j"lashish xususiyatlariga qarab ikki guruhga ajratiladi. "Y"lovchi guruhga Janubiy Qozog'istondagi (Chimkent, Mankent, Turkiston va boshqa) o'zbek shevalari hamda Janubiy Xorazm shevalari, "j"lovchi guruhga esa Shimoliy Xorazm, Surxondaryo va Samarqand viloyatidagi qishloq shevalari kiritilgan.

A.K.Borovkov tasnifining ikkinchi varianti tarixiy dialektologiya ma'lumotlarini hamda o'zbek sheva va dialektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni hisobga olgan holda tuzilgan bo'lib, u quyidagi to'rt guruhdan iborat:

1. O'rta o'zbek dialekti.
2. Shayboniy yoki "j"lovchilar dialekti.
3. Janubiy Xorazm dialekti.
4. Alohida guruh shevalar [Боровков 1953].

Professor Viktor Vasilyevich Reshetov (1910–1979) o'zbek tili lahjalarini quyidagi uch guruhga bo'ladi:

1. Shimoliy-g'arbiy guruh – o'zbek tilining qipchoq lahjasi. Bu guruhga o'zbek tilining qipchoq shevalari; hududiy yondosh qozoq, qirg'iz va qoraqalpoq tillari kiradi.

2. Janubiy-g'arbiy guruh – o'zbek tilining o'g'uz lahjasi. Bu guruhga hududiy yondosh bo'lgan turkman tili ham kiradi.

3. Janubiy-sharqiy guruh – bu guruhga qarluq-chigil-uyg'ur lahjasini tashkil qiluvchi ko'plab o'zbek shahar shevalari, hozirgi o'zbek adabiy tili va eski tili; qardosh turkiy tillardan esa yangi uyg'ur tili kiradi [Решетов 1966, 3–14].

Yuqoridagi olimlarning o'zbek tili lahjalarini tasnif qilganlariga e'tibor bersak, ularda hozirga kelib "qarluq lahjasi" deb tan olingan lahjaning turlicha nomlanganini ko'rishimiz mumkin. Ayrimlarida esa bu lahjaning o'zini bir necha lahjalarga bo'lib yuborilganini kuzatamiz. Masalan, I.I.Zarubin qarluq lahjasini Farg'ona, Toshkent, Samarqand-Buxoro lahjalari deb uchga bo'lganini, K.K.Yudaxin ham Toshkent, Farg'ona va shimoliy o'zbek shevalari nomlari bilan uch guruhga ajratganini bildik. Y.D.Polivanov qarluq lahjasini "chig'atoy" lahjasi deb atagan. Professor G'ozzi Olim esa bu lahjani "turk-barlos" lahjasi deb nomlaydi. A.K.Borovkovning tasnifidagi "O'rta o'zbek dialekti" va "Alohida guruh shevalar" deb nomlangan lahjalar qarluq lahjasini ifodalaydi.

V.V.Reshetov o'z tasnifida o'zigacha tadqiqot olib borgan olimlarning fikrlarini umumlashtirgan va o'zbek adabiy tili-ga asos bo'lgan lahjani "qarluq-chigil-uyg'ur" lahjasi deb atagan. V.V.Reshetovning bu nomlashi ilmda termin sifatida qabul qilingan va ba'zan "qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi" deb to'liq holda, ba'zan esa "qarluq lahjasi" deb qisqartirilgan holda ishlatiladi.

Qarluq lahjasi bo'yicha amalga oshirilgan eng e'tiborli tadqiqotlardan yana biri professor V.V.Reshetovning 1960-yilda e'lon qilingan "O'zbek tilining qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi" nomli maqolasidir [Решетов 1960, 34–46].

V.V.Reshetovning ushbu maqolasi o'zbek tilining shakllanishiga asos bo'lgan uch lahjadan biri, nomlanishi masalasi rus va o'zbek tilshunoslari o'rtasida uzoq yillar davomida bahs-munozaraga sabab bo'lgan qarluq lahjasi bilan bog'liq ko'p masalalarni yechib bergan. Muallif o'zbek tilining boshqa turkiy tillardan ajralib turuvchi jihatlarini qayd qilib o'tar ekan, bu tildagi lahjalarning unsurlarini o'zida aks ettirgan yozma yodgorliklar tiliga (Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asariga) ham e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi.

V.V.Reshetov o'zigacha bo'lgan tadqiqotchilar o'zbek tili-

ning sheva va dialektlarini uchta yirik guruhga: qipchoq, o'g'uz va chig'atoy lahjalariga ajratganini ta'kidlar ekan, uchinchi lahjaning "chig'atoy" atamasi bilan nomlanishiga e'tiroz bildiradi. Uning fikricha, bu lahjaning yetakchi shevalari hali Chig'atoyxon Movaroun-nahrga kelishidan ancha oldinroq hozirgi O'zbekiston hududida tarkib topib bo'lgan edi [Решетов 1960, 36].

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, professor G'ozzi Olim o'z tasnifida qarluq lahjasini "turk-barlos dialekti" deb nomlagan edi. V.V.Reshetov bu terminning ishlatilishiga ham qarshi chiqadi. Uning fikricha, mo'g'ul qabilalaridan bo'lgan bu qabila faqat XIII asrdagina Qashqadaryo vodiysida, aniqrog'i, Kesh-Shahrisabz atroflarida o'troqlashib qolgan. Binobarin, o'zbek tilining yirik bir lahjasiga juda kech turkiylashgan bir qabilaning nomini berish ilmiy adolatning buzilishi bo'lar edi.

V.V.Reshetov ta'kidlashicha, VIII asr boshlarida hozirgi O'zbekiston hududida shakllana boshlagan xalq tarkibidagi qarluq-chigil turkiy til komponenti X-XII asrlarda yana-da kuchaya boshlagan. Qoraxoniylar davlati tarkibiga qo'shilgan turkiy qabilalar orasida qarluq, chigil va uyg'urlar asosiy kuchni tashkil qiluvchi qabilalardan bo'lib qolgan. Shuningdek, muallif mazkur til birliklarining ildizlari juda qadim tarixga – O'rxun-Yenisey yozma yodgorliklariga borib taqalishini ham aytib o'tadi va o'z fikrini o'sha manbalardan olingan misollar bilan asoslaydi.

V.V.Reshetov maqolada o'z fikrlarini nazariy jihatdan chuqur asoslaydi va xulosada hozirgi zamon o'zbek tiliga asos bo'lgan dialektning zamini qoraxoniylar davridayoq shakllangani va turli o'zgarishlarga uchragan holda bizgacha yetib kelganini aytadi. Bu dialekt qarluq-chigil-uyg'ur til birligidan iborat bo'lib, u o'z tarkibida o'g'uz va qipchoq lahjalariga xos unsurlarni ham saqlagan.

V.V.Reshetov ushbu maqolasida salkam qirq yil davomida turli tilshunoslar tomonidan turlicha nomlar bilan nomlanib kelayotgan, lekin asli bitta lahja bo'lgan o'zbek tilining asosiy lahjalaridan birini "qarluq-chigil-uyg'ur" degan ham tarixiy nuqtayi nazardan mos, ham mohiyatni ifodalay olish jihatidan mukammal bir nom bilan nomladi. Uning bu maqolasidan keyin dialektologiya ilmida "qarluq-chigil-uyg'ur" atamasi mustahkam o'rin oldi va hozirgi o'zbek adabiy tiliga asos bo'lgan bir lahjaning nomi sifatida qabul qilindi.

"Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi" degan tushuncha dialektologiya ilmida ancha barqarorlashdi va ko'pincha qisqartirilgan holda "qarluq lahjasi" deb ham ishlatilmoqda.

Qarluq lahjasining alohida shevalari bo'yicha ham o'tgan davr ichida anchagina tadqiqotlar amalga oshirildi.

Umuman olganda, qarluq lahjasi yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlarni quyidagicha turkumlash mumkin:

1. O'zbek tili dialektologiyasi bo'yicha qilingan ishlar ichidagi ushbu lahjaga oid o'rinlar. Bunday tadqiqotlarda o'zbek tilining barcha lahjalari haqida so'z yuritilgan bo'ladi, jumladan, qarluq lahjasi haqida ham. Ushbu turdagi tadqiqotlarga A.N.Samoylovich [Самойлович 1928], Y.D.Polivanov [Поливанов 1933], I.I.Zarubin [Зарубин 1925], G'ozzi Olim [Ўғазӣ Алӣм Юнус 1935], K.K.Yudaxin [Юдахин 1939], A.K.Borovkov [Боровков 1953], V.V.Reshetov [Решетов 1959], Sh.Shoabdurahmonov [Шоабдурахмонов ва б. 1962], A.Ishayev [Ишаев 1983], S.Ashirboyev [Ashirboyev 2021]-larning ishlarini kiritish mumkin.

2. Faqat qarluq lahjasining o'ziga oid tadqiqotlar. Bunday ishlar nisbatan kamroq adadni tashkil qiladi. Ushbu turkumga K.K.Yudaxin [Юдахин 1929], V.V.Reshetov [Решетов 1960], Sh.Shoabdurahmonov [Шоабдурахмонов 1983], D.Abdurahmonov [Абдурахмонов 1987]larning tadqiqotlari kiradi.

Qarluq shevasining ayrim shevalari tadqiqi bo'yicha qilingan ishlar Ichida Sobirjon Ibrohimovning "O'zbek tilining Andijon shevasi" monografiyasi alohida ajralib turadi. Andijon shevasi o'zbek tili qarluq lahjasining eng asosiy tarmoqlaridan bo'lib, adabiy tilning yuzaga kelishida asos bo'lib xizmat qilgan shevalardandir.

Muallif monografiyaning kirish qismida Andijon shahri-ning bunyod qilinishi, taraqqiy topishi, Farg'ona vodiysining markaziga aylanishi kabi masalalar xususida so'z yuritar ekan, bu sheva etnogenetik jihatdan qadimiy chigil lahjasiga borib yetishi xususida fikr bildiradi. XII asrgacha O'zgand shahri chigillarning poytaxti bo'lib kelgan bo'lsa, keyinchalik markaz Andijonga ko'chgani va turkiy-o'zbek tili rivojlanib, andijon shevasi yuzaga kelgani haqida o'z mulohazasini bayon qiladi. Keyinchalik bu sheva O'rta Osiyo va undan tashqariga – Xurosongacha yetib borgani, Alisher Navoiy va uning zamondoshlari ham o'z asarlarini deyarli shu sheva asosida yozganlarini ta'kidlaydi [Иброҳимов 1967].

Andijon shevasining shakllanishida chigillardan tashqari o'sha davrdagi mavqeyi baland bo'lgan arg'u, tuxsi, yag'mo va qarluq kabi turkiy qabilalarning tillari ham o'z ta'sirini qoldirgan.

S.Ibrohimov Andijon shevasi tarqalgan hududlarni Andijon, O'sh, O'zgand, Asaka, Jalolobod, Qo'qonqishloq, Qorasuv, Qo'rg'ontepa, Poytug' va ularning atroflaridagi qishloqlar deb belgilaydi. Shu

o'rinda u V.V.Reshetovning andijon shevasi tarqalgan hududlarni ko'rsatishda Andijon va Shahrixon shaharlari, deb belgilaganligiga e'tiroz bildiradi hamda shahrixon shevasining andijon shevasidan ko'ra ko'proq marg'ilon-qo'qon shevasiga moyilligini aytib o'tadi.

S.Ibrohim ushbu monografiyada Andijon shevasining fonetik va morfologik jihatlarini tadqiq qiladi. Shevadagi unlilar va undoshlar sistemasini to'liq tavsiflaydi. Shuningdek, andijon shevasidagi bo'g'in tuzilishi, singarmonizm, tanglay ohangdoshligi, lab ohangdoshligi, diftonglashish masalasi, undoshlarning ikkilanishi, o'rin almashishi (metateza), tovush tushishi yoki qisqarishi kabi hodisalarni batafsil yoritadi.

Risolaning keyingi faslida Andijon shevasining morfologik xususiyatlari keng yoritiladi. Shevada jins, ko'plik, egalik kategoriyalarida qanday o'ziga xosliklar mavjud ekaniga to'xtab o'tiladi. So'z turkumlarida qanday holatlar borligi haqida ham o'z kuzatishlarini bayon qiladi.

S.Ibrohimov ushbu monografiyasida andijon shevasidan yig'ilgan materiallarni juda yuqori transkripsion aniqlikda beradi. Izohlanayotgan so'zlarga mahalliy shevadan juda o'rinli jumlar, gaplarni misol olish bilan birga Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlaridan va xalq og'zaki ijodi namunalaridan ham fikrga mos misollar oladiki, bu uslub shevalar yuzasidan amalga oshirilgan ishlarning aksariyatida kuzatilmaydi.

S.Ibrohimovning "O'zbek tilining andijon shevasi" nomli monografiyasi o'zbek tili qarluq lahjasining shevalari bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar Ichida ilmiy uslubining ravonligi, fikrni sodda va tushunarli uslubda bayon etganligi, ilmiy xulosalarning lo'nda va aniqligi bilan alohida ajralib turadi.

Qarluq lahjasi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar ichida Do'stmurod Abdurahmonovning "Qorluqlar va ularning tili" maqolasini ham e'tiborga molik [Абдурахмонов 1987, 30-36].

Maqola muallifi qarluqlar va ularning tili o'zbek xalqi va uning tili tarixida juda katta mavqeda turganini ta'kidlar ekan, ular asosan O'zbekistonda, shuningdek, Qashqar (Xitoy)da, Tojikiston, Qozog'iston, Afg'oniston, Hindistonda ham yashab kelayotganligini aytadi. D.Abdurahmonov qarluqlarning hozirgi O'zbekiston va unga qo'shni davlatlar (Tojikiston, Afg'oniston) hududlariga kelib tarqalishini mutaxassislar ikki davrga bo'lib ko'rsatganini (X asrga qadar, ya'ni qoraxoniylar davrigacha va XII asrdan keyin kelib tarqalgan qarluqlar) ta'kidlaydi. O'zbekiston hududiga eng so'nggi qarluqlar XVI asr boshlarida, shayboniy hukmdorlardan Abdullaxon II hukm-

ronligi davrida kelgan. D.Abdurahmonov o'z maqolasida qarluqlarning Toshkent viloyati hududlariga – Piskent, Parkent shaharlariga, Angren, Chirchiq vodiylariga, Farg'ona vodiysi shahar va qishloqlariga, Xorazmga, Janubiy Qozog'iston tuproqlariga tarqalganini tarixiy manbalarga tayangan holda yozadi.

Qarluqlarning asosiy qismi XIII asr boshlarida o'troq hayot tarziga o'tgan bo'lsa-da, ularning bir qismi O'zbekistonning janubiy viloyatlari cho'llarida ko'chmanchi holda yashaganlar.

D.Abdurahmonov mana shunday ko'chmanchi holda yashab, Qashqadaryoning Koson tumani hududida o'rnashib qolgan va "Koson qarluqlari" deb nom olgan, ming xo'jalikdan iborat bo'lgan (1987-yilgi ma'lumot) Qorluq qishlog'ida o'zi olib borgan dialektologik tadqiqot natijalarini bayon qiladi. Tadqiqotchi ushbu qishloqda 1972, 1983, 1985-yillarda bo'lib, uning shevasini o'rgangan.

D.Abdurahmonov Qorluq qishlog'i shevasining fonetik xususiyatlarini, undagi unlilar sonini, undosh tovushlarga xos xarakterli belgilarni bayon qiladi. So'ng ushbu qishloq shevasining morfologik xususiyatlarini yoritadi. Affikslarning qo'llanishi, fe'l va uning turli formalari ko'rsatkichlarini aytib o'tadi, olmoshlar va ravishlar xususida ham to'xtaladi. Ayrim bog'lovchi va yuklamalarning qo'llanish holatlaridagi o'ziga xoslikni ko'rsatadi. So'ngra bu qishloq shevasining leksikasiga xos so'zlardan ham namunalarni keltirib o'tadi.

Tadqiqotning oxirida D.Abdurahmonov Qorluq qishlog'i shevasi o'zining qadimiy qarluqlarning tiliga xos bo'lgan va qarluq-chigil-uyg'ur til birligidagi qarluqcha xususiyatlarni yaxshi saqlagan, degan mazmundagi xulosasini bayon qiladi. Shuningdek, bu qishloq shevasining hozirgi klassifikatsiyalardagi o'rnini ham ko'rsatib: qarluq-chigil-uyg'ur lahjasining Samarqand-Buxoro yoki Qarshi dialekti, deb ta'kidlab o'tadi.

Xulosa

Qarluq lahjasi shevalarini o'rganish bo'yicha oxirgi yuz yil ichida anchagina ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Lahjani o'rganish bo'yicha qilingan ishlarni shartli ravishda uchta bocqichga bo'lish mumkin:

1. Dastlabki davr. 1920-yillarning boshlaridan boshlab to 1950-yillarning o'rtalarigacha bo'lgan muddatni o'z ichiga oladi. Bu yillarda qilingan ishlarda o'zbek adabiy tilining shakllanishida turkiy tillarning qaysi lahjalari asos bo'lganligi, uning shakllanishida qanday tashqi va ichki omillar asosiy o'rin tutganligi kabi faktlar har taraflama o'rganilgan.

2. Ikkinchi davr. 1950-yillarning o'rtalaridan boshlab, O'zbekiston mustaqillikka erishguncha bo'lgan davr. Bu o'ttiz yilga yaqin davrni o'z ichiga oladi. Ushbu davrda o'zbek tilshunosligi, xususan, o'zbek dialektologiyasi mustaqil fan sifatida shakllandi.

O'zbek dialektologlarining yetuk bir avlodi shu davrda shakllandi. Xususan, qarluq lahjasi va uning shevalari bo'yicha bir necha yirik tadqiqotlar amalga oshirildi. S.Ibrohimov, A.Aliyev, A.Shermatov, Sh.Shoabdurahmonov, T.Turg'unov, Sh.Nosirovlarning ishlari shular jumlasidandir. Bu tadqiqotlar ichida Sh.Shoabdurahmonovning "Карлукское наречие узбекского языка" monografiyasi alohida ahamiyatga ega.

3. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan bugungi kungacha bo'lgan davr. Bu davrda qilingan ishlarda fikr erkinligi imkoniyati mavjud bo'lgani uchun ilmiy xolislik, tarixiy faktlarni haqqoniy tahlil qilish yetakchilik qiladi. Bu davrda ham qarluq lahjasining alohida shevalari bo'yicha bir necha tadqiqotlar amalga oshirildi. Ushbu ishlarga ham avvalgi yirik dialektolog olimlarning ilmiy qarashlari nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

Adabiyotlar

- Ashirboyev, S. 2021. *O'zbek dialektologiyasi*. Toshkent: Nodirabegim.
- Абдурахмонов, Д. 1987. "Қорлуқлар ва уларнинг тили". *Ўзбек тили ва адабиёти* 3: 30-36.
- Боровков, А. К. 1953. "Вопросы классификации узбекских говоров". *Известия АН Уз.* 5.
- Зарубин, И. И. 1925. *Список народностей Туркестанского края*. Ленинград.
- Иброҳимов, С. 1967. *Ўзбек тилининг Андижон шеvasи*. Тошкент: Фан.
- Ишаев, А. 1983. "Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари". *Ўзбек тили ва адабиёти* 6: 120-124.
- Маҳмуд Кошғарий. 2017. *Девону луғотит турк*. Тошкент: Фафур Фулом.
- Поливанов, Е. Д. 1933. *Узбекская диалектология и узбекский литературный язык*. Ташкент.
- Решетов, В. В. 1959. *Узбекский язык*. Часть 1. Ташкент.
- Решетов, В. В. 1960. "Ўзбек тилининг қарлуқ-чигил-уйғур лаҳжаси". *Ўзбек тили ва адабиёти масалалари* 5: 34-46.
- Решетов, В. В., Шоабдурахмонов, Ш. 1962. *Ўзбек диалектологияси*. Тошкент.
- Решетов, В. В. 1966. "Ўзбек шеваларининг классификацияси". *Ўзбек тили ва адабиёти* 1: 3-14.
- Самойлович, А. Н. 1928. "К истории Среднеазиатского-турецкого языка". Сб. Мир Али-шер. Ленинград.
- Шаабдурахманов, Ш. 1983. *Карлукское наречие узбекского языка*.

Ташкент: Фан.

Юдахин, К. К. 1929. Материалы по звуковому составу чагатайского языка. *Культура и письменности Востока*. Кн. V.

Юдахин, К. К. 1939. «Узбекский язык». *Литературная энциклопедия*. Том XI. Москва.

Qazı Alım Junus. 1935. *Ozbek lahçalarını tasnıfda bır taçrıba*. Taşkent.

History of studying the Qarluq dialect

Umarjon Kodirov¹

Abstract

Among the Turkic languages, the Uzbek language stands out for the remarkable diversity of its dialects and sub-dialects and possesses a rich and complex historical development. Nearly a thousand years ago, Mahmud al-Kashgari referred to the Karluk dialect as “Khaqani Turkic” in his work *Dīwān Lughāt al-Turk*. This Karluk dialect constitutes one of the three main dialects of the Uzbek language and has served as the foundational dialect for the formation of the Uzbek literary language.

The article discusses studies conducted on the Karluk dialect from the 1920s through the mid-1980s. Scholarly works by Russian and Uzbek linguists and dialectologists produced during the 1970s and 1980s are critically evaluated and analyzed from a contemporary perspective. In addition, the article provides information on the geographical distribution and areal scope of the Karluk dialect across the territory of the Republic of Uzbekistan.

Key words: *Qarluq, Oghuz, Kipchak, areal, classification, Turkic, dialect.*

References

- Ashirboyev, S. 2021. *O'zbek dialektologiyasi*. Toshkent: Nodirabegim.
- Abdurahmonov, D. 1987. “Qorluqlar va ularning tili”. *O'zbek tili va adabiyoti* 3: 30-36.
- Borovkov, A.K. 1953. “Voprosy klassifikatsii uzbekskix govorov”. *Izvestiya AN Uz*. 5.

¹ Kodirov Umarjon – researcher, Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

E-mail: kodirovumarjon@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0001-5768-0789

For citation: Kodirov, U. 2024. “History of studying the Qarluq dialect”. *Golden scripts* 3: 76 – 89.

- Zarubin, I.I. 1925. *Spisok narodnostey Turkestanskogo kraya*. Leningrad.
- Ibrohimov, S. 1967. *O'zbek tilining Andijon shevasi*. Toshkent: Fan.
- Ishaev, A. 1983. "Janubiy Qozog'istondagi o'zbek shevalari". *O'zbek tili va adabiyoti* 6: 120-124.
- Mahmud Koshg'ariy. 2017. *Devonu lug'otit turk*. Toshkent: G'afur G'ulom.
- Polivanov, Ye.D. 1933. *Uzbekskaya dialektologiya i uzbekskiy literaturniy yazыk*. Tashkent.
- Reshetov, V.V. 1959. *Uzbekskiy yazыk*. Chast 1. Tashkent.
- Reshetov, V.V. 1960. "O'zbek tilining qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi". *O'zbek tili va adabiyoti masalalari* 5: 34-46.
- Reshetov, V.V., Shoabdurahmonov, Sh. 1962. *O'zbek dialektologiyasi*. Toshkent.
- Reshetov, V.V. 1966. "O'zbek shevalarining klassifikatsiyasi". *O'zbek tili va adabiyoti* 1: 3-14.
- Samoylovich, A.N. 1928. "K istorii Sredneaziatskogo-tureskogo yazыka". Cb. *Mir Ali-sheer*. Leningrad.
- Shaabduraxmanov, Sh. 1983. *Karlukskoe narechie uzbekskogo yazыka*. Tashkent: Fan.
- Yudaxin, K.K. 1929. Materialы po zvukovomu sostavu chagatayskogo yazыka. *Kultura i pismennosti Vostoka*. Kn. V.
- Yudaxin, K.K. 1939. «Uzbekskiy yazыk». *Literaturnaya ensiklopediya*. Tom XI. Moskva.
- Qljazı Alım Junus. 1935. *Ozbek lahçalarını tasnıfda bır taçrıba*. Taşkent.

Afg'oniston o'zbek tili fonetikasida dissimilatsiya hodisasi

Feada Mohammad Samadbek¹

Abstrakt

Ushbu maqolada Afg'oniston o'zbek tili fonetikasida uchraydigan dissimilatsiya hodisalari misollar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda yozma nasriy asarlar bilan bir qatorda, manzum adabiyot namunalaridan ham foydalanilgan. Dissimilatsiyaning turli shakllari, xususan, progressiv va regressiv dissimilatsiya jarayonlari, tovush o'xshashligi hamda yondosh tovushlarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan fonetik o'zgarishlar aniq misollar orqali ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, Afg'oniston o'zbek adabiy tilida ayrim dissimilatsiya hodisalari kuzatilgani aniqlansa-da, ushbu jarayon og'zaki nutqda yanada kengroq namoyon bo'lishi ma'lum bo'ldi.

Mazkur maqola Afg'oniston o'zbek adabiy tilida dissimilatsiya jarayonlariga oid yangi tadqiqot sifatida e'tiborga loyiq bo'lib, kelajakda tilshunoslik sohasida izlanish olib boruvchi tadqiqotchilar uchun ilhom manbai bo'lishiga ishonamiz.

Kalit so'zlar: *Afg'oniston, o'zbek tili, dissimilatsiya, progressiv dissimilatsiya, regressiv dissimilatsiya.*

Kirish

Dissimilatsiya termini lotincha “dissimilation” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “o'xshamaslik”, “farqlanish” ma'nosini anglatadi. Lingvistik nuqtayi nazardan olganda, talaffuz jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan tovushlardan biri o'zining fiziologik yoki akustik xususiyatlarini o'zgartirganda, bu hodisa dissimilatsiya deb ataladi [Irisqulov 2009, 38]. Tilshunoslikda dissimilatsiya tovushlarning yaqinligi yoki uzoqligi bilan bog'liq holda turlicha namoyon bo'ladi. Shu asosda, tilshunoslar dissimilatsiyani ikkita asosiy turga ajratadilar:

Kontakt dissimilatsiya – bunda yonma-yon turgan tovushlardan biri boshqa bir tovushga o'zgaradi. Masalan, “کیسه – kissa”

¹ Feada Mohammad Samadbek – tadqiqotchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: fada.mfada@gmail.com

ORCID ID: 0009-0004-2282-3320

Iqtibos uchun: Feada S.M. 2024. “Afg'oniston o'zbek tili fonetikasida dissimilatsiya hodisasi”. *Oltin bitiglar* 3: 90 – 102.

so'zining "کېسته – kista" shakliga o'zgarishi bunga misol bo'la oladi.

Distakt dissimilatsiya – bunda bir-biridan nisbatan uzoqroq joylashgan tovushlar o'zgarishga uchraydi. Masalan, "بیررته – birarta" so'zining "بیرننه – biranta" shakliga o'tishi distakt dissimilatsiyaga misol bo'ladi.

Bundan tashqari, kontakt va distakt dissimilatsiya jarayonlari o'zaro bog'liq bo'lib, tovushlarning o'zgarishi yo'nalishiga qarab progressiv va regressiv dissimilatsiya turlariga bo'linadi. *Progressiv dissimilatsiya* holatida oldingi undosh keyingi tovushga ta'sir qiladi, *regressiv dissimilatsiya* esa aksincha, keyingi tovushning oldingi tovushga ta'siri natijasida yuzaga keladi.

Ushbu maqolada Afg'oniston o'zbek adabiy tili va shevalarida dissimilatsiya hodisasining namoyon bo'lishi hamda uning turlari tahlil qilinadi. Ayrim she'riy va nasriy asarlardan olingan misollar orqali bu hodisaning qanday sodir bo'lishi va uning lingvistik xususiyatlari ochib beriladi. Shuningdek, dissimilatsiyaning fonetik o'zgarishlar bilan bog'liqligi ham tahlil qilinadi.

Shu tariqa, ushbu tadqiqot dissimilatsiya hodisasining nazariy asoslarini va amaliy namunalardagi aksini ko'rsatish orqali o'zbek tilshunosligida ushbu fenomenning ahamiyatini yoritishga qaratilgan.

Asosiy qism

Dissimilatsiya – bu fonetik hodisa bo'lib, so'z tarkibidagi bir xil yoki o'xshash tovushlarning biri yoki bir nechtasining farqlanishi natijasida yuzaga keladi. Bu hodisa til taraqqiyotining muhim qismidir va ko'plab tilshunos olimlar tomonidan o'rganilgan.

Quyida mashhur olimlarning dissimilatsiya haqida aytgan fikrlari va bu hodisaning keng izohi keltiriladi.

A. A. Reformatskiy dissimilatsiya haqida shunday yozadi: "Dissimilatsiya – bu so'z tarkibidagi tovushlarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan fonetik o'zgarish bo'lib, bunda o'xshash tovushlarning biri farqlanib ketadi" [Reformatskiy 1975, 241].

Reformatskiyning ta'kidlashicha, dissimilatsiya talaffuzni yengillashtirishga yordam beradi va fonetik rivojlanishning tabiiy qismi hisoblanadi. Uning fikricha, har qanday til biror-bir tovushni qo'llashda nutq qulayligini ko'zda tutadi va shu sababli tovushlar ba'zan o'zaro farqlanadi.

Tilshunos olim L. V. Shcherba dissimilatsiya haqida shunday fikr bildiradi: "Dissimilatsiya – bu tovushlarning tabiiy ravishda rivojlanish jarayoni bo'lib, u so'zlarni talaffuz qilishni qulaylashtirish

uchun sodir bo'ladi" [Shcherba 1957, 89].

Shcherbaning fikricha, bu hodisa asosan murakkab tovush birikmalarini soddalashtirish maqsadida ro'y beradi. U bu jarayonni til taraqqiyotining ajralmas qismi deb hisoblaydi. Masalan, rus tilida lotincha "peregrinus" so'zi "pèlerin" shaklida o'zgargan. Bu yerda *r* tovushi dissimilatsiya natijasida yo'qolgan.

Mashhur fonetist I. A. Baudouin de Courtenay dissimilatsiya jarayonini tilning tabiiy o'zgarishlaridan biri deb hisoblaydi va shunday yozadi: "Dissimilatsiya – bu nutq mexanizmining tabiiy funksiyalaridan biri bo'lib, u bir xil tovushlarni farqlash orqali til tizimini tartibga soladi" [Baudouin de Courtenay 1895, 112].

Baduen de Kurtene tilning tarixiy rivojlanishini o'rganib, dissimilatsiya fonetik hodisa sifatida uzoq davrlar davomida sodir bo'lib kelganini isbotlagan. Masalan, lotin tilidagi "arbor" (daraxt) so'zi rus tilida "депево" shakliga o'zgargan, bu yerda *r* tovushi *d* tovushiga aylangan.

Mashhur fonolog R. Jakobson dissimilatsiya haqida quyidagi fikrni bildirgan: "Dissimilatsiya – bu fonetik muvozanatni ta'minlash vositasi bo'lib, u o'xshash tovushlarni bir-biridan ajratib, nutqni yanada aniqroq qiladi" [Jakobson 1962, 57].

Jakobsonning fikricha, dissimilatsiya orqali til o'zining uyg'unlik va farqlilik qonuniyatlarini saqlab qoladi. Uning tadqiqotlarida fonologik tizim ichidagi o'zgarishlar dissimilatsiyaning ahamiyatini ochib beradi. Masalan, o'zbek tilida "lab-lab" shakli emas, balki "lab-lashmoq" shakli qo'llaniladi. Bu jarayon Jakobson ta'kidlagan fonetik muvozanatni ta'minlash tamoyiliga asoslanadi.

Strukturalizm asoschilaridan biri Ferdinand de Sosyur dissimilatsiya haqida quyidagi fikrni bildirgan: "Tovushlarning farqlanishi – bu til tizimining muvozanatini saqlashga xizmat qiluvchi jarayondir va dissimilatsiya bu hodisaning muhim ko'rinishlaridan biridir" [Saussure 1916, 141].

Sosyur til rivojlanishini tizimli o'rganib, fonetik o'zgarishlarni strukturaviy jihatdan tahlil qilgan. Uning fikricha, dissimilatsiya nafaqat talaffuzni osonlashtiradi, balki ma'no farqlanishiga ham ta'sir qiladi. Misol tariqasida fransuz tilidagi "calendarium" so'zining "kalendar" shakliga o'tishini ko'rsatish mumkin.

Dissimilatsiya fonetik hodisa bo'lib, u so'z tarkibidagi bir xil yoki o'xshash tovushlarning farqlanishi natijasida yuzaga keladi. Bu hodisa til taraqqiyotining ajralmas qismidir va talaffuzni yengillashtirishga xizmat qiladi. Tilshunos olimlar, jumladan, A. A. Reformatskiy, L. V. Shcherba, Baduen de Kurtene, R. Jakobson va F.

de Sosyur dissimilatsiyaning til tizimidagi o'rni va ahamiyatini turli nuqtayi nazarlardan tahlil qilganlar.

Olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, dissimilatsiya so'zlarning fonetik rivojlanishiga ta'sir qilib, ularni talaffuz jihatidan qulayroq shaklga keltiradi. Jakobson bu hodisani fonetik muvozanatni saqlash vositasi sifatida ko'rgan bo'lsa, Saussure uni til tizimining barqarorligi bilan bog'lagan. Baduen de Kurtene esa dissimilatsiyani tilning tabiiy rivojlanish jarayoni sifatida baholagan.

Dissimilatsiya progressiv va regressiv turlarga bo'linib, progressiv dissimilatsiyada oldingi tovush keyingi tovushga ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayon tarixiy rivojlanish natijasida shakllangan bo'lib, so'zlarning fonetik jihatdan o'zgarishiga sabab bo'ladi. Shu sababli, dissimilatsiya tilshunoslikda muhim fonetik hodisalardan biri hisoblanadi.

Dissimilatsiya – bu tilshunoslikda uchraydigan fonetik hodisalardan biri bo'lib, bir xil yoki o'xshash tovushlarning o'zaro farqlanish jarayonidir. Boshqacha aytganda, so'z tarkibidagi ikki yoki undan ortiq bir-biriga yaqin tovushlardan biri yoki bir nechta o'zgarib ketadi. Bu jarayon talaffuzni qulaylashtirish yoki nutq ravonligini oshirish maqsadida yuzaga keladi. Til taraqqiyotining turli bosqichlarida dissimilatsiya tabiiy jarayon sifatida yuz berib, so'zlarning tarixiy o'zgarishlariga sabab bo'lishi mumkin.

Dissimilatsiya fonetik xususiyatiga ko'ra progressiv dissimilatsiya va regressiv dissimilatsiya nomi bilan ikki asosiy turga bo'linadi.

Progressiv dissimilatsiya

Progressiv dissimilatsiya bir so'z ichida artikulyatsiya nuqtalari bir-biriga yaqin yoki o'xshash bo'lgan ikki undoshdan keyingisining boshqa bir undoshga o'zgarish hodisasidir. Ushbu fonetik hodisa turli tillarda kuzatilishi mumkin bo'lib, ayniqsa, og'zaki nutqda aniq namoyon bo'ladi.

Afg'oniston o'zbek tili shevalarida progressiv dissimilatsiya jarayoni kuzatiladigan muhim tovush hodisalaridan biridir. Ayniqsa, bir so'z tarkibida bir necha marta takrorlanadigan /ʝ - r/ undoshi so'z oxirida /ʝ - l/ tovushiga aylanishi kuzatiladi. Bu holat Afg'oniston o'zbek tilining o'ziga xos fonetik xususiyatlaridan biri bo'lib, nutq jarayonida tovushlar o'rtasidagi farqlanishni kuchaytirish hamda talaffuzni yengillashtirishga xizmat qiladi.

Bu kabi fonetik o'zgarishlar til taraqqiyotining tabiiy jarayonlaridan biri bo'lib, lahja va shevalarda turlicha namoyon

bo'lishi mumkin. Afg'oniston o'zbek shevalaridagi progressiv dissimilatsiya ham bu hududda shakllangan til tizimining rivojlanish qonuniyatlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Afg'oniston o'zbek shevalarida bu jarayon ayniqsa $rr > rl$ (رر > لر) va $rr > rn$ (رر > نر) shakllarida namoyon bo'ladi. Quyida ushbu o'zgarishlarni fonetik va fonologik nuqtayi nazardan tahlil qilamiz.

1. $rr > rl$ (رر > لر) O'zgarishi

Kobuldan yigit kesa savg'o minan
Qizgina salom **beral** nag'ma minan
[Hassos 2006, 50].

کابل دن بیگیت کیسه سوغا مینن
قیزگینه سلام بیرل نغمه مینن

Misoldagi so'zning dastlabki shakli "berar" bo'lishi kerak edi. Unda ikkita ketma-ket kelgan /r/ tovushi mavjud bo'lib, progressiv dissimilatsiya natijasida so'z oxiridagi /r/ tovushi /l/ tovushiga o'zgargan.

Ushbu o'zgarish talaffuzni yengillashtirish uchun sodir bo'ladi, chunki ikki /r/ tovushining ketma-ket kelishi nutqda artikulyatsion qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

/r/ va /l/ tovushlari artikulyatsion jihatdan bir-biriga yaqin bo'lib, ikkinchi /r/ tovushining /l/ tovushiga aylanishi assimilatsiya jarayonining oldini olishga xizmat qiladi.

Artikulyatsion yaqinlik: /r/ va /l/ ikkalasi ham til uchidan hosil qilinadigan undoshlar bo'lib, bu o'zgarish ularning fonetik yaqinligi tufayli yuz beradi.

Kontrastni oshirish: Ketma-ket kelgan ikkita /r/ fonetik kontrastni pasaytiradi, shuning uchun nutq tabiiy ravishda ikkinchi /r/ tovushini /l/ tovushi bilan almashtirishga moyil bo'ladi.

2. $rr > rn$ (رر > نر) O'zgarishi

Nega Afg'onistonning
bugungi rahbarlaridan
birantasi yog' hol bu ki
shahr mo'tarlari shishasiga
umuman rahbarlardi a'kslari
yopishtirilgan
[Yorqin 2020, 60].

نیگه افغانستاننینگ بوگونگی رهبرلریدن بیرانته-
سی یاغ؟ حال بو که شهر مونترلری شیشهسیگه عموماً
رهبرلردی عکسلری یاپیشتیریلگن!

Misoldagi so'zning dastlabki shakli "birartasi" bo'lishi kerak edi. Biroq, progressiv dissimilatsiya natijasida ikkinchi /r/ tovushi /n/ tovushiga o'zgargan: birartasi (بیررتهسی) → birantasi (بیرننهسی)

Ushbu o'zgarish og'zaki nutqda tez talaffuz qilinish jarayonida yuzaga kelgan bo'lib, talaffuzni yengillashtirish va tovush kontrastini oshirishga xizmat qiladi.

/n/ va /r/ tovushlari fonetik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lmasa ham, bu o'zgarish progressiv dissimilatsiyaning semantik yukini kamaytirish uchun yuzaga kelgan.

Ketma-ket kelgan /r/ tovushlarining ortiqcha bo'lishi ularning bir-biridan ajralib turishini talab qiladi.

Ikkinchi /r/ tovushi o'zgarib, /n/ tovushiga aylanishi talaffuz qulayligini oshiradi.

/r/ va /n/ tovushlari ba'zi fonetik muhitlarda bir-biriga yaqinlashishi mumkin, bu esa dissimilatsiya uchun tabiiy sharoit yaratadi.

Afg'oniston o'zbek tiliga fors tilidan kirgan ba'zi so'zlarda progressiv dissimilatsiya hodisasi kuzatiladi. Bu jarayon fonetik jihatdan talaffuzni yengillashtirishga xizmat qiladi va so'z tarkibida ketma-ket kelgan bir xil yoki o'xshash tovushlarning farqlanishiga olib keladi. Ayniqsa, /nn/ tovush ketma-ketligi progressiv dissimilatsiya ta'sirida /nd/ shakliga o'zgaradi. Bunday o'zgarishlar og'zaki nutqda yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

nn > nd o'zgarishi

Fors tilidan o'zlashgan tannur (تَنُّور) so'zida progressiv dissimilatsiya natijasida ikkinchi /n/ tovushi /d/ tovushiga aylanadi:

Tannur > tandir

تَنُّور < تَندیر

Sekingina tomidan chiqib yina tandir-o'choq sori keldi. Qo'liga kesovni olib o'chog'ni va **tandirni** qo'zg'alaverdi [Noil Xonkeldi, 2017, 10].

سیکین گینه تامیدن چیقیب یینه تندیروچاق ساری کیلدی. قولیگه کساونی آلیب اوچاغنی و تندیرنی قوز غلهویردی.

Bu misolda tannur (تَنُّور) so'zi progressiv dissimilatsiya ta'sirida tandir (تَندیر) shaklini olgan. Natijada talaffuz yanada qulaylashgan va tovushlarning o'zaro ta'siri bilan differensiallashish yuz bergan. Tannur (تَنُّور) → Tandir (تَندیر).

Tushum kelishigidagi dissimilatsiya

Progressiv dissimilatsiya faqat lug'aviy birliklar tarkibida emas, balki morfologik jarayonlarda ham namoyon bo'lishi mumkin. Xususan, /n/ undoshi bilan tugab, -ni tushum kelishigi qo'shimchasini olgan so'zlarda ham ushbu hodisa kuzatiladi. Bunday holatda, kelishik qo'shimchasidagi /n/ tovushi progressiv dissimilatsiya natijasida /d/ tovushiga aylanadi.

Shohmardanni > shohmardandi

شاهمرداننی < شاهمرداندى

Yoqti hamaga soʻzi / haqti koʻradi ياقتى همه گه سوزى / حقى كوره دى
 koʻzi كوزى
 Bellarini bayladi / *shahmardandi* بيللرینی بيله دى / شاهمرداندى اوزى
 oʻzi [Hassos 2009, 75].

Bu misolda “Shohmardanni soʻzi progressiv dissimilatsiya natijasida “Shohmardandi” shakliga oʻzgargan. Morfologik jihatdan tushum kelishigi qoʻshimchasining dissimilatsiyaga uchraganini koʻrish mumkin.

Progressiv dissimilatsiyaning ushbu shakllari quyidagi fonologik omillar taʼsirida yuz beradi:

Artikulation yengillashish: Ketma-ket kelgan bir xil undoshlar talaffuzda qiyinchilik tugʻdirishi mumkin, shuning uchun tovushlardan biri oʻzgaradi.

Akustik kontrastning oshishi: Ketma-ket kelgan bir xil tovushlar farqlanishi uchun ularning biri boshqa bir tovushga aylanadi.

Nutq surʼatining taʼsiri: Tez gapirilganda yoki ogʻzaki nutqda progressiv dissimilatsiya yanada aniqroq kuzatiladi.

Regressiv dissimilatsiya

Tilshunoslikda regressiv dissimilatsiya – bir soʻzda bir-biriga yaqin yoki oʻxshash artikulation nuqtalariga ega ikki undoshdan oldingisining boshqa bir undoshga aylanish hodisasi hisoblanadi. Ushbu fonetik hodisa dunyoning turli tillarida uchraydi, ammo har bir tilga xos oʻziga xos qonuniyatlar asosida rivojlanadi.

Afgʻoniston oʻzbek tilida regressiv dissimilatsiya yozma va ogʻzaki nutqda kuzatiladigan muhim fonetik jarayonlardan biridir. Ayniqsa, feʼllarning oʻtgan zamon shakllarida va baʼzi yordamchi soʻzlarda ushbu oʻzgarish keng tarqalgan. Ushbu fonetik oʻzgarishlar tilning tabiiy rivojlanish jarayonining natijasi boʻlib, fonetik qulaylikni taʼminlashga xizmat qiladi.

Feʼllarda regressiv dissimilatsiya

Afgʻoniston oʻzbek tilida *-di* oʻtgan zamon qoʻshimchasini olgan ich-, kech-, uch- kabi feʼllarda regressiv dissimilatsiya hodisasi kuzatiladi. Bu feʼllar dastlab “ichti”, “kechti”, “uchti” shaklida talaffuz qilingan boʻlsa-da, vaqt oʻtishi bilan “ishti”, “keshti”, “ushti” shakliga oʻtgan.

ichdi > ichti > ishti	ايچدى < ايچتى < ايشتى
kechdi > kechti > keshti	كيجدى < كيجتى < كيشتى
uchdi > uchti > ushti	اوچدى < اوچتى < اوشتى
Havoga ushti keli / ayog'lari pupayli	هواگه اوشتى كىلى / اياغلرى پوپهيلي
Xo'ja dukkadan chig'ti / laylun minan makayli	خوجه دوککهدن چيغتى / ليلون مينن مکهيلي
[Hassos 2009, 53].	

Misoldagi "ichdi" fe'li dastlab "ichti" shakliga o'tadi, bu yerda /d/ tovushi /t/ tovushiga almashadi. Keyinchalik esa, regressiv dissimilatsiya natijasida /ch/ tovushi /sh/ tovushiga aylanib, "ishti" shakliga keladi. Xuddi shunday jarayon "kechdi" fe'lida ham sodir bo'lib, u avval "kechti", so'ngra "keshti" shaklini oladi. "Uchdi" fe'li esa birinchi bosqichda "uchti", keyinchalik esa "ushti" shaklini qabul qiladi.

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, (uchdi → uchti → ushti), (kechdi → kechti → keshti) kabi o'zgarishlar Afg'oniston o'zbek tilining jonli og'zaki nutqida va xalq ijodi namunalari tarkibida faol kuzatiladi. Ushbu hodisa talaffuz qulayligini ta'minlash bilan birga, tilning dinamik rivojlanishiga ham sabab bo'ladi.

Yordamchi so'zlarda regressiv dissimilatsiya

Afg'oniston o'zbek tilida yordamchi so'zlar ham regressiv dissimilatsiyaga uchraydi. Masalan, "bilan" yordamchi so'zi nutqda "minan" shakliga o'tadi. Bu jarayonda /l/ tovushi /n/ tovushiga aylanadi va natijada "bilan" so'zi "minan" shaklini oladi.

ln > nn

لن < نن
بيلن < مينن

bilan > minan

Boshqa bir kuni bolalarimdan eng sho'x

باشقه بير كونى بالهاريمن اينگ شوخ
و توپالانچيسى صفهدين ييقيليب اغزى
بورنى قان مينن بيرته بولگن ايکن.

va to'polonchisi sufadan yiqilib og'zi

burni qon **minan** birta bo'lgan ekan
[Yorqin 2013, 5].

Bu hodisa shuni ko'rsatadiki, Afg'oniston o'zbek tilida dissimilatsiya nafaqat fe'llarda, balki yordamchi so'zlarda ham faol jarayon sifatida davom etmoqda. Ushbu hodisa ko'proq og'zaki nutqda uchrashi bilan ahamiyatlidir, chunki u nutq jarayonida so'zlarni yanada tezroq va osonroq talaffuz qilish imkonini beradi.

Shart mayli qo'shimchasida regressiv dissimilatsiya

Shart mayli -sa qo'shimchasini olgan bo'l- fe'lining /l/ tovushi /b/ tovushiga aylanadi. Masalan, "bo'lsa" so'zi og'zaki nutqda "bo'bsa" shakliga o'tadi. Bu o'zgarish, shevalarda ko'proq uchraydi. Ushbu fonetik hodisa, ayniqsa, sheva va lahjalarda an'anaviy nutq me'yorlarini shakllantiradi.

bl > bb

بل < بب

bo'lsa > bo'bsa

بولسه < بولسه

Hariflardi yengimoqqa / chidamli

حريفلردى يېنىگماققە / چىدىملى بولسه يورک

bo'bsa yurak

تىلدى رواجلىش اوچون / سىنىگىشلى كۆرش كىرك

Tildi ravojlash uchun / singishli

ko'rash kerak [Hassos 2009, 79].

Misoldagi o'zgarish fonetik rivojlanishning tabiiy qismi bo'lib, ayrim shevalarda yanada barqaror tus oladi. Shevalarda tovush o'zgarishi talaffuzni yengillashtiradi va og'zaki nutq me'yorlariga moslashadi. Bunday fonetik hodisa, ayniqsa, xalq og'zaki ijodi namunalarida, qo'shiqlarda, xalq orasida ommalashgan iboralarda ko'proq kuzatiladi. Ushbu misolda "bo'bsa" shaklidan foydalanish shevada uchraydigan talaffuz variantini ifodalaydi.

Bu kabi o'zgarishlar o'zbek tilining rivojlanish jarayonida lahja va shevalarning ta'siri qanday kechayotganini ko'rsatib beradi. Ular fonetik tizimdagi tabiiy moslashuv jarayonining bir qismi bo'lib, og'zaki nutqda mantiqiy ravishda yuzaga keladi. Shuningdek, bunday hodisalar adabiy tilga ta'sir qilmasa ham, shevalar va og'zaki nutq taraqqiyotini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Regressiv dissimilatsiya til rivojlanishining tabiiy fonetik hodisalaridan biri bo'lib, u so'z tarkibidagi tovushlarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Ushbu hodisa turli tillarda, jumladan, o'zbek tilida ham uchrab, so'zlarning talaffuzini soddalashtirishga xizmat qiladi.

Birinchi navbatda, regressiv dissimilatsiya nutq qulayligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Tovushlarning o'zaro ta'siri natijasida og'zaki talaffuz yanada osonlashadi va til egiluvchanligi oshadi. Bu jarayon murakkab fonetik strukturalarga ega so'zlarda og'ir talaffuzni yengillashtirish uchun sodir bo'ladi.

Ikkinchidan, regressiv dissimilatsiyada keyingi tovush oldingi tovushga ta'sir qiladi va natijada, oldingi tovush o'zgarib, differensial fonetik xususiyat kasb etadi. Masalan, o'zbek tilida ayrim so'zlardagi /s/ tovushi keyingi /z/ tovushi ta'sirida yumshashi yoki o'zgarishi mumkin. Bu jarayon tovushlarning moslashuvchan-

ligini oshiradi hamda nutq jarayonini tabiiylashtiradi.

Uchinchidan, regressiv dissimilatsiya asosan og'zaki nutqda faol kuzatiladi. Yozma nutqda me'yoriy qoidalar hukmron bo'lgani sababli, tovushlarning bu tarzda o'zgarishi kamroq uchrasa-da, jonli og'zaki nutqda odamlar so'zlarni qulayroq talaffuz qilishga intiladi. Shu bois, regressiv dissimilatsiya muloqot jarayonida keng tarqalgan fonetik hodisalardan biridir.

To'rtinchidan, ushbu hodisa shevalar va lahjalarda keng uchraydi. Afg'oniston o'zbek shevalarida ayrim fonetik o'zgarishlar kuzatiladi, bunda orqa qator yoki old qator undoshlari keyingi tovushlarning ta'siri ostida o'zgaradi. Bu hodisa dialektologik tadqiqotlarda ham o'rganilgan bo'lib, har bir hududga xos fonetik farqlarni belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, regressiv dissimilatsiya tabiiy fonetik hodisa bo'lib, u nutq qulayligi va talaffuzni soddalashtirish uchun muhim sanaladi. Bu jarayon shevalarda, og'zaki nutqda va tilning tarixiy rivojlanishida keng kuzatiladi. O'zbek tilida ham ayrim fonetik o'zgarishlar regressiv dissimilatsiyaning namunalari sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

Progressiv dissimilatsiya – bu bir so'z ichidagi ketma-ket yoki yaqin joylashgan undosh tovushlardan keyingisining boshqa tovushga o'zgarishi hodisasidir. Afg'oniston o'zbek shevalarida bu jarayon keng kuzatiladi, ayniqsa, /r/ undoshining /l/ yoki /n/ tovushiga aylanishi odatiy hol sanaladi.

Misollar shuni ko'rsatadiki, (berar → beral), (birartasi → birantasi), (tannur → tandir) kabi o'zgarishlar talaffuzni yengillashtirish va tovush kontrastini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayon fonetik va morfologik o'zgarishlarda ham namoyon bo'lib, til taraqqiyotining tabiiy bir qismi hisoblanadi. Shu bois progressiv dissimilatsiyaning o'zbek tilidagi shevalar va lahjalar fonetik tizimini shakllantirishdagi roli katta.

Regressiv dissimilatsiya Afg'oniston o'zbek tilining muhim fonetik jarayonlaridan biri bo'lib, so'z tarkibidagi o'xshash tovushlarning farqlanishiga olib keladi. Ushbu hodisa fe'llarning o'tgan zamon shakllarida (ichdi → ishti), (kechdi → keshti), yordamchi so'zlarda (bilan → minan) va shart mayli qo'shimchasida (bo'lsa → bo'bsa) yaqqol kuzatiladi. Bu o'zgarishlar asosan og'zaki nutqda uchraydi va talaffuzni yengillashtirishga xizmat qiladi. Sheva va lahjalarda keng tarqalgan regressiv dissimilatsiya tilning

tabiiy rivojlanish jarayonini aks ettirib, xalq og'zaki ijodida ham faol namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar

- Бодуэн де Куртене И.А. 1963. *Избранные труды по общему языкознанию*. Тт. 1-2. Москва.
- Hassos, S. M. 2006. *Sabzavon Qo'shiqlar*. Mazori Sharif: Farhod Matbaasi.
- Hassos, S. M. 2009. *Dambura Ko'yilarida Qo'shiqlar va O'yinlar va Jo'ra Qo'zzim Dostoni (O'zbek Elatining Farhang va Og'izdagi Adabiyotida)*. Mazori Sahrif: Mirzo Ulug'bek Matbaasi.
- Irisqulov, M. T. 2009. *Tilshunoslikka kirish*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
- Jakobson, R. 1962. *Selected Writings: Phonological Studies*. The Hague: Mouton.
- Noil Xonkeldi A. 2017. *Turkiston Bayrami Erganaqo'n*. Mazori Sharif: Titotu Tahqiqot Markazi.
- Реформацкий, А. А. 1975. Введение в языковедение (Тилшуносликка кириш). Москва: Учпедгиз.
- Saussure, F. de. 1916. *Cours de linguistique générale* (Umumiy tilshunoslik kursi). Parij: Payot.
- Щерба, Лев Владимирович. 1957. Языковая система и речевая деятельность. Сборник работ. Ленинград: Наука. Ленингр. отд-ние.
- Yorqin, M. H. 2013. *Bu Usha Bechoragina*. Kobul: Alazhar Nashriyoti.
- Yorqin, M. H. 2020 *Tanzlar To'plami Biz Nega Urishamiz*. Kobul: Titotu Tahqiqot Markazi.
- يارقین محمد حلیم. طنزلر توپلمی بیز نیگه اوریشه میز. کابل: تیتاتو تحقیقات مرکزی.
- حساس صالح محمد. (۹۰۰۲). دیموره کویلریده قوشیقلر و اوینلر و جوره قوززیم داستانی (اوزبیک ایلتی نینگ فرهنگ و آغیزده کی ادبیاتیده). مزار شریف: میرزا اولوغ بیک مطبعه سی.
- حساس صالح محمد. (۶۰۰۲). سبزوان قوشیقلر. مزار شریف: فرهاد مطبعه سی.
- نایل خانکیلدی امین الله. (۷۱۰۲). تورکستان بیره می ایرگنه قون. مزار شریف: تیتاتو تحقیقات مرکزی.
- يارقین محمد حلیم. (۳۱۰۲). بو اوشه بیچاره گینه. کابل: الازهر نشریاتی.

Dissimilation in the Phonetics of the Uzbek Language of Afghanistan

Feada Mohammad Samadbek¹

Abstract

This article analyzes instances of the phenomenon of dissimilation in the phonetics of the Uzbek language spoken in Afghanistan. The study utilizes examples from both prose and poetic literary works. Various forms of dissimilation, particularly progressive and regressive dissimilation processes, as well as phonetic changes arising from sound similarity and the mutual influence of adjacent sounds, are illustrated with concrete examples.

Based on the research findings, while certain dissimilation phenomena are observed in the literary Uzbek language of Afghanistan, it has been determined that these processes manifest more extensively in spoken language. However, the study of this phenomenon in dialects has not yet been sufficiently carried out. Although a few academic studies have been conducted at the master's level, they have covered only a limited scope. Further research in this area needs to be expanded and thoroughly investigated.

This article serves as a noteworthy new study on dissimilation processes in the literary Uzbek language of Afghanistan, and we believe it will inspire future researchers in the field of linguistics.

Key words: *Afghan, uzbek language, dissimilation, progressive dissimilation, regressive dissimilation.*

References

- Baudouin de Courtenay, I. A. 1895. *Izbrannye trudy po obshchemu yazykoznaniyu* (Umumiy tilshunoslik bo'yicha tanlangan asarlar). Sankt-Peterburg.
- Hassos, S. M. 2006. *Sabzavon Qo'shiqlar*. Mazori Sharif: Farhod Matbaasi.
- Hassos, S. M. 2009. *Dambura Ko'ylarida Qo'shiqlar va O'yinlar va Jo'ra Qo'zzim Dostoni (O'zbek Elatining Farhang va Og'izdagi Adabiyotida)*. Mazori Sahrif: Mirzo Ulug'bek Matbaasi.
- Irisqulov, M. T. 2009. *Tilshunoslikka kirish*. Toshkent: Yangi asr avlodi.

¹ Feada Mohammad Samadbek – researcher, Tashkent State university of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi'.

E-mail: fada.mfada@gmail.com

ORCID ID: 0009-0004-2282-3320

For citation: Feada S. 2024. "Dissimilation in the phonetics of the Uzbek language of Afghanistan". *Golden scripts* 4: 90 – 102.

- Jakobson, R. 1962. *Selected Writings: Phonological Studies*. The Hague: Mouton.
- Noil Xonkeldi A. 2017. *Turkiston bayrami Erganaqo'n*. Mazori Sharif: Titotu Tahqiqot Markazi.
- Reformatskiy, A. A. 1975. *Vvedenie v yazykovedenie* (Tilshunoslikka kirish). Moskva: Uchpedgiz.
- Saussure, F. de. 1916. *Cours de linguistique générale* (Umumiy tilshunoslik kursi). Parij: Payot.
- Shcherba, L. V. 1957. *Yazykovaya sistema i rechevaya deyatel'nost'* (Til tizimi va nutq faoliyati). Moskva-Leningrad: Nauka.
- Yorqin, M. H. 2020 *Tanzlar To'plami Biz Nega Urishamiz*. Kobul: Titotu Tahqiqot Markazi.
- Hassos, Solih Muhammad. 2009. *Dombira kuylarida qo'shiqlar, o'yinlar va "Jo'ra Qozzim" dostoni (o'zbek elatining madaniyati va og'zaki adabiyotida)*. Mozori Sharif: Mirzo Ulug'bek matbaasi.
- Hassos, Solih Muhammad. 2006. *Sabzavor qo'shiqlari*. Mozori Sharif: Farhod matbaasi.
- Noyil Xankildi, Aminulloh. 2017. *Turkiston — bir millat, bir ildiz*. Mozori Sharif: Titotu Tadqiqot markazi.
- Yarqin, Muhammad Halim. 2013. *Bu o'sha bechoragina*. Kobul: Al-Azhar nashriyoti.

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

“Oltin bitiglar – Golden Scripts” jurnali – Sharq adabiyoti va madaniyati, ijtimoiy-ma’naviy hayoti, tilshunoslik va aniq fanlar, dinshunoslik va ilohiyotshunoslikka oid ahamiyatli qo’lyozma manbalar, xalq og’zaki ijodi namunalari bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalarini chop etishga mo’ljallangan.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo’lyozmalar yil davomida o’zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, turkiy tillarda topshirilishi mumkin. Agar muallif o’z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr etmoqchi bo’lsa, unda qo’lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etishi kerak.

Qo’lyozmalar MS Word (.doc) formatida (oltinbitiglar@gmail.com) elektron pochta yuborilishi kerak. Iqtiboslar va izohlar bo’yicha MS Word menejerini qo’llash lozim.

Barcha qo’lyozmalar muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma’lumot bilan yuboriladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig’i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o’ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo’lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantirilishi lozim.

Maqola matni 3 000–5 000 so’zdan iborat bo’lishi kerak.

100–150 so’zdan iborat o’zbek va ingliz tillaridagi abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so’zdan kam bo’lmagan kalit so’zlar (o’zbek va ingliz tillarida). Abstrakt maqolaning maqsadi, metodologiyasi va natijalarini qisqacha ifodalashi kerak.

Adabiyotlar ro’yxati 5 sahifadan oshmasligi lozim.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo’lishi mumkin) 1500 so’zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so’ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo’limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to’q bo’yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o’zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tillarda yozilgan bo’lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola sarlavhasidan keyin sahifaning o’ng chetida muallifning ism-familiyasi yozilib, oxiriga yulduzcha (*) ishorasi qo’yiladi va sahifa pastida muallif haqida quyidagi qisqa ma’lumotlar beriladi: F.I.O., ilmiy daraja va unvon; ish joyi; e-pochta va ORCID ID (raqami).

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.
Maqola bo'limlari sarlavhasi – *yotiq*, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satrboshidan, boshqa barcha qatorlari abzasdan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

6.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:

[Xondamir, Makorim, 17^a]

7.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011(a), 99]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Vohidov, Rahim va Husniddin Eshonqulov. 2006. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va Eshonqulov 2006, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Navoiy ijodida Ya'juj-Ma'juj obrazi." *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 130 – 133. Toshkent: Mashhur-press.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 131]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Adizova, Iqboloy. 2020. *Thinker poetess of the East*. Germany: Lambert Academic Publishing. <https://www.lap-publishing.com/>. 12.07.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Adizova 2020, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 1987, 19-hujjat]

7.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Alimuhamedov, Rixsitilla. 2018. "Qadimgi turk-moniy adabiyoti." *Oltin bitiglar* 1: 65 – 76.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Alimuhamedov 2018, 70]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Saddi Iskandariy" dostonidagi adabiy ta'sir va o'ziga xoslik masalasi xususida." *O'zbekistonda xorijiy tillar* 3: 229 – 235. doi: 10.36078/1596780050.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 231]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi. Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?." *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Sobirov, Ergash va Akmal Kenjayev. 2010. "Milliy qadriyat va globallashuv". *New York Times*, 27.02. <http://www.nytimes.com/28/us/28health.html>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sobirov va Kenjayev 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "The Chicago Manual of Style, 16th Edition" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

IZOHLAR

Ushbu son “Oltin bitiglar” tahririyatida sahifalandi.
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib
ko'chasi 103-uy.

Website: goldenscripts.tsuull.uz
E-mail: oltinbitiglar@gmail.com
Tel.: +99894 697-97-04

Bosishga 30. 09. 2024-yilda ruxsat etildi
Qog'oz bichimi 70x100 1/16/.
Nashriyot bosma tabog'i: 8

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi
Matbuot va axborot agentligi tomonidan №0940 raqami bilan
ro'yxatdan o'tgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi
tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan
doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi
lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga
qaytarilmaydi.

“Mashhur-Press” bosmaxonasida chop etildi.
Buyurtma №0440 Adadi 200 dona.
Bosmaxona manzili: 100129 Toshkent, Markaz 15, 1-uy.
Tel.: +99890 900 75 77,
+99894 659 94 62